

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH INNOVATSION UNIVERSITETI NTM

*INNOVATSIYA
VA
TARAQQIYOT*

*Ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy
JURNAL*

2024-yil 12-son

Urganch-2024

Bosh muharrir:

M.J.Eshmurodov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Bosh muharrir o‘rinbosari:

S. Samandarova – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Mas’ul kotib:

U.Bekimmetov – Tarix fanlari bo ‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Tahrir hay’ati:

Z.Do’simov – Filologiya fanlari doktori, professor.

S.K.Salayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

S.E.Normamatov – Filologiya fanlari doktori, professor.

A.D.O’razboyev – Filologiya fanlari doktori, professor.

D.Q.G’ayipov – Filologiya fanlari doktori, professor.

A.I.Primov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

R.Y.Xudoyberganov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

D.I.Yo’ldashev – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

S.M.Sariyev – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

Sh.X.Norbayeva – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

M.B.Tillayeva – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

R.B.Maxmudov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

M.M.Masharipov – Filologiya fanlari bo ‘yicha falsafa doktori, (PhD).

M.Salayeva – Pedagogika fanlari doktori, professor.

Ch.A.Sabirova – Pedagogika fanlari bo ‘yicha falsafa doktori, dotsent

S.I.Kalandarov – Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

D.F.Yusupov – Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

D.A.O’razboyeva – Psixologiya fanlari doktori, dotsent.

I.Abdullayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

D.Xudayberganov – Iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent.

O.N.Naumenko – Tarix fanlari doktori, professor (Rossiya).

O’I.Abdullayev – Tarix fanlari doktori, professor.

G.Durdiyeva – Arxitektura fanlari doktori, professor.

Q.Y.Masharipov – Tarix fanlari doktori, dotsent.

B.P.Sadullayev – Tarix fanlari bo ‘yicha falsafa doktori, dotsent.

N.R.Matyakubov – Tarix fanlari bo ‘yicha falsafa doktori (PhD)

B.M.Satimov – Tarix fanlari bo ‘yicha falsafa doktori (PhD)

D.K.Bobojonov – Tarix fanlari bo ‘yicha falsafa doktori (PhD)

M.S.Xajiyeva – Falsafa fanlari doktori, professor.

B.I.Abdullayev – Fizika-matematika fanlari doktori, professor.

R.Y.Ro’ziboyev – Tibbiyot fanlari doktori, professor, (TTA UF direktori).

A.R.Matnazarov – Fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

F.Yusupov – Texnika fanlari nomzodi, dotsent

Almaz Ulviy – Filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon).

Azizullah Aral - Filologiya fanlari bo ‘yicha falsafa doktori, dotsent (AQSH).

H.H.Tadiyev – Turkologiya fanlari bo ‘yicha falsafa doktori, dotsent (Qozog’iston).

J.S.Iskandarov – Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent.

O.Radjapov – Falsafa fanlari bo ‘yicha falsafa doktori.

ISSN 3030-3206

MUNDARIJA:
TARIX

Q.SOBIROV,R.ABDIRIMOV O'rta Osiyo Pleystotsen davrida	4
G.IBRAHIMOVA. XVII asrda xorazmdagi siyosiy jarayonlar va hokimiyatdagi o'zgarishlar	10
M.ESHMURODOV. Abulg'izi Bahodirxon tarixiy asarlarining lingvistik tadqiqi	19
U.TAJIYEVA. Ogahiy asarlari atrof-muhit tarixi bo'yicha muhim manba sifatida	25
U.BEKMUHAMMAD, N.ODILOVA. Bekjon Rahmon-Istambulda o'qigan Xorazmlik jadid.	28
X.DAVLETOV. O'rta Osiyoda temiryo'l qurilishi tarixi.....	33
F.ABDUXOLIQOV. Tarixiy shaxslar tasvirida sharq miniatyura san'ati an'analari.	37

FILOLOGIYA

S.SAMANDAROVA, U.BEKMUHAMMAD. Abdulla Qodiriy asarlarida davr voqealari	44
R.JABBOROV. Navoiy nigohidagi ijodkor.	49

PEDAGOGIKA

Y.BABAJANOV. Notiqlik san'atini rivojlantirish asoslari	54
A. MASHARIPOVA. Inklyuziv ta'lim borasidagi islohotlarning ahamiyati	59
K. KENJAYEVA. Bo'lg'usi pedagoglarda tadbirkorlik ko'nikmalari va malakalarini shakllantirish.	65
G. RAJABOVA. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining axborot kompetensiyasi diagnostikasi.	68
M. GANJAYEVA. Jadidlar merosi asosida talabalarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalash metodologiyasini takomillashtirish.	71
G. JUMANIYAZOVA. Talabalarni PIRLS tadqiqotiga tayyorlashning pedagogik mexanizmlari va metodikasi.	74

IQTISODIYOT

Sh.FARXODOVA. Zamonaviy jahon iqtisodiyotida xalqaro savdoni amalga oshirish usullari.....	78
O.QOBULOV. Infratuzilma shakllari va uning yo'nalishlari.....	82

TARIX

**O'RTA OSIYO PLEYSTOTSEN DA VRIDA
(arxeologik ashyolar va innovatsion yondashuvlar)**



**Qurbonboy
SOBIROV**
**Urganch davlat
universiteti professori**



**Razzoqberdi
ABDIRIMOV**
**Urganch innovatsion
universiteti dotsenti**

UO'K 560.10

Annotation: Maqolada O'rta Osiyo tabiiy-geografik hududlarida tosh davri geografik sharoiti, etnogenetik jarayonlar tarixi tahlil qilingan.

Аннотация: В статье анализируется географическая среда эпохи камня в природно-географических регионах Средний Азии и история этногенетических процессов.

Annotation: The article analyzes the geographical environment of the Stone Age in the natural-geographical regions of Central Asia and the history of ethnogenetic processes.

Kalit so'zlar: Baratov P., Mamatqulov M., Rafikov B., Ibragimov R.Z., Vinogradov A.V., Vinogradova Ye.A., Itina M.A., Kes A.S., Mamedov E.D., Bijanov Ye.B., Kabirov A., Sagdullayev A., Islomov U. I., Kasimov M.R. Ranov V.A., O'rta Osiyo, Seleng'ur, Ko'lbulog

Ключевые слова: Баратов П., Маматкулов М., Рафиков Б., Ибрагимов Р.З., Виноградов А.В., Виноградова Е.А., Итина М.А., Кесь А.С., Мамедов Е.Д., Бижанов Е.Б., Кабиров А., Ранов В.А., Средний Азия, Селенгур, Кульбулак.

Key words: Baratov P., Mamatqulov M., Rafikov B., Ibragimov R.Z., Vinogradov A.V., Vinogradova Ye.A., Itina M.A., Kes A.S., Mamedov E.D., Bijanov Ye.B., Kabirov A. R., Ranov V.A., Central Asia, Selengur, Kolbulog.

XX - XXI asrlar ilmiy adabiyotlarida qayd qilingan ma'lumotlar ushbu mavzu mazmunini yoritishda nazariy manba bo'lib xizmat qiladi. Osiyo materigining tarkibiy qismi bo'lgan O'rta Osiyo hududi yuzasi tuzilishi, rang-barangligi tog'lik va tekislik qismlaridan iborat geografik o'ringa ega. Tekislik qismi g'arbiy, shimoliy-g'arbiy va shimol tomonda, tog'lik qismi janubiy, janubiy-sharqiy va shar tomonda bo'lib, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston hududining 3 million 450 ming kv.kilometr uzunlikdagi geografig kenglikda joylashgan. O'rta Osiyoning har bir tabiiy-geografik hududlari relyefi turlichay tuzilishga ega, bir-biridan farqlanadigan ma'lum chegarasi hamda tabiiy sharoiti, suv manbalari, yer osti boyliklari, tog'lari va aholisining notekis joylashish xususiyatlari geografik koordinatalarga bog'liq bo'lgan. Shu ma'noda geografiya fani yutuqlariga ko'ra O'rta Osiyo hududi quyidagicha tabiiy-geografik rayonlashtirilgan:

1. O'rta Osiyo mintaqasining tekislik hududlari: Qozog'iston pasttekisligi, Mang'ishloq, Ustyurt, Orol dengizi atroflari, Quyi Amudaryo, Janubiy-g'arbiy Turkmaniston, Qizilqum, Qoraqum, Mirzacho'l, Quyi Zarafshon, Qarshi cho'li.

2. O'rta Osiyo mintaqasining tog'li hududlari: Farg'ona, Oltoy-Hisor, Tojikiston, Janubiy Turkman-Xuroson, Issiqko'l botig'i [1].

Arxeologik adabiyotlarda yer tarixi geologik jihatdan arxey, paleozoy, mezazoy va kaynazoy eralaridan iborat bo'lib, shundan kaynazoy erasi to'rtlamchi davri antropogenez bosqichi jarayoni kechgan. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra to'rtlamchi bosqich pleystotsen muzligi bir necha bosqichlarga bo'lingan [2]. Geologik adabiyotlarda qayd qilinishicha, 4–3,5 million yilliklarda Qizilqum-Orol botig'i oralig'i hamda Sariqamishbo'yi havzasi tekislik bo'lgan [3].

O'rta Osiyo geografik o'rni g'arbida Kasbiy dengizi, sharqida Osmono'par tog'lari, shimolida Orol dengizi, janubida Amudaryo joylashgan, ya'ni anklav hudud maqomiga ega bo'lgan. Shu ma'noda qadimgi ajdodlarimiz faoliyat olib borishning ijobiy va salbiy xususiyatlarini inobatga olganlar.

Ijobiy tomonlari:

- Osiyo materigi o'rta qismida joylashish, odamzodning tabiiy resurslardan foydalaniib, ilk kasb-korlarini belgilab olishi istiqboli mavjudligi;
- Yaqin va O'rta Sharq dunyosi o'troq ziroatkor aholisining xo'jalik sohasida erishgan yutuqlarini Volga, Don va Janubiy Sibir aholisiga tanishtirish imkoniyatlari;
- Aholi soni, zichligi ulushining shimoliy va shimoliy-sharqiy hududlarda migrantsion tadbirni olish uchun qulayligi;
- Xalqaro karvon yo'li markazida joylashuvi, turli hududlar sari yo'nalishda tayanch vazifasini bajarishi;
- O'troqlashgan aholining xo'jalik sohalarini rivojlantirishda tabiiy manbalarning serobligi;

Salbiy tomonlari:

- Shimoliy hudud ochiqligi, sovuq shamollarning yoyilish jarayonlari;
- G'arbiy hudud geografik holatini tashkil qilgan Qoraqum to'lqinsimon sochma qumlarining ko'chishi natijasida ekin-tekinga qulay sernam va serunum tekislikni qamrab olishi;
- Janubiy tomondagi issiq haroratning kirib kelishiga to'siq bo'ladigan tog'larning yo'qligi.

Ibtidoiy jamoa tuzumi tarixida insoniyatning bu yorug' olamda paydo bo'lishi, uning dastlabki faoliyati davrida ilk makonlar tebranishlari natijasida vujudga kelgan tabiiy g'or-makonlar va tekislikda faoliyat olib borgan chashmalar sohili etaklari muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Arxeologik izlanishlar natijalarini asos qilib olgan nashrlarda qayd qilingan tarixiy ma'lumotlarga ko'ra Ustyurt jamoasi, Shoxpaxta havzasida (Yesen 2,3; Chirchiq), Zarafshon vodiysi shimoliy-g'arbida (Ustyrt, Ijon, Vaush), Toshkent viloyati Ohangaron vodiysida (Ko'lbulloq), Farg'ona vodiysida (Seleng'ur) g'or-makonlari va ochiq manzilgohlar kishilar tomonidan o'zlashtirilib, etnik jarayonlar geografik kengligini hosil qilgan[4]. Mazkur geografik hududlarda ilk tosh davrlarida turli etnik jarayonlar yuz bergan. O'zbekiston viloyatlarida qadimshunoslar ilk tosh davri ovchilari va termachilarining moddiy va ma'naviy madaniyatini arxeologik jihatdan o'rGANISH ishlarini olib borganlar. X.A.Alpisboyevning Janubiy

Qozog‘iston hududlari Qoratog‘ tizimida ilk tosh davri kompleksining arxeologik jihatdan o‘rganilishi natijasida olingen ashyolar mazkur hududlarda joylashgan ovchilar va termachilarning xo‘jalik turmush sharoitini o‘rganishga imkon bergen ashyolarni olishga muvaffaq bo‘lgan, chunonchi Qoratog‘ tizimi Ko‘ktog‘ daryosi hududidan 5 km uzoqlikda joylashgan chashma sohili etagiga tutashib ketgan ochiq hududdagi qazishma ishlari natijasida olingen moddiy ashyolar, ya’ni tosh chopqilar, yumaloq toshlar Takash I, II, III kabi arxeologik majmuaga ajratilgan [5]. Shuningdek, kichik Qoratog‘ning janubiy-g‘arbiy qismida joylashgan Bo‘riqozig‘on va Tanirkozig‘on manzillari madaniy qatlamlaridan olingen ashyolar (qo‘l chopqilar, har xil shakldagi vazifalarni bajargan nukleuslar topilgan ilk tosh davriga oid manzilgohlar) Jambul viloyati, Sarisuv tumani hududida Shabakti I hamda Cho‘laktog‘ shahar tipidagi aholi manzilidan 36 km shimoliy-sharqiy hududida Uchbuloq, Burgutli, Uzunbuloq, Cho‘qon Valixonov manzilgohlarida qazish ishlari olib borilib, ilk tosh davriga oid ashyolar olingen. Bunday ashyolar Qozog‘istonning sharqiy-shimoliy va g‘arbiy o‘lkalari hududidan Sari Arna, Semizbug‘u, Kudaykul, Jaman Aybat kabi turar joylarda ashel davri quyi bosqichi davrida kechgan jarayonlarni yortishga xizmat qiladigan manbalar olingen[6].

Qirg‘iziston hududida tosh davri ilk bosqichida arxeologik izlanishlar nartijasida olingen moddiy ashyolar faqat Onarcha manzilgohidan olingen bo‘lsa, Janubiy Tojikiston hududida esa keng miqyosdagi arxeologik izlanishlar natijasida ko‘p sonli tosh qurollar olingen. Janubiy Tojikiston tog‘li hudud hisoblanib, ilk tosh davriga mansub Karatov 1, Loxutiy manzigohlari bo‘lgan. Masalan, Karatov-1 manzilgohi madaniy qatlamlaridan (dengiz sathidan 1125 m balandlikda joylashgan), qirg‘ich, tosh pichoqlar, qayroqtosh va qisman chaqmoqlardan topilgan. Loxutiy manzilgohi Xashar daryosi sohili hududida joylashgan, uning madaniy qatlamidan chopperlar, bir tomonli nukleuslar, tishli tosh qurollar olingen[7].

Janubiy Turkmaniston hududida ham ibridoiy manzilgohlar tog‘ hududlari etaklarida joylashgan, ekologik vaziyat kundalik xizmatlarni olib borishga imkon yaratgan. Bunday iqlim sharoit, tabiiy manbalar qulay bo‘lgan hudud Kaspiy dengizi sharqiy sohili hududida Krasnovodsk shahri atrofida Yangaja va Qora Tanger hamda Qashqirbuloq, Junula manzilgohlaridan ilk tosh davri quyi bosqichiga mansub tosh qurollar olingen. Shu bilan Ashxobod yaqinidagi Tomchi suv manzilgohi ham o‘scha tarixiy davrga mansub bo‘lgan[6].

O‘rta Osiyoning tog‘, tog‘ oldi hududlari suv havzalari sohili etaklarining ilk tosh davrida flora va fauna olami boy ekanligi bois, odamlarning yashashi uchun, xo‘jalik faoliyatini olib borishlari uchun qulay imkoniyatlar yaratgan. Pleystouen muzlik sharoitida aholi asosan sovuqdan saqlanish g‘orlarini izlab, tabiiy g‘orlarni makon qilganlar. Mazkur sovuqlik sharoitida Yesen-3, Qoraquduq, Churiq, Qulbuloq, Qizilnuri, Olamqul kabi manzilgohlar eng qadimgi ajdodlarimiz faoliyati, umuman, mazkur tarixiy davr ibridoiy jamoa tuzumi davrida kechgan ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlar tarixini yoritishda muhim manbalarni bergen hududlar hisoblanadi. O‘rta Osiyo hududlari muste davriga oid ibridoiy manzilgohlar arxeologik jihatdan yetarli darajada o‘rganilgan. Mazkur

tarixiy davrda Ustyurt, Shimoliy Zarafshon vodiysi, Farg‘ona hududlarida ochiq manzilgohlar va tabiiy g‘or-makonlarda joylashgan ovchi-termachilar tabiiy resurslar yetarli darajada bo‘ganligi bois, qo‘shti hududlarga ko‘chish siyosatini olib borishga zaruriyat bo‘limgan.

Arxeologik nashrlarda qayd qilinishicha, Toshkent vohasi Ko‘lbuloq ovchilari-termachilari aholi soni ko‘payganligi munosabati bilan vujudga kelgan mehnat qurollari tanqisligini, tevarak-atrof hududlaridan doimiy foydalanish natijasida tabiiy manbalar keskin kamayishini inobatga olgan aholi guruhlari tabiiy-iqtisodiy hududlarga ikki yo‘nalish bo‘yicha kirib borganlar. Birinchi yo‘nalish Ohangaron vodiysi bo‘lib, kishilar ushbu daryo sohili etaklariga kelib joylashib, tabiiy resurslar serob bo‘lganligi bois yangi geografik sharoitga moslashib, etnik munosabatlar darajasini kengaytirganlar. Ikkinci yo‘nalish esa Chotqol tog‘ tizmasi bo‘lib, aholi Poltov soyi yuqori sohilida tabiiy g‘or- makoni - Obirahmatga joylashganlar. Makon madaniy qatlamdan, ohak toshli chaqmoq toshdan yasalgan nukleuslar, parrakchalar, o‘tkir uchli sixchalar, qirg‘ich va pichoqlar tayyorlanganligi ma’lum bo‘ladi. Xilma-xil vazifani bajaradigan mehnat qurollari topilishi, ishlab chiqarishda texnologik jarayonlar qo‘llanganligidan dalolat beradi. Ikkinci manzilgoh – Xo‘jakent hisoblanadi. U Chirchiq daryosi so‘l sohili hududida qoya toshlar bag‘rida joylashgan. Uning madaniy qatlamlaridan qo‘l chopqilar, teshgich bigizlar kabi mehnat qurollari olingan. Shu bilan birga, Ko‘lbuloq ovchilari nafaqat tog‘li hududlar, balki Chirchiq daryosi, Ko‘ksuv, Chimyon, Uchum daryolari va Oqtosh soylari atrofidagi Burchmulla manzilgohlarida istiqomat qilib, etnik munosabatlar geografiyasini kengaytirganlar. Shuningdek, Toshkent shahri tevarak-atroflaridan muste davri yodgorliklari – Zog‘ariq, Qoraqamish, Bo‘zsuv 1, 16 manzilgohlari Toshkent vohasi tog‘li va tekislik hududlarida aholining joylashuv geografiyasini kengaytirganligi sababli etnik munosabatlar ham jadal kengaygan degan xulosaga kelish mumkin[8].

Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, O‘rtta Zarafshon hududi ovchilari va termachilar tog‘li va tekislik chashmalari atroflariga kelib joylashgan, ular tabiiy g‘or-makonlar va ochiq tipdagisi hududlarda o‘rnashib, tevarak-atrofdagi tabiiy resurslardan unumli foydalanib, tirikchilik qilganlar. Xususan, Surxondaryodagi Boysun tog‘i 1500 metr balandlikda tabiiy g‘or ovchilari tomonidan o‘zlashtirilgan ilk etnik makon bo‘lgan. O‘rtta Zarafshon hududining ham mazkur tarixiy davrda tog‘ va tekislik hududlari ovchilar va termachilar tomonidan o‘zlashtirilish doirasiga kirgan. Samarqand viloyati tog‘li va tekislik hududlarida, ya’ni Urgut tog‘i Taxtaqoracha qishlog‘ida Omonqo‘ton, Takalisoy g‘or-makonlari, Qo‘tirbuloq, Go‘rdara, Zirabuloq chashmasidan olingan moddiy ashyolar o‘rtta tosh davriga oiddir[9].

Qozog‘iston, Tojikiston, Janubiy Turkmaniston hududlarida ashel davri quyi bosqichida faoliyat olib borgan ovchilar va termachilarning avlodlari tabiiy resurslar zahirasi mavjudligi bois etnik munosabatlarni moslashgan hududlarda davom ettirganlar.

Tojikiston Respublikasi hududida muste davri aholi manzilgohlari arxeologik jihatdan o‘rganilgan. Shulardan Og‘zikichik g‘or-makoni bo‘lib, uning madaniy qatlamidan katta gulxan qoldig‘i, qirg‘ichlar, sixchalar, pichoqlar, kesgichlar kabi turli vazifani bajaradigan qurollar topilgan. Shu bilan birga ochiq tipdagi Qora-Bura, Qayroqqum; Janubiy Turkmanistonda esa Kaspiy dengizi sharqiy sohili hududlari Yangoja, Qora tanger ovchilar avlodlari kasbi-korlarini ko‘nikkan hududlarda olib borganlar. Qirg‘iziston hududida ashel davri odamlari (Onarcha) ham hududlarni o‘lashtirish siyosatini olib borgani uchun tadqiqotlar nashrlarida Tassor, Georgiy Bug‘or va Xo‘ja G‘ayr manzilgohlari qayd qilingan. Janubiy Qozog‘iston ashel davri manzilgohlarida istiqomat qilgan ovchilar va termachilarning avlodlari tevarak-atroflarni o‘zlashtirish siyosatini faol darajada olib borganlar, bundan Qorasuv, Sari Arna, Betpak 8, 12, Tashlaq, Burgutli 1-3, Uzunbuloq 1-2 kabi manzilgohlar dalolat beradi.

So‘nggi tosh davri – pleystotsen muzligi oxirgi bosqichi (11-9-ming yillar) davrida Toshkent, Farg‘ona-Toshkent, Surxandaryo hududlarida muste davri ovchilar va termachilari mavjud bo‘lgan tabiiy manbalardan foydalanganlar.

Darhaqiqat, Ustyurt shimoliy-sharqiy hududida Churuq manzilgohi ovchilar tarix taqozasidan kelib chiqib, Sulton Uvays tog‘ etaklariga joylashib, ochiq joydagi mehnat qurollari so‘nggi tosh davriga oid bo‘lgan Burli-3 manzilgohini makon qilganlar [10].

O‘rtta Zarafshonda so‘nggi tosh davriga oid Samarqand, Siyobcha, Xo‘jamazgil, Ormabuloq kabi manzilgohlar mavjud bo‘lgan [11].

O‘zbekiston-Rossiya va Belgiya xalqaro ekspeditsiyasi xodimlari Obirahmatda qazish ishlarni olib borishlari natijasida 16-madaniy qatlamdan bir dona qulq suyagi, maydalangan bosh suyagi topilgan bo‘lib, uning so‘nggi tosh davriga oid ekanligi aniqlangan [12].

Markaziy va Janubiy Qozog‘istonda muste davri ovchi-termachilari yangi avlodlari moslashgan hudud doirasida Achchisoy, Sari-Arka, Karabash-3, Betnak-7 kabi manzilgohlarni o‘zlashtirib, etnik munosabatlarni olib borganlar. Bu jarayon Turkmaniston Respublikasi shimoliy-g‘arbiy hududi Kaspiy dengizi sharqiy sohili Yangaja manzilgohi ovchilar avlod-ajdodlarining xo‘jalik an’analarni davom ettirganlar [13].

Yuqorida qayd qilingan fikr-mulohazalardan quyidagicha yakuniy xulosaga kelish mumkin:

- Geologik jarayonlar natijasida Yevroosiyoning geografik manzarasini umumiylashtirish etgan O‘rtta Osiyo tog‘ va tekislik, tabiiy resurslarga, tabiatni, iqlim sharoiti jihatdan qulay bo‘lishi odamzotning joylashib, kundalik faoliyatlarini olib borishga keng imkon yaratgan;

- 40-12-ming yilliklarda Orta Osiyonning Markaziy va Janubiy Qozog‘iston, Turkmaniston va O‘zbekiston huddularida o‘rnashgan aholi o‘z faoliyatini davom ettirgan. Mazkur tarixiy davrda Xorazm vohasi shimolida joylashgan Sulton Uvays tog‘i etaklari ovchilar tomonidan o‘zlashtirilib, yangi hududda etnik munosabatlarning olib borilishi natijasida tosh davri geografiyasi yanada kengaygan;

- O'rta Osiyo mintaqasida so'nggi tosh davri ovchilari va termachilari o'rnashib, xo'jalik sohillarini rivojlantirishga imkon bergan manzilgohlarda etnik jarayonlar navbatdagi tarixiy davrda kechadigan jarayonlarga asos bo'lib, etnik munosabatlar davom qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baratov P., Mamatkulov M., Rafikov B. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi. Toshkent: "O'qituvchi", 2002 – b.7; 429.
2. Ibragimov A.Z. O'rta Osiyo arxeologiyasi. Toshkent. 2002 – b.23.
3. Виноградов А.В., Итина М.А., Кесь А.С., Е.Д.Мамедов. Палеогеографическая обусловленность расселения древнего человека в пустынях Средней Азии // Первобытный человек, его материальная культура и природная среда в плейснотостцене и голоцене// "Наука", 1974 –с.290 – 291
4. Бижанов Е.Б. Памятники каменного века впадины Шахпахты// Археология Приаральяб Ташкент: "Фан", 1984. вып 2-с 8-21. Исламов У. И. Древнейшая пещерная палеолитическая стоянка Селенгур Ферганской долины./СА - М: Наука, 1990 Н 2-с 115-126 б. Касимов М.Р., Годин М.Х. О комплексном исследование палеолитической стоянки Кульбулак// ИМКУ. Ташкент, "Фан", 1982- вып. 17, Узбекистан тарихи - Тошкент, 2023 Б.24.
5. Алписбаев Х.А. Памятники нижнего палеолита Южного Казахстана Алматы, 1979 - с.5-45.
6. Ibragimov R.Z. O'rta Osiyo arxeologiyasi Toshkent, "Fan" 2020 – b.16, 20-23.
7. Лазаренко А.А., Ранов В.А., Новая палеолитическая стоянка Карагату 1 в Южном Таджикистане// Успехи среднеазиатской археологии - Л: "Наука", 1975. Вып. 3 - С.69-71
8. Окладников А.П. Средний палеолит - мустьевское время в Средней Азии// Средняя Азия в эпоху камня и бронзы - М-Л; "Наука", 1966 - с. 25-33.
9. Лев Д.Н. Древний палеолит в Аманкутане // Труды УзГУ. Вып. 39., С. 105-109.
10. Ташкенбаев Н.Х. Новая среднепалеолитическая стоянка Кутурбулак // ИМКУ. - Ташкент, "Фан", 1973., с. 27 - 28.
10. Виноградова Е.А. Первые палеолитические находки в Султануиздаге// Приаралье в древности и средневековья// - М. "Наука", 1998. - с. 74-77.
11. Журақулов М.Ж. Самарқанд воҳасининг ибтидоий маданияти тарихи сахифаси// Ўзбекистон археологияси - Самарқанд, 2011. №1 (2) б.-15
12. Плант З.М. , Виола Б., Чекишева Т. Новые останки гоминид из грота Оби-Рахмат// Грот Оби-Рахмат// Сборник статей. Новосибирск, 2000 - С.77-78.
13. Кабиров А., Сагдуллаев А. Ўрта Осиё археологияси. Тошкент. "Ўқитувчи". 1990. Б. 55-56.

TARIX**XVII ASRDA XORAZMDAGI SIYOSIY JARAYONLAR VA
HOKIMIYATDAGI O'ZGARISHLAR****UO'K 540.20**

**Gulzoda
IBRAXIMOVA**
Urganch innovatsion
universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada XVII asrda Xiva xonligidagi siyosiy jarayonlar va hokimiyat boshqaruvidagi o'zgarishlar tadqiq qilinadi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются политические процессы и изменения в управлении властью в Хивинском ханстве в 17 веке.

Annotation: this article examines political processes and changes in government in the Khiva Khanate in the 17th century.

Kalit so'zlar: Xorazm, Xiva, xonlik, hukmdor, shahzoda, taxt, hokimiyat.

Ключевые слова: Хорезм, Хива, ханство, правитель, князь, трон, власть.

Key words: Khorezm, Khiva, khanate, ruler, prince, throne, power.

Ko'plab tarixiy, ziddiyatli voqealarning guvohi bo'lgan va shu jarayonlar ichida yurgan Hoji Muhammadxon 1601-yilda 83 yoshida dunyodan o'tdi. Tarixiy manbalarda Hojimxon davrida Xiva shahri Xorazm xonligi poytaxti qilib belgilanganligi qayd qilinadi. Shu davrdan boshlab, rus manbalarida Xorazmdagi davlatning nomi Xiva xonligi deb yozila boshlandi¹.

1602-yilda Xiva xonligi taxtini Arab Muhammadxon egalladi.

Arab Muhammadxon hukmronligining dastlabki yillarida toju-taxt uchun kurash davom etdi. Nayman urug'i vakillari xon o'rniga Xisrav sulton ismli Elbarsxon avlodiga mansub amaldorni qo'yishni rejorashtirdilar. Movarounnahrdan Xivaga keltirilgan Xisrav sultonni taxtga ko'tarish haqidagi maslahatda qatnashgan ikki kishi sheriklarini sotib qo'ydi. Natijada Arab Muhammadxon Xisrav sultonni tutib olib, o'ldirishga hukm qildi. Bu ishni Xisrav sultonning inisi Bobo mirzo amalga oshirdi².

¹ Жуковский С.В. Сношения России с Бухарой и Хивой за последнее трехсотилетие. Петроград, 1915. – С. 98 ва кейингилари; Нематов Т. Хива билан Россия ўртасида муносабатлар тарихига доир баъзи манбалар (XIX асрнинг 20-50-йиллари). -Тошкент.: 1957. – Б. 138

² Абулфази. Шажарайи турк. – Б.167.

Oradan ikki yil o‘tib, uyg‘ur urug‘i oqsoqoli Ponashmirzo fatvosi bilan Samarqanddan Hasanqulixon avlodidan bo‘lgan Solih sulton degan kishini yashirin ravishda Urganchga olib keldilar. Isyondan xabar topgan Arab Muhammadxon tezda Xivadan Urganchga boradi va xalqni maslahatga chorlaydi. Urganchliklar uni yoqladilar va qozoqlar oldiga borgan 200 ga yaqin odamlar ham qochib ketdilar. Natijada qo‘lga olingan Solih sulton o‘ldirildi. Xon isyonchilarni jazolash yoki avf etishni fuqaroning o‘ziga havola qildi³.

1616-yilga kelib, taxt va mansab talashish mojarolariga Arab Muhammadxonning o‘g‘illari ham qo‘shildilar. Uning Isfandiyorxon, Habash, Elbars, Abulg‘oz, Sharif Muhammad, Xorazmshoh va Afg‘on sulton ismli 7 nafar o‘g‘li bor edi. Otasining taxtga o‘tirganiga 14 yil bo‘lganda o‘g‘illari 16 yoshli Habash va 14 yoshli Elbars sultonlar bilan yov bo‘lib qolishdi. Otasi Urganchga ketgan vaqtida ular qo‘shin to‘plab, Xurosonni talab qaytdilar. Arab Muhammadxon Vazir qal’asini o‘g‘illariga bergenini e’lon qildi. O‘z navbatida, Elbars 4 ming navkari bilan Xivaga kelib otasini ko‘rib ketdi. Oradan 5 yil o‘tgach, Elbars sulton Obivard shahriga yurish qilishni rejalashtirdi va otasidan yordam olish uchun Xivaga keldi. Ammo bu vaqtida xon Urganchga ketgandi. Elbars navkarlari xonni tutib, Xivaga olib keldilar. Elbars otasini bir uyga qamab, oldiga soqchi qo‘ydi. O‘ttiz yildan buyon yig‘ib kelinayotgan xazinani hamdabeklarning molini tortib oldi. So‘ngra o‘margan mollarini olib Vazirga otlandi. Ammo uning zafari uzoq davom etmadidi⁴.

Elbars Xivada zo‘ravonlik qilayotgan daqiqalarda Isfandiyor sulton Hazoraspda, Habash, Abulg‘oz va Sharif Muhammad sultonlar Urganchda lashkar to‘plash bilan ovora edilar. Oqsoqollar aka-ukalarning qon to‘kishlariga fatvo bermadilar. Elbars shu bahona bilan Arab Muhammadning jonini olishi mumkin deb xavfsiradilar. Elbars Xivani tark etgandan keyin Arab Muhammadxon Urganchga keldi. Bu yerdagi o‘g‘illari bilan Elbars sulton ustiga yurish qildi. Natijada uning uy-joyi va eli qirg‘in qilindi, o‘zi esa 5-6 kishisi bilan qir-adirga chiqib ketdi.

O‘g‘illari Elbars va Habash sultonning noo‘rin ishlari Arab Muhammadxonga tinchlik bermasdi. Xon lashkar to‘plash va Vazirga yurishga farmon berdi. Bu haqda xabar topgan Elbars va Habash ham

³ Абулғози. Шажарай турк. – Б.167 ва кейингилари.

⁴ Абулғози. Шажарай турк. – Б.167 ва кейингилари.

kuch to‘plab, Xivaga yurish boshladilar. Toshli Yarmish arig‘i soqasiga yetganda har ikki tomon o‘rtasida jang boshlandi. Habash sulton asir tushgan otasi Arab Muhammadxonning ko‘zini o‘yish to‘g‘risida farmon berdi va keksa xonni Xivaga keltirib, qamab qo‘ydilar⁵.

Yengilgan Isfandiyor, Sharif Muhammad va Xorazmshoh sultonlar Hazorasp qal’asiga yashirindilar. Abulg‘ozи avval Katga qochdi, keyin esa Buxoro xoni Imomquli huzuriga jo‘nab ketdi⁶.

Habash va Elbars sultonlarning kuchlari Hazorasp qal’asini 40 kun qamal qilib turdi. Kuch bilan qal’ani bo‘ysundirishga ko‘zları yetmagach, muzokara boshladilar. Natijada Isfandiyor sultonga Makkaga ketishga ruxsat berildi. Sharif Muhammad sultonga Kat shahri topshirildi. Arab Muhammadxonning kichik o‘g‘illari - Xorazmshoh sulton 12 yoshda va Afg‘on sulton 10 yoshda bo‘lganligi sababli Xivada onalari qaramog‘ida qoldirildi. Habash sulton Urganch va Vazirni, Elbars sulton esa Xiva va Hazoraspni boshqardilar⁷.

Arab Muhammadxonni uch zaifasi va ikki kenja farzandlari bilan Qumqal’ada tutqinlikda ushlab turishardi. Bir yildan keyin Elbars sulton akasi Habashga aytmay otasi va kichik inilarini Xivaga olib keldi. Shu yerda otasi Arab Muhammadxon, ukasi Xorazmshoh sulton, akasi Isfandiyorning 3 va 1,5 yashar o‘g‘illarini o‘ldirtirdi. Kichik inisi Afg‘onni akam o‘ldirsin deb Habash sulton oldiga yubordi. Ammo bu norasida bolaning nima aybi bor deya, Habash sulton uni Rossiyaga jo‘natib yubordi. O‘zga yurtda Afg‘on sulton 30 yil umr ko‘rdi va nasl qoldirmasdan dunyodan o‘tib ketdi⁸.

Isfandiyor Makkaga bormadi va Isfahonda shoh Abbos I (1587–1629) huzurida biroz turgach, ruxsat olib yurtiga qaytishga harakat qildi. U Durun shahri va Abulkxon tog‘lariga kelgan vaqtida 300 ga yaqin lashkar to‘pladi. Unga turkmanlarning taka, sariq, yovmut urug‘laridan yana 80 ga yaqin yigitlar kelib qo‘sildilar. Tez orada Habash sulton To‘q qal’asi yaqinida suv bo‘yida turibdi, degan ma’lumot olindi. Isfandiyorxon yarim kechada inisi uyiga bostirib borganda, Habash uyida yo‘q edi. Shu kechasi u bir navkarining uyida tunagan bo‘lib, voqeadan xabar topgach, qochib Elbarsxon oldiga keldi. Og‘a-inilar kuch to‘plab, Isfandiyor ustiga yurdilar. Ular kelguncha Elbarsxonning qaynotasi, Boqirg‘onlik Sayid ota avlodidan

⁵ Абулғози. Шажарайи турк. – Б.162 ва кейингилари.

⁶ Ўша жойда. – Б. 165.

⁷ Ахмедов Б. Тарихдан сабоклар. – Б. 218.

⁸ Абулғози. Шажарайи турк. – Б.165.

bo‘lgan Nazarxo‘ja ismli amaldor juda ko‘p odamlarni to‘plab, Isfandiyor sultonga qarshi kurashga ko‘tardi⁹.

Isfandiyor sulton Nazarxo‘jani Mang‘ishloqqacha quvib bordi. Qaytib kelgach, Urganch yaqinida 23 kun davomida Habash va Elbars bilan jang qildi. Elbars qo‘lga olinib, qatl qilindi. Habash esa Sirdaryo bo‘ylaridagi qoraqalpoqlar oldiga bordi. U yerda bir vaqtlar o‘zi iltifot ko‘rsatgan mang‘it mirzolaridan Shaynak ismli amaldor bor edi. Undan madad va iltifot kutgan Habash g‘aflatda qolib, aldandi. Shaynak o‘z homiysi va navkarlarini tutib, Isfandiyorga topshirdi. U Habashni o‘ldirdi¹⁰.

Oradan ikki oy o‘tgach, Isfandiyor sulton nayman elini qirdi. O‘zbeklar uch bo‘lakka bo‘linib, biri-mang‘it, biri-qozoqlar yurti va yana biri-Movarounnahrga ko‘chib ketdi. Uch yildan keyin Amudaryoning Orolga quyadigan yerlariga 3 ming uylik o‘zbeklar qaytib keldi. Buxoroda turgan yana 3 ming uylik o‘zbeklar Katga ko‘chib kelganlarida, Isfandiyor daryodan o‘tib ularning barchasini qilichdan o‘tkazdi. Inilariga o‘xshab qon to‘kib, minglagan jasadlarni pillapoya qilib taxtga chiqqan Isfandiyorxon 16 yil hukmronlik qildi¹¹.

1643-yilda Orol o‘zbeklari Abulg‘ozini xon qilib ko‘tardilar¹². Ammo Xorazmning barcha hududlarini bir vaqtda birlashtirish imkonini bo‘lmadi. Chunki Isfandiyordan qolgan o‘g‘illariga berilgan yerlar Buxoro xoni Nodir Muhammad ta’sirida edi. Shu bois Abulg‘ozini bir necha bor Xiva ustiga yurib, bo‘ysunmagan odamlarni qirdi. Xiva qal’asi yaqinida Buxoro xonining nevarasi Qosim sulton qo‘sishnlari bilan bo‘lgan jangda Abulg‘ozini lashkarlari jasorat ko‘rsatib, g‘alaba qozondilar.

Qosim sulton boshliq buxoroliklarning Xiva ostonasidagi mag‘lubiyatidan xabar topgan Nodir Muhammad 1644-yilda Xorazmga Yoqub Tavsat ismli amaldorni yubordi, ammo u ham yengildi. Shu orada Buxoro beklari Nodir Muhammadni taxtdan ag‘darib, o‘rniga o‘g‘li Abdulazizni ko‘tardilar¹³.

⁹ Абулғози Баҳодирхон. Шажарайи турк. – Б.165-166.

¹⁰ Ўша жойда.

¹¹ Ўша жойда. – Б.167.

¹² Оғаҳий. Фирдавс ул-иқбон. // МИТТ. Т. II. – С.326-330.

¹³ Абулғози Баҳодирхон. Шажарайи турк. – Б.167 ва кейингилари.

1644-yilda Abulg‘ozi Xivaga kelib, xon taxtiga rasman chiqdi. Xon barcha turkmanlarning gunohini o‘tgani va ularning o‘z yerlariga qaytib kelishlari mumkinligi haqida xabar tarqatdi¹⁴.

Abulg‘ozi 1646-yilda Tajan vohasiga yurish qildi. Ularni ham jazolab, ko‘plarini o‘lja olib qaytdi. Xullas, “Shajarai turk” asarida Abulg‘ozixon o‘sha davr ziddiyatlarini va bo‘lib o‘tgan kurashlarni tasvirlab o‘tgan¹⁵.

Kelgusi yili janubiy Xorazmdagi yirik qal'a hisoblangan Katni qolmiqlarning qo‘sut urug‘idan bo‘lgan Durdi Toyshi odamlari talab ketdi. Ularning izidan qo‘shtin bilan ta’qib qilgan Abulg‘ozi 15 kun deganda Yugrukosh degan joyda talonchilar orqasidan yetdi. Yarim kunlik jangu-jadaldan keyin qalmiqlar qochib ketdilar. Biroz dam olgach, xon qo‘shtinlari yana bir hafta davomida qalmiqlarni ta’qib qilishni davom ettirdi. Natijada qalmiqlar ko‘plab ot va tuyalari, bosqinchilik bilan talagan mol-mulklaridan ayrib, faqat bir qismi jon saqlashga muvaffaq bo‘ldilar, xolos¹⁶.

Xivaga qaytgan Abulg‘ozi Atrek daryosi bo‘yida yashayotgan Odiy sardor boshliq bayraj urug‘i ustiga yurish qildi. Abulg‘ozi odamlari bayrajlar eliga savdo ishlari bilan ketayotgan Avnash ismli karvonboshiga duch kelishdi. Olingan ma'lumotlar asosida xon bayrajlar ustiga yurish qildi. Abulg‘ozining shu jangi haqida “Shajarai turk” asarida shunday yozilgan: “Andag‘ urush bo‘ldikim, hargiz mundag‘ bo‘lmay erdi. Nogoh xoni jannat makonning bir quli Odiy bayramni miltiq bilan uzub yiqitdi. Andin so‘ng o‘ttiz yigit ko‘tarila ot soldilar. Taqi turkmanlarni o‘lturub, o‘g‘lon-ushoqini o‘lja va asir qilib, xonga olib keldilar. Xon ham bu yigitlarga in’omlar berdi. Taqi bir necha kundin so‘ng fath va nusrat bilan qaytib Xevaqqa tushdilar”¹⁷. Keyingi yili Abulg‘ozi turkmanlarning yimrayli (emireli) va sariq urug‘larini bo‘ysundirdi.

Xonlikning shimoliy va sharqiy hududlari havfsizligini ta’minlash ham Abulg‘ozining e’tiborida turardi. 1655-yilda qolmiqlarning turg‘avut urug‘idan Mergan To‘yshi va O‘qchurtaba Tag‘ul ismli yetakchilari Hazoraspning bir qancha qishloqlarini talagandan keyin, Sadvar va Darg‘anota qishloqlari aholisining mol-mulkini talon-taroj etdi. Bu haqdagi xabarni eshitgan Abulg‘ozi qalmiqlarning 10 kun oldin yurtiga qaytib ketganligi haqidagi ma'lumotga qaramasdan, ularni

¹⁴ Ўша жойда. – Б. 168.

¹⁵ Ўша жойда.

¹⁶ Огахий. Фирдавс ул-иқбон. // МИТТ. Т. II. – С. 328.

¹⁷ Абулғози Баҳодирхон. Шажарай турк. – Б.183.

ta’qib qilishga qaror qildi. Katta talofat berib, qochishni davom ettirayotgan qalmiqlarning asosiy kuchlari Sangin rabot degan joyga yashirindilar. Urushga yuragi betlamagan qalmiqlar xonga odam yuborib, “Buxoroga boramiz deb, adashib sizning yurtingizga borib qolibmiz, bizni kechiring” deya yalindilar. Shundan so‘ng talagan mol-hollarini oldiga solib, qilichlarini bo‘yniga osib, xon oldiga kelgan qalmiqlarni kechirdilar. Ular bundan keyin hech qachon Xiva xoni yerlariga huruj qilmaslikka ont ichdilar¹⁸.

Xiva xonlari avlodlarining Buxoro hukmdorlari bilan qarindosh–urug‘chilik munosabatlari bo‘lsa-da, ular orasida raqobatlar davom etardi. Buxoro xoni Abdulazizning inisi Subhonquli Abulg‘ozining ukasi Sharif Muhammadning kuyovi edi. Balx hokimi bo‘lgan Subhonquli Abulg‘oziga odam jo‘natib, akasiga qarshi urushga da’vat qildi. Abdullaxon davrida qarindosh–urug‘lari qoni to‘kilganligini ko‘p marta eshitgan Abulg‘ozi Buxoro ustiga yurish boshladi. Ko‘kardik degan joyga yetganda xon Bekquli inoqni Qorako‘l ustiga yubordi. O‘zi esa 30–40 qishloqni egallagach, Buxoro darvozalari oldida paydo bo‘ldi. Shu orada Bekquli ham Qorako‘lni egallab, katta o‘lja bilan kelib, xonning asosiy lashkarlariga qo‘sildi. Xivaga qaytgan xon lashkarlariga alohida iltifot ko‘rsatdi¹⁹.

Shu yili Abulg‘ozining o‘zi Qorako‘lga ikkinchi bor yurish qildi. Kelgusi yili Chorjo‘y ham shu tariqa bo‘ysundirildi va xalqi asir qilib olib ketildi²⁰.

1657-yilda Abulg‘ozi qo‘sinchilari Qorako‘lga yurish qilib, Yoychin va Narzam degan joylarni egallab, Karmana ustiga yurish boshladi. Zarafshon daryosidan o‘tgan xivaliklar shahar aholisining bisotini o‘lja olishdi va Abulg‘ozi buyrug‘i bilan 15 ming kishilik qo‘sinchin orqaga qayta boshladi. Ularni ta’qib qilgan Buxoro qo‘sinchilari bilan Xivaliklar o‘rtasidagi to‘qnashuv yetti marta takrorlandi. Xivaliklarning qutulishi mushkul bo‘lib qolganda Anushaxon Abdulazizning qo‘sinchiga shiddat bilan hamla qildi. Qo‘qqisdan boshlangan ushbu hujum natijasida buxoroliklar qo‘sini parokanda bo‘ldi. Ular chekinib, o‘zlarini daryoga tashlay boshladilar. Abdulazizning o‘zi ham daryodan o‘tib, zo‘rg‘a jon saqlashga muvaffaq bo‘ldi²¹.

¹⁸ Огахий. Фирдавс ул-иқбоб. // МИТТ. Т. II. – С.330.

¹⁹ Ўша жойда.

²⁰ Ўша жойда.

²¹ Абулғози. Шажарайи турк. – Б.187 ва кейингилари.

Karmana safarida Anushaxon 14 yoshlik yigit bo‘lib, otasining behad hurmatiga sazovor bo‘ldi. “Taqi barcha xalqni yig‘ib aytdilar kim, o‘g‘limizning avval safari erdi, oyoqi va yo‘li muborak bo‘ldi. Abdulazizzon tek ulug‘ podshohni bosduq va taqi urush kunida qilgan ishlariga tahsinlar qilib, ulug‘ to‘y berdilar. Taqi tug‘ berib, lashkar qo‘sib Hazoraspni berdilar²², -deb yozgandi shu davrdagi voqealarning guvohi bo‘lgan Mahmud Urganjiy.

1663-yilda Abulg‘ozzi Vardanze degan joyga yurish qilib, yana bir bor Buxoroga otlandi. Shaharning Namozgoh darvozasi oldida turgan Abulg‘ozzi Buxoroga kirmaslikka qaror qildi. Chunki bu vaqtida Abdulaziz Samarqandda bo‘lib, shaharda oddiy xalqdan boshqa qo‘sishin yo‘q edi. Shu bois xonning o‘zi yo‘q vaqtida bir necha xotin–xalaj turgan shaharni oldi degan andishadan qochib, Abulg‘ozzi ulkan o‘ljalar to‘plagan qo‘sinni Xivaga qaytarishga farmon berdi. “Agar tangri bersa Abdulazizzon qal’aning ichinda tursa, aning qo‘lidan olg‘aymen”, -degan Abulg‘ozining orzu-niyatlari ro‘yobga chiqmadi.



Akademik B.Ahmedov yozgandi: “Abulg‘ozzi hammasi bo‘lib yigirma yil atrofida xonlik masnadida o‘tirdi. Lekin boshqa hukmdorlarga o‘xshab huzur-halovat ko‘rmadi. Umri ko‘proq urush-talashlarda o‘tdi”²³. Darhaqiqat, Abulg‘ozzi butun umrini taxt uchun kurash va jangu-jadallarga bag‘ishlagan fotih desa, mubolag‘a bo‘lmas. Ammo u davlat arbobi sifatida ham juda katta qobiliyatli, mahoratl shaxs edi. Dastavval u xonlikda boshqaruv tizimini mustahkamlashga e’tiborni qaratadi. Xonlikni boshqarishda o‘zbeklarning mavqeい ortib bordi²⁴ va ularning 360 vakili xon saroyida turli lavozimlarga ko‘tarilganini Munis “Firdavs ul-iqbol” asarida keltiradi (28^a). Xon yangi amaldorlardan 32 nafarini mahram qilib, o‘z yoniga oldi²⁵.

²² Ўша жойда. – Б. 188.

²³ Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар. – Б. 219.

²⁴ Муфассал қаранг. Кўшжонов О., Дурдиева Г. Хива хонлиги туркманлари. Хива, 2008. – 11.

²⁵ “Андоқким икки шайх ул-ислом, икки қози, бир раис Саййид ота авлодидан, бир мутавалли, бир нақиб, тўрт оталиқ, тўрт иноқ, тўрт мироб, тўрт парвоначи, икки оқо, икки арбоб, тўрт чифатой иноки, ва бар вазирким, ҳоло меҳтар дерлар ва бир күшбеги, бу иккovi ўринсиз хон ҳузурида оёқ устида турадилар”

Xorazmga Dashti Qipchoqdan kelgan ko‘chmanchi qabilalarni o‘troqlashtirish tadbirlari ham Abulg‘ozining ichki siyosatida muhim o‘rin egalladi. Ular to‘rtta guruhga bo‘linib, Buxoro bilan chegara bo‘lgan Doyaxotun (Darg‘onota yaqinida) dan tortib, to Orolgacha bo‘lgan yerlarga joylashtirildi. To‘pa deb atalgan bu guruhlarning kattalaridan biri - uyg‘ur va nayman qabilalarini tashkil qilib, ularga do‘rman, yuz, ming, shayx, burloq kabi kichik urug‘lar ham qo‘sildi. Uyg‘urlarga Hazorasp bekligining chekka qishlog‘i Pitnakdan tortib, Yangiariqqacha bo‘lgan yerlar, naymanlarga esa Yangiariqdan to Gurlangacha bo‘lgan hududlar ajratildi.



Qiyot–qo‘ng‘irotlar to‘pasiga o‘zbeklarning jaloyir va turkmanlarning alieli urug‘lari ham birlashtirilgan bo‘lib, ularga Shovotdan Qo‘ng‘irotning Quyg‘un degan joyigacha bo‘lgan yerlar ajratildi. Uchinchi to‘paga-nukus-mang‘it qabilalari birlashtirilib, ularga Kenagas va Xo‘jaeli urug‘i kiritildi. Qang‘li–qipchoqlar alohida to‘paga ajratilgan bo‘lib, unga ko‘chmanchilarning yana bir nechta urug‘lari birlashtirildi²⁶.

Gurlandan to Lavzan kanaligacha bo‘lgan hududlar hamda Amudaryoning quyi qismida nukus va mang‘it qabilalari joylashtirildi. Amudaryoning so‘l sohilidagi Qipchoq atrofi, Xo‘jaeli va Ko‘ko‘zak oralig‘ida qang‘li va qipchoq qabilalari joylashtirildi. Ular tarkibida Dashti Qipchoqdan kelgan o‘zbeklarning 14 urug‘i ham o‘rnashtirildi²⁷.

Xiva atrofiga joylashtirilgan qipchoq va qo‘ng‘irot o‘zbeklariga alohida yerlar ajratilib, ularning o‘troqlashuv jarayoni salkam ikki asr davom etdi. Shu orada Orolbo‘yi va Quyi Amudaryo hududlariga

Мунис. Фирдавс ул-иқбол. // Кўлёзма. №Е 6(фотонусхаси). 64 ^{а, б} вар; Яна қаранг: Йўлдошев М. Хива хонлигига феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши. – Б. 82. Яна қаранг: Иванов П.П. Очерк истории каракалпаков. // Труды ИВ АН СССР. Т. VII – С. 52.

²⁶ Мунис. Фирдавс ул-иқбол. // МИТТ. Т. II. – С. 328. (прим.1); Муравьев Н. Путешествие в Туркмению и Хиву. – С. 36.

²⁷ Мунис. Фирдавс ул-иқбол. // МИТТ. Т. II. – С. 328. (прим.1).

joylashgan qoraqalpoqlar ham o‘zbek urug‘lari bilan aralashgan holda qon-qardoshlik rishtalarini shakllantirishdi.

O‘zbeklarning Xorazmga ko‘chib kelishi va o‘troq hayotga o‘tishi jarayonida dehqonchilik sohasi sezilarli darajada rivojlna boshladi. Aholi sonining oshishi va oziq-ovqatga bo‘lgan zarurat ekin maydonlari uchun yangi yerlarni o‘zlashtirish, sug‘orish ehtiyojlarini qondirish maqsadida yangi nahr (kanal) va ariqlar qazish, qishloq (kent) va shaharlar qurish ishlarini mislsiz kengaytirdi. Shu bilan bir qatorda tabiatning injiqliklarini va o‘zgarib turishini hisobga olishga ham to‘g‘ri keldi. Xususan, Amudaryo o‘zanining o‘zgarishi natijasida O‘zboy, Daryoliq, Ko‘nadaryo havzasidagi Urganch, Vazir, Devkeskan, Aqchaxon, Shohsanam kabi qal’alar atrofidagi ko‘plab qishloq va ovullar aholisi ichimlik va dehqonchilik uchun zarur bo‘lgan suvga ehtiyoj seza boshlashdi.

Xon topshirig‘i bilan Vazir qal’asi aholisi Gurlan qal’asi yaqinida tiklangan to‘qayzor daryo atrofiga ko‘chirildi. Urganch atrofidagi Vazir shahridan ko‘chirilganlar kelgan ushbu hudud-Yangi Vazir deya atala boshladi. Shu kabi Abulg‘oz 1646-yilda Urganch-Arna arig‘ini qazdirdi va uning yaqinida asos solingan qal’aga Yangi Urganch deb nom berdi. Bu yerga Ko‘hna Urganch aholisining bir qismi ko‘chirib keltirildi. Shundan biroz keyin G‘ozibod kanali ham qazilib, uning yaqinida chegara istehkomi hisoblangan qal’a tiklandi²⁸.

Umuman olganda, XXVII asrda Xorazmdagi siyosiy jarayonlar nihoyatda qizg‘in va ziddiyatli kechdi va bu davrda hokimiyat, boshqaruv tuzilmasida ko‘plab hukmdorlar almashdi. Ammo ular ichidan faqat Abulg‘oz Bahodirxon (1603-1664) gina “Shajarai turk”, “Shajarayi tarokima”, “Man’ofe ul-inson” singari asarlarning muallifi, Yangi Urganch, Yangi Vazirning asoschisi, bunyodkor hukmdor sifatida tarixda yorqin nom qoldirdi.

²⁸ Фуломов Я.Ф.Хоразмнинг сугорилиш тарихи. – Б. 209 ва кейингилари.

TARIX

ABULG‘OZI BAHODIRXON TARIXIY ASARLARINING LINGVISTIK TADQIQI



**Madamin
ESHMURODOV**

**Urganch
innovatsion
universiteti
rektori,
filologiya fanlari
nomzodi, dotsent**

UO‘K 574.511

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid bo‘lgan Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarayi turk” va “Shajarayi tarokima” asarlari lingvistik nuqtai nazaridan tahlil qilingan.

Аннотация: В данной статье анализируются с лингвистической точки зрения произведения “Шаджараи тюрк” и “Шаджараи тарокима” Абулгази Бахадырхана, относящиеся к хорезмской тюркской историографии.

Annotation: This article analyzes from a linguistic point of view the works "Shajaray Turk" and "Shajaray Tarokima" by Abulgozi Bahodirkhan, related to the Khorezm Turkic historiography.

Kalit so‘zlar: turkiy tarixnavislik, tarixiy leksika, etimologiya, lingvopoetika, davlatchilik terminologiyasi.

Ключевые слова: турецкая историография, историческая лексика, этимология, лингвопоэтика, государственная терминология.

The keywords: Turkish historiography, historical vocabulary, etymology, linguopoetics, state terminology.

Abulg‘ozi Bahodirxon Xorazm tarixida muhim o‘rin tutuvchi xonlardan biridir. Ayni uning zamonidan boshlab davlat hujjatlari turkiy tilga o‘tkazila boshlandi. Uning Xorazm tarixiga oid “Shajarayi tarokima” va “Shajarayi turk” asarlari nafaqat o‘zining tarixiy qimmati, balki lingvistik, etnografik, badiiy, mifologik qimmati bilan ham alohida ajralib turadi. Abulg‘ozi Bahodirxonning tabobatga oid asar ham yozganligi ma’lum. Ushbu asar ham til, tibbiyat, adabiyot nuqtai nazaridan tadqiq qilinishi ijodkor haqidagi yangi va fan uchun muhim ma’lumotlarni taqdim qilishi shubhasiz.

Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarayi tarokima” va “Shajarayi turk” asarlarini bugungi kungacha bir necha tillarga tarjima qilindi hamda nashr etildi. Ushbu asarlar ustida bir qancha ilmiy ishlar olib borildi. Bu asarlar Xorazm turkiy tarixnavisligida dastlabki manbalar sifatida e’tirof etildi. Biz quyida ushbu ikki asarning eski o‘zbek tili leksikasini o‘rganishdagi o‘rni va ahamiyati, undagi davlatchilikka oid terminlar, ayrim o‘zlashma so‘zlarning davlatchilik terminologiyasidagi funksiyalari masalalarini yoritishi maqsad qildik. “Shajarayi

tarokima” (1658-1661-yillar orasida yozilgan deb taxmin qilinadi) turkiy qabilalarning, xususan, turkman qabilalarining kelib chiqishi haqida qimmatli ma'lumotlarni beradi. Abulg'ozixonning ikkinchi asari “Shajarayi turk” nomi bilan mashhur. Mazkur asarning asosiy qismi 1663-1664-yillarda yozilgan. Unda XVI-XVII asrning birinchi yarmida Xorazmdagi ijtimoiy-siyosiy muhit bayon etiladi. Ushbu ma'lumotlardan xulosa qilib biz har ikki asar ham XVII asrda yaratilganligini va shu davr eski o'zbek tilining o'ziga xosligini namoyon qiluvchi eng muhim manba ekanligini ta'kidlashimiz joiz.

Har ikki asar lingvistik tadqiqini amalga oshirish jarayonida quyidagi masalalarga alohida urg'u bermoq lozim:

Asar leksikasida o'zlashmalar qatlami, uning o'ziga xos xususiyatlari, o'zlashmalarning asar badiiyatidagi o'rni va ahamiyati, o'zlashmalar ko'lami, tarkibiy tahlilidan kelib chiqib, quyidagi ilmiy xulosalarga kelishimiz mumkin: eng avvalo, “Shajarayi turk” va “Shajarayi tarokima” asarlarida arabiya va forsiy qatlamga oid til birliklarining ko'lami aniqlashadi, o'zlashmalarning har ikki asar leksikasidagi o'ziga xos xususiyatlariga oid muhim ilimiyl faktlar to'planadi, chunonchi, o'zlashmaning tarixiy asar badiiyatidagi o'rni va ahamiyati yoritiladi. Bu borada, ayniqsa o'zlashma so'zlarning badiiy-tasviri vositalar - nasriy matnda she'riy san'atlar yuzaga kelishidagi o'rni va bu orqali asarning estetik ta'siridagi vazifasi ochib beriladi. O'zlashmaning asar leksikasida qo'llanish sabablari yoritiladi. Bu orqali Abulg'ozzi Bahodirxonning Sharq mumtoz tarixnavisligi an'analariga amal qilish prinsiplari oydinlashadi. Arabiy yoki forsiy qatlamga oid birliklarning genetik tahlili orqali ijodkorning so'z qo'llash mahorati va tilshunos sifatidagi qiyofasi, o'zlashma qatlamga munosabati aniqlashadi.

Ikkinchidan, har ikki asar leksikasiga oid birliklarning asar badiiy-estetik ta'sirini oshirishdagi o'rni va ahamiyatini tadqiq etish orqali quyidagi xulosalarga kelish mumkin: Abulg'ozixonning so'z qo'llash mahorati, nozik ma'no qirralari orqali muhim ilmiy ma'lumotni yetkazish qudrati, omonim, sinonim, antonim, polisemantik so'zlarning asar lingvopoetikasida bajargan funksiyalarini keng tahlil qilinishi tufayli lingvopoetika va lingvoestetikaga oid muhim faktlarni qo'lga kiritish mumkin. Biz Sharq mumtoz adabiyotiga mansub she'riy va nasriy asarlarning lingvopoetikasini tahlil qilish bilan birga, Sharq mumtoz tarixnavisligiga oid manbalarni ham lingvopoetik va lingvoestetik nuqtai nazardan tadqiq qilishimiz zarur. Bu umumiyl xulosalar chiqarishimizga sabab bo'ladi. Chunki davr tarixnavisligiga oid manbalar ko'p hollarda ijodkorlar yoki tarixnavislar tomonidan yaratilsa-da, ularda asarning badiiyatiga juda kuchli urg'u berilgan hamda she'riy parchalar bilan bezatilgan. Bu jihat ushbu asarlarni bemalol lingvistik, lingvopoetik, lingvoestetik tomonidan tahlil qilish mumkinligini ko'rsatadi.

Uchinchidan, har ikki asar leksikasidagi turkiy qatlamga oid birliklarning o‘ziga xosliklarini aniqlash, ularning asar badiiy, ilmiy maqsadini belgilashdagi o‘rni, g‘oyasini olib berishdagi ahamiyati, turkiy qatlam birliklarining genetik tahlili, qadimgi va eski turkiy til leksikasi bilan bog‘liqligi, morfologik va sintaktik tomonlari, fonetik jihatlari, davr eski o‘zbek adabiy tilidagi funksiyalari, o‘rni va ahamiyati, ma’no ko‘لامи, hozirgi o‘zbek adabiy tiliga nisbatan tahlil va talqinlari, ma’no kengayishi va ma’no torayishi, fonetik qobig‘i kabi masalalar yoritilishi zarur. Mazkur tahlillar til taraqqiyotiga oid nazariyalarni aniqlashtirishga, turkiy til birliklarining ma’no taraqqiyotiga oid xulosalarni yoritishga, qadimgi va eski turkiy til hamda eski o‘zbek adabiy tili va hozirgi o‘zbek adabiy tili birliklarining munosabatlari, mavjudlik va iste’moldan chiqish sabab hamda omillari, qonuniyatlarini oydinlashtirishga sabab bo‘ladi.

To‘rtinchidan, bevosita mavzu bilan aloqador holatda o‘z va o‘zlashma qatlam birliklaridan davlatchilikka oid terminlarni ajratish, ularning mavzuiy guruuhlarini belgilash, asar leksikasida tutgan o‘rni va funksiyalarini belgilash, terminlarning qaysi lug‘aviy qatlamga mansubligini aniqlash, ular anglatgan tushunchalarning davr ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o‘rnini belgilash, qisqa izohli lug‘atini tuzish tarix, etnografiya, siyosatshunoslik, tilshunoslik, lug‘atshunoslik, madaniyatshunoslik fanlarininig tegishli tarmoqlari rivojida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ilmiy ma’lumotlarni taqdim etishi shubhasiz.

Beshinchidan, har ikki tarixiy asar leksikasiga oid birliklarni mavzuiy- semantik guruhlarga ajratish; bu orqali “Shajarayi turk” va “Shajarayi tarokima” asarlari leksikasiga oid birliklarning har bir guruhiга mansub so‘zlar ko‘لامи aniqlashadi, izohli yoki statistik lug‘atini tuzish imkonи yaratiladi, davr tarixi, madaniyati, etnografiyasi, ijtimoiy-siyosiy hayoti va boshqa sohalarga oid muhim ma’lumotlar jamlanadi.

Oltinchidan, asarda keltirilgan toponimlar, etnonim, antroponim, gidronim va boshqa onomasiologik birliklarga berilgan muhim lingvistik izohlarni mukammal o‘rganish orqali biz leksikologiyaning muhim tarmog‘i hisoblanmish etimologiyaga mansub muhim ilmiy faktlarni qo‘lga kiritishimiz mumkin. Shuningdek, asarda ayrim so‘zlarga berilgan bugungi kunda ham ilmiy etimologiya deb qaralib kelinayotgan izohlarga ilmiy tanqidiy yondashuv zarur. Bu orqali biz so‘zning chin ma’nodagi ilmiy faktlar bilan isbotlangan etimologiyasiga yetib borishimiz mumkin. Aks holda xalqona etimologiya bilan ilmiy etimologiya qorishib ketishi ehtimoli mavjud.

Ushbu keltirilgan lingvistik tadqiqot yo‘nalishlari hali biz ushbu o‘rinda sanab o‘tganlarimiz. Agar har ikki tarixiy asarning mukammal lingvistik tadqiqi amalga oshirilsa, aminmizki, boshqa ko‘pgina yo‘nalishlarda muhim

yangiliklarni qo‘lga kiritish mumkin. Qolaversa, sanab o‘tilgan ushbu tadqiqot yo‘nalishlarini Xorazm tarixnavisligiga oid barcha asarlarga tatbiq qilish mumkin. Shuningdek, mumtoz adabiyotimizga mansub har qanday asar ushbu yo‘nalishlarda tahlil qilinsa, o‘zbek tili tarixiga doir qimmatli ma’lumotlar jamlanishi, o‘zbek tili tarixiga oid yaratiladigan izohli lug‘atlar mukammal ko‘rinish olishi shubhasiz.

Quyida keltirilgan yo‘nalishlar doirasida Abulg‘ozzi Bahodirxonning “Shajarayi turk” va “Shajarayi tarokima” asarlarini tahlil qilib ko‘ramiz.

Har ikki asarni o‘qish jarayonida amin bo‘lamizki, muarrix imkoniboricha turkiy til imkoniyatlardan foydalanishga, uning ma’no jilolarini namoyon qilishiga intilgan: “To‘yga kelgan ulug‘ va kichik barcha o‘g‘lonning bu so‘ziga tong qoldilar. Taqi aytdilar, bu o‘g‘lonning o‘zi otini aytatur, mundin yaxshi ot bo‘lurmu teb, otini O‘g‘uz qo‘ydilar. Taqi aytdilarkim, bir yashar o‘g‘lonning mundoq so‘zlaganini hech zamonda hech kim eshitgan va ko‘rgan yo‘qturur teb, ani irim etib aytdilarkim bu uzoq umrli va ulug‘ davlatli va uchi uzag‘an va yoni yoyilgan bo‘lg‘usi turur, tedilar” [1,18]. Parchadan ma’lum bo‘ladiki, asar leksikasida turkiy so‘zlar asosiy ahamiyat kasb etadi. Parchada faqat bir-ikki o‘rindagina arabiya va forsiy o‘zlashma uchraydi, xolos.

Ammo har ikki asar tilida arabiya va forsiy o‘zlashmalar ham salmoqli o‘rin tutishini nazardan chetda qoldirmaslik zarur. Sharq tarixnavislik an’analariga ko‘ra tarixiy asarlar hamd va na’t bilan boshlanishi zarurligi barchamizga ma’lum. Asarning ayni shu qismida, shuningdek, xon, ma’lum amal yoki unvon egasiga maqtov, ta’rif qismlarida ham arabiya, forsiy o‘zlashmalar ko‘p qo‘llanishi haqida ilmiy tadqiqotlarda alohida ta’kidlar mavjud [3,26].

Xususan, asarda o‘qiyimiz: “Bu faqirga, xudoy taolo inoyat qilib ko‘p nimarsa bergen turur. Xususan, uch hunar bergen turur. Avval, sipohigarlikning qonuni va yo‘sunikim nechuk otlanmoq va yurumak va yovg‘a yosoq yasamoq, ko‘p birlan yuruganda nechuk qilmoq, oz birlan yuruganda nechuk qilmoq, do‘stg‘a, dushmang‘a nechuk so‘zlamak. Ikkinci, masnaviyoyt va qasoid va g‘azaliyot va muqatta’ot va ruboiyot va barcha ash’orni fahmlamaklik, arabiya va forsiy va turkiy lug‘atlarning ma’nosini bilmaklik” [1, 8-9]. Parchadagi faqir, Xudoy taolo, hunar, do‘st, dushman, masnaviyoyt, qasoid, g‘azaliyot, musatta’ot, ruboiyot, ash’or, Odam, ahd, podshoh, umr, saltanat, kam, ziyod o‘zlashmalarini sanaydigan bo‘lsak, asarda ushbu ikki til orqali turkiy tilga kirib kelgan so‘zlarning ham ahamiyati va salmog‘i katta ekanligi anglashiladi. Albatta, ushbu o‘zlashmalar asar matnida ma’lum funksiyalarni bajarishga xoslantirilgan. Parchada ular matnning estetik ta’sirini oshirish bilan birgalikda tazod: faqir - Xudoy taolo, do‘st-dushman, kam-ziyod; tanosub: masnaviyoyt, qasoid,

g‘azaliyot, musatta’ot, ruboiyot, ash’or; podshoh, sultanat kabi tasviriy vositalar yuzaga kelishiga xizmat qildirilmoqda.

Asar leksikasiga oid so‘zlarning mavzuiy-semantik guruhlarini ajratish davr etnografiyasiga oid muhim ma’lumotlarni jamlash imkonini taqdim qiladi. Chunonchi, quyidagi parchaga e’tibor qarataylik: “Arabmuhammadxon bo‘lgandin (1602-yili) olti oydin so‘ng Qo‘s sh yoyiq tegandi yurugan o‘rusning qozoqindin ming kishi saratonning avvalgi kuni g‘ofil kelib, Urganchning qal’asina kirdi. Shaharda ra’iyatdin o‘zga kishi yo‘q edi. Xonning o‘rdusi va sipoh xalqi Amu suvining labinda erdilar... [Urus qozoqi] Urganchda ra’iyatdin ming kishini o‘lturdi va ming qiz birlan juvonni oldi. Ming arabaga yaxshi mollardin yukladi. Bo‘z va palos va to‘n va to‘sak-yastuk mundag‘ nimarsalarning barchasini o‘tga yoqdi. Bularni saranjom qilguncha yetti kun bo‘ldi. Andin so‘ng Urganchdin chiqib daryo labiga yurudu...” [1, 160].

Keltirilgan parchadagi so‘zlarni mavzuiy-semantik guruhlarga ajratsak: davlatchilik terminlari: xon, qal’a, shahar, ra’iyat, o‘rdu, sipoh, xalq; maishiy leksika: mol, araba, bo‘z, buyog‘li (rangli matolar), palos, tun, tushak, yastuq; etnonimlar: o‘rus, qozoq; toponimlar: Qo‘s sh yoyiq, Urganch; gidronimlar: Amu, suv, daryo va boshqalar. Ushbu guruhlarga mansub har birlikning o‘ziga xos qo‘llanish sabablari, matnda bajargan funksiyasi, so‘zning qaysi lug‘at qatlamiga mansubligi, kelib chiqish tarixi (etimologiyasi), fonetik, morfologik, semantik taraqqiyoti - mazkur masalalarga oydinlik kiritish bizning tadqiqotlarimizning asosiy maqsadidir.

Asarda keltirilgan etnografiya va tilshunoslikning tutashgan nuqtasi bo‘lmish etnonimlar, ularning kelib chiqish tarixi, nomlanish sabablari (biz bugun nominatsiya prinsipi, nomlash tamoyili deya tahlil qilayotgan masalalarimizga Zahiriddin Muhammad Bobur, Abulg‘ozzi Bahodirxon, Ogahiy kabi tarixiy, tarixiy-badiiy yoki memuar asar yaratgan ajdodlarimiz o‘z davridayoq chuqr ilmiy xulosalar vositasida aniq faktlarni bizga qoldirganlari tafsinga sazovordir), alohida keltirib o‘tadi, ya’ni turk-mo‘g‘ul qabilalari, xususan, ular nomlarining ma’nosи haqidagi ma’lumotlar, o‘zbeklar, sartlar hamda turkman urug‘lari (sariq, yovmut, qizil ayoq, ersari kabi) haqidagi ma’lumotlar ham tilshunoslik uchun o‘ta muhimdir. Jumladan, u turkiy qabilalarga kiruvchi va turk nomi bilan ataluvchi qabilalar quyidagi katta 5 avlod (bo‘g‘in)ni tashkil qiladi degan. Bular: uyg‘ur, qang‘li/qangli, qipchoq, qalach, qarluq qabilalari. So‘ngra u boshqa turkiy qabila va urug‘lar haqida to‘xtab o‘tadi: 1. Tekrin yoki mekrin. 2. Qirg‘izlar. 3. Kem-kemchutlar. 4. O‘rmonkat. 5. Nukuzlar. 6. Tatarlar. 7. Oyrat/uyrat. 8. To‘rg‘ovut. 9. Ko‘ri. 10. To‘las. 11. Bulg‘ochin. 12. Kermuchin. 13. Tulengut. 14. O‘rasut. 15. Kusutmay. 16. Nayman. 17. Kerayit. 18. O‘ngut. 19. Turg‘oq. Ajoyibi

shundaki, Abulg‘oziy bu etnonimlarning ba’zilarini etimologiyasi bilan beradi [2, 32].

Undan tashqari asarda keltirilgan etnonimlardan boshqa orlot/arlat, og‘or, olayunotli, o‘qli, aymoq, boshqird, bayot, tot, totar, temirli, turumchi, turk, turkman, taka, turbotli, tevachi, jobi, jomachi, cho‘bichoq, cho‘boni, chig‘atoy, cho‘ni, xizir eli, xurosonli, xalaj, dukar, soiq, solur, surxi/surqi, soqar, saljuk, sultonli, savroqi, sovchili, qo‘rg‘oli, qo‘rqin, qorlik, qipchoq, koratoshli, qalmoq, qirg‘iz, chiroyli, qutlar, lola, mo‘g‘ul, mang‘it, nayman, mo‘ndi, yozir, yag‘mo, yovmut, yurti [2, 35] kabi o‘nlab etnonimlar uchraydiki, ular ustida ham tadqiqot olib borish xalqimiz tarixi, o‘zbek tili tarixiga oid muhim ilmiy xulosalar chiqarishimizga sabab bo‘lishi shubhasiz.

Xulosa qilib aytganda, Xorazm tarixnavisligi maktabining asoschisi tom ma’noda Abulg‘oziy Bahodirxon hisoblanadi. Uning asarlarida dasht og‘zaki istoriografiyasidan keng foydalanilgan. Shu bilan birga, Abulg‘oziy o‘z asarlarida fors istoriografiyasi va umuman, Sharq tarixnavisligi an’analaridan unumli foydalana olgan. U Xorazm vohasida turkiy (chag‘atoy) tilida islom istoriografiyasi doirasida turkiy xalqlarning paydo bo‘lishi, ularning islomlashuvi jarayonlari va zamonasida dolzarblik ahamiyat kasb etgan ko‘p mavzu va muammolarga ahamiyat bergen. Uning har ikki tarixiy asarlari tili, lug‘at tarkibi, o‘z va o‘zlashma qatlam, so‘zlarning mavzuiy-semantik guruhlari va ularga oid birliklarni ajratish, so‘zlarning qaysi lug‘at qatlamiga oid ekanligini belgilash, genetik hamda komponent tahlillarini amalga oshirish o‘zbek tili tarixi, xalqimiz tarixi, madaniyati va boshqa sohalar rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abulg‘oziy. Shajarayi turk. Nashrga tayyorlovchilar Q.Munirov, Q.Yo‘ldoshev. T. Cho‘pon. - B. 8 - 9.
2. Doniyorov X. O‘zbek xalqining shajara va shevalari. - B. 35.
3. Mahmudov R. Ogahiy tarixiy asarlarida o‘zlashmalar. Filol. fan. doktori diss. Toshkent. 2022. -B. 26.4.
4. Самойлович А.Н. Одни из списков «Родословного древа тюркменского» Абульгази-хана // ДАН-В. 1927. - С. 39-42.
5. Собрание восточных Рукописей АН Республики Узбекистон (CBP), 152-154.

TARIX

**OGAHİY ASARLARI ATROF-MUHİT TARİXI BO'YİCHA
MUHİM MANBA SİFATIDA**



**Umida
TAJIYEVA**

**UrDU akademik
litseyi katta
o'qituvchisi, PhD**

UO'K 94(575.1)

Annotatsiya: Maqolada Muhammadrizo Ogahiy asarlarida Xiva xonligidagi atrof-muhit tavsifi masalalari tahlil etilgan. Unda Ogahiy asarlari nafaqat xonlikning davlatchilik tarixi, balki shu davrdagi tabiat va atrof-muhit yuzasidan xulosalar chiqarish imkonini berishi qayd etiladi.

Аннотация: В статье анализируются вопросы описания окружающей среды Хивинского ханства в произведениях Мухаммадризо Агахи. Отмечается, что работы Агахи позволяют сделать выводы не только об истории государственности ханства, но и о природе и окружающей среде этого периода.

Annotation: The article analyzes the description of the environment of the Khiva Khanate in the works of Muhammadrizo Agakhi. It is noted that Agakhi's works allow us to draw conclusions not only about the history of the statehood of the Khanate, but also about the nature and environment of this period.

Kalit so'zlar: Xorazm, Xiva xonligi, Ogahiy, mirob, tarixchi, tabiat, bog'.

Ключевые слова: Хорезм, Хивинское ханство, Агахи, мираб, историк, природа, сад.

Key words: Khorezm, Khiva Khanate, Ogahiy, mirab, historian, nature, garden.

Mustaqillik yillarida o'zbek xalqining o'z ajodolari tomonidan yaratilgan tarixiy merosni tiklash, saqlash, o'rganish, bugungi hamda kelajak avlodning ma'naviy mulkiga aylantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2017-yil 24-mayda imzolangan "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror bu boradagi muhim vazifalarni belgilab berdi.

Bunday ulkan intellektual meros va salohiyat o'zbek xalqining keyingi taraqqiyotiga asos bo'lib xizmat qildi. Zero, so'nggi o'rta asrlarda, xususan, XIX-XX asr boshlarida ajdodlarimiz o'zlaridan avvalgi asrlarda yaratilgan intellektual salohiyatdan unumli foydalana oldilar. O'zbekistondagi fondlar va kutubxonalarda saqlanayotgan 100 mingdan ziyod qo'lyozma asarlar va juda katta

miqdordagi toshbosma asarlar orasida XIX-XX asr boshlariga mansublari salmoqli o‘rin tutishi buning yaqqol dalili bo‘la oladi. Aynan shu davrda, ya’ni XIX-XX asr boshlariga kelib Markaziy Osiyo xorijiy tadqiqotchilarning faol izlanishlari obyektiga aylandi.

Xorazm tarixini o‘rganishda Xiva xonligi tarixnavislik maktabi vakillari yozib qoldirgan asarlar alohida ilmiy qimmatga ega. Ayniqsa, Munis, Ogahiy, Bayoniylar o‘z qamrovi bilan davlatchilik tarixi, diplomatik munosabatlar, fan, ta’lim, madaniyat, adabiyot va boshqa sohalar tarixi bo‘yicha muayyan tasavvurga ega bo‘lishga xizmat qiladigan manbalar sanaladi.

Muhammadrizo Ogahiy Xiva saroyining shoiri va rasmiy tarixchilaridan biri bo‘lib, u saroyning bosh mirobi unvonini olgan. Ogahiy asarlarida Xorazmda suv bilan ta’minlashning rivojlanishini aniqlashda ma’lum bir an’ana seziladi, rasmiy tarix bayon qilinganda, har bir qulay sharoitdan foydalanib, u yoki bu kanal, daryo tarmog‘ining rivojlanishiga ham to‘xtalgan [1].

“Firdavs ul-iqbol” asarida quyidagilar keltiriladi: “...Va barcha o‘zbakka Dorg‘o tengizg‘acha Amu suvining ikki tarafin va nahrlarikim, Amudin munshaab bo‘lubdur, alarning atrofin taqsim qilib berdi. Va Urganj xalqin ko‘churub, Xonqohnning mag‘rib jonibida qal’a solib, ko‘p yer berdi. Holo Urganj ul mavzedur. Bag‘oyat ma’mur va obodon. Va Xorazmning ulug‘ savdoxonasi dur. Bu voqeа tarix ming ellik oltida Tovuq yili erdi. - deyilgan [2].

Asarda Xivada yuz bergen ochlik va vabo ofati haqida ham ma’lumotlar keltiriladi: ‘Muhammadamin inoq Buxorog‘a ketgandan so‘ng yavmut Besh qal’ag‘a mustavliy bo‘lub, ani kulturub, Xivaqla xon qildi. Aning zamonida Besh qal’ada qahat paydo bo‘lub, ... Xivaqda vabo o‘lati paydo bo‘ldi. Bu jihatdin aksar o‘zbak va sort buzulub, Orol va Buxorog‘a kettilar. Va yavmut dag‘i o‘g‘urlab, qazaqg‘a sotti. Xivaq boshlig‘ Besh qal’a bilodi xarob bo‘ldi. Xivaqda qirq uyluk fuqarodin o‘zga kishi yo‘q erdi. Aksar namozi jumada uch kishi yo to‘rt kishi namoz o‘qur erdi. Va shaharning ichida yilg‘un va vayrona uylarda vahshiy jonivarlar manzil tutti. Va jami yerlar qolin nayiston va g‘alaba besha bo‘ldi” [3].

“Firdavs ul-iqbol” asarida chigirkalar bilan bog‘liq vaziyat aks ettiriladi: “Tonglasi dushanba kunikim, oyning yigirma yettisi erdi, yana urush voqe bo‘lub, hazrat a’loxoqoniyning bozui jalodat va nerui shijoatidin jamoai mufsada hazimat topib, sipohi nusratpanoh mansur va muzaffar bo‘ldi. Bu voqeani inshoolloh ul hazratning o‘z tazkarai humoyunig‘a doxil qilib, tafsilan ayturmiz. Seshanba kuni xoni mag‘fur yana otlanib, qal’a ostidag‘i ekinlarnikim, malaxdin omon qolib erdi, poymol va matluf qildurdi. Ittifoqoti hasinadindurkim, xoni mag‘fur bu safarg‘a rukub qilg‘on kundin beri “Olloh siz ko‘rmagan bir lashkarni tushurdi” masluqasi bila umuman jamii mamoliki Orolda, xususan, Qo‘ngirot nohiyatida malax sipohi yeri havodin karratan marrot murur qilib, qamish va zirootedin asar qo‘ymadi. Hatto yag‘och va uy va molu mavoshklarig‘a yopushub, yemakka mashg‘ul bo‘ldi” [2].

“Firdavs ul-iqbol”dagi bir ruboiyda Xorazmdagi Bodoy to‘qayzori tasvirlangan [3]. Ruboiyda ifodalananishicha, Bodoyning to‘qaylari shu darajada qalinki, ular orasidan ilon ham yo‘l topib yurishi mahol, daraxtlari juda baland.

“Zubdat ut-tavorix” asarida esa Ogahiy birgina quyosh chiqish holatini asarning turli o‘rinlarida turlicha, har safar bayon etilayotgan hodisaga muvofiq tarzda ifoda etadi. Masalan, bir joyda “xurshidi jahontob jamshidi mashriq ishratxonasidin chiqib, falak saydgohi sori ravona bo‘ldi” deydi. Asarda tabiat tasviri bilan voqealar mohiyati uyg‘unlik kasb etgan va bu mutanosiblik ifodaning ta’sirchanligini oshirgan [4].

Ogahiy qalamiga mansub “Riyoz ud-davla” tarixiy asari Xiva xonligining Alloqulixon davridagi (1825-1842-y.y.) eng muhim, u bilan bog‘liq holda atrof mamlakatlar hayotiga oid ayrim voqealarni qamrab olgan bo‘lib, 1844-yilda Muhammad Yaqub mehtarning homiyligida yozilgan. Asarda davrning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy ahvoli, xonlik va qo‘shti hududlarda yashovchi etnik birliklar munosabati, harbiy safarlar, diplomatik munosabatlar, ma’rifiy masalalar, ayrim siyosiy arboblar, mashhur shoir, adib, faqihlar zikri, hududlarning tabiatni, ko‘plab mavze va manzillar tavsifi kabilar mavjud [5].

Ogahiy ijodida bog‘lar mavzusi ajralib turadi. Ogahiy she’rlarining har bittasi muayyan bog‘larning (Xiva, Rofanik, Toshhovuz, Ko‘hna Urganch va boshqa) muayyan tafsiflariga bag‘ishlangan. Xiva bog‘ining madhiga bitilgan she’r har bir mevali daraxtning betakror sifatlarini yoritadi. Ko‘hna Urganch bog‘i esa shoir nazarida musaffoligi, havosining tozaligi bilan ajralib turadi. Faqatgina bog‘ emas, hovuzlari ham ifodalananadi [6].

Ogahiyning “Gulshani davlat” asarida Sayyid Muhammadxonning Xiva atrofidagi Gandumkon, Angariq, Chanakshayx, Yangiariq, Shimamkent, Onborxona bog‘lari va yerlari qayd etiladi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, Xiva xonligining tabiatni, atrof-muhit holati, tabiat hodisalari bilan bog‘liq masalalarni tadqiq qilishda Muhammadrizo Ogahiy tomonidan Xiva xonligi tarixiga bag‘ishlab yozilgan asarlarning o‘rni katta hisoblanadi. Shuningdek, Ogahiy yaratgan badiiy adabiyot namunalarida tabiat bilan inson uyg‘unligi, inson kamolotida tabiatning tutgan o‘rni kabi qarashlar o‘z aksini topgan.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Муниров. К. Огахий. – Т.: ЎзР ФА, 1959.
2. Мунис ва Огахий. Фирдавс ул-иқбол. – Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2010.
3. Нурбой Абдулҳаким. “Фирдавсу-л-иқбол”нинг адабий-эстетик қиймати. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/nurboj-abdul-akim-firdavsu-l-i-qbol/>
4. Jabborov N. Ogahiy “Zubdat ut-tavorix” asarining qo‘lyozmalarini va adabiy manba sifatidagi qimmati // Oltin bitiglar. 2019/3. – Б. 3-26.
5. Ogahiy. Riyoz ud-davla (Davlat bog‘lari)/Abdulla O‘rozboyev/ – Urganch: Quvonchbek-Mashhura, 2020.
6. Матназар Абдулҳаким. Асрларни яшнатган боғлар // Xorazm ma’mun akademiyasi axborotnomasi, 4/2013. – Б. 50-53.

TARIX

BEKJON RAHMON-ISTAMBULDA O'QIGAN XORAZMLIK JADID



**Umid
БЕКМУНАММАД**
Tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori



**Nafisa
ODILOVA**
Bursa Uludag
universiteti magistranti
(Turkiya)

1887-yilda Xivalik xon mahramlaridan bo'lgan Rahmonbergan oilasida tug'ilgan Bekjon bolaligidan ilmu ma'rifatga intilib voyaga yetadi. Otasi Rahmonbergan Xiva xonligi tarixida islohotchi Bosh vazir Islomxo'ja (1872-1913) ning yordamchisi edi. U o'z ustozi bilan XX asr boshlarida Xivada barpo etilgan pochta, telegraf, shifoxona, masjid va minora bunyod etilishida katta xizmat ko'rsatgan, ushbu inshootlarning qurilish ishlariga boshchilik qilgan. Rahmonbergan jadidlarni qo'llab-quvvatlovchi Bosh vazir Islomxo'janing maslahatiga ko'ra, g'ayrat-shijoatli o'g'li Bekjonne Istambulga o'qishga yuboradi.

"Shu tariqa, Bekjon 1913-yilning iyulidan 1918-yilgacha Istanbul universitetida tahsil oldi. Bu paytda Fitrat Istambuldağı tahsilni tugatib, Buxoroga qaytayotgan damlar edi. U Buxorolik safdoshlariga Bekjonga yordam berishni topshirib, o'z yurtiga qaytib keladi. Fitrat va Bekjonning og'a-ini, do'stligi, maslakdoshligi o'sha Istambuldalik paytidan boshlangan edi.

Bu davrda Usmoniyalar sultanatida Ismoil Gaspralining "Dinda, tilda, ishda birlik" shiori ostidagi "Yosh turklar" harakati jamiyatda keng faoliyat ko'rsatardi. Xivadagi madrasani bitirib, Istanbulda o'qiyotgan Bekjon shu harakat ta'siri bilan jadidchilik g'oyalariga berildi. Natijada 1918-yilda Istambuldan jadid ziyolisini

UO'K 574.510

Annotatsiya: Ushbu maqolada Istanbul universitetida o'qigan Xorazmlik Bekjon Rahmonning hayoti va faoliyati o'sha davrga oid manbalar asosida tahlil etiladi.

Аннотация: В данной статье на основе источников того времени анализируется жизнь и деятельность Бекджона Рахмана из Хорезма, учившегося в Стамбульском университете.

Annotation: This article analyzes the life and work of Bekjon Rahmon, a Khorezmian who studied at Istanbul University, based on sources from that period.

Kalit so'zlar: Xorazm, Xiva, Istanbul, madrasa, universitet, Bosh vazir, muzey, gazeta, muharrir.

Ключевые слова: Хорезм, Хива, Стамбул, медресе, университет, премьер-министр, музей, газета, редактор.

Key words: Khorezm, Khiva, Istanbul, madrasa, university, prime minister, museum, newspaper, editor.

bo‘lib qaytgan Bekjon Rahmon Xorazmda ham keng yoyilgan, ammo ta’qibga uchray boshlagan “Yosh xivaliklar” safiga qo‘sildi. Xiva madrasalarida mudarrislik faoliyati bilan shug‘ullandi” (1).

1920-yilda xonlik tugatilib, Xorazm xalq respublikasi barpo etilgach, u “Yosh xivaliklar” kabi islohotchi safdoshlari bilan hukumat tarkibiga kirdi. Dastlab madaniyat, so‘ngra xalq maorifi noziri, keyin XXR markaziy ijroiya qo‘mita ish boshqaruvchisi bo‘ldi.

Bekjon Rahmonning madaniyat noziri sifatida qilgan eng katta ishi 1920-yil 11-aprelda Xorazmning o‘tmishdagi madaniyati va osori-atiqlarini kelgusi avlodlar uchun saqlab qolish maqsadida xalq madaniyati muzeyini barpo etgani hamda unga rahbarlik qilganidir. Shuningdek, 1923-yilda Xorazmda ilk bor musiqa maktabini tashkil etib, voha musiqa nazariyasi va tarixi, Xorazm maqomlari hamda usullari, nota yozuvining ixtiro qilinishiga oid “Xorazm musiqiy tarixchasi” kitobini Devonzoda bilan birga yozib, Moskvada nashr ettiradi.



qolmay, ularni tahlil etgan holda adabiy-tahliliy maqolalar yozdi.

1923-yilda “Otalar so‘zi” nomli kitobini nashr qildirib, unga Xorazmliklar orasida keng tarqalgan maqol, hikmatlarni kiritdi. Kitobda “Ertaga osh qolsa-davlat, ish qolsa-mehnat”, “Davlat - og‘zibirchilik”, ”Rohat-mehnatning orqasida”, “Tek turgan to‘q yurar”, “Bir kun tuz yegan yerga 40 kun salom”, “Ota-onha taxt etar - baxt eta bilmas”, “O‘tni kavlasang o‘char, qo‘shnini kovlasang ko‘char”, “O‘g‘ri boyimas, yolg‘onchi yolchimas”, “Onasini ko‘r qizini ol,

“Shuningdek, Bekjon Rahmon 1920-yil 8-martda voha tarixida ilk bor matbuotga asos soldi. Ya’ni, shu sanadan boshlab nashr etila boshlangan “Inqilob quyoshi” gazetasining bosh muharriri sifatida faoliyat ko‘rsatdi. Shuningdek, 1920-24-yillarda vohada nashr etilgan “Qizil Xorazm”, “Maorif”, “Xorazm xabarlari”, “Yordam”, “Yoshlar ovozi”, “Ishchilar tovushi”, “Qopqon” singari gazetalarni ham tashkil etishga bosh-qosh bo‘ldi. Ushbu nashrlarda Faqiriy, Komil Devoniy, Mutrib, Rog‘ib singari shoirlarning g‘azallarini chop ettiribgina

qirog‘ini ko‘r, bo‘zini ol” singari tarbiyaviy, pand-nasihat ruhidagi 580 ta maqollar, hikmatli so‘zlar mavjud”(2).

Xalq maorifi noziri bo‘lib ishlagan paytida Bekjon Rahmon vohada yangi maktablar tashkil qilish, uzoq ovullardagi bolalarni mакtabga jalb etish, ta’lim maskanlarini o‘qituvchilar bilan ta’minalash ishlarida jonkuyarlik qilgan. Shuningdek, Bobooxun Salimov bilan birga maktablar uchun “Alifbe” va “O‘qish kitobi” darsliklarini yozib, chop ettirdi. Darslikka mumtoz va o‘z davridagi sharq hamda xorazmlik shoirlarning didaktik asarlarini ham kiritdi. Shuningdek, Xudoybergan Devonov bilan hamkorlikda Xorazm qog‘oz fabrikasini qurish bo‘yicha ham sa’y-harakatlar olib bordi.



Bekjon Rahmon XXR rahbarlari orasida eng salohiyatli va milliy davlat qurish tashabbuskori bo‘lgani uchun ham 1920-yilda Xorazmga kelgan turkiy xalqlar ozodlik harakatining g‘oyaviy yo‘lboshchisi Zakiy Validiy uning uyida bo‘lgandi. Z.Validiyning 1969-yilda Turkiyada nashr etilgan “Xotiralar” kitobida Bekjon Rahmonning dunyoqarashi, ish faoliyati o‘rin olgan. Muallif bir o‘rinda dolg‘ali davrlarni quyidagichcha xotirlaydi: “Mulla Bekjon Xivada zamonaviy madaniyatni rivojlantirish uchun katta fidoyilik ko‘rsatdi. Agar Rusiya halaqit bermaganida, ular yosh Xiva hukumatiga katta xizmat qilgan bo‘lur edilar. Maorif vakili bo‘lgan mulla Bekjon - Istanbulda o‘qib kelgan

bir yigit. Hukumat ishlaridan bo‘sh vaqtlarida madrasadagi hujrasiga kelar, o‘z qo‘li bilan palov pishirar, o‘sha vaqt uzoq suhbatlashar edik. U bir qancha asarlar yozdi” (3).

Bekjon Rahmon Zakiy kabi Shafqi Bekto‘ra, Fitrat, Cho‘lpon, Fayzulla Xo‘jaevlar bilan ham do‘s edi. U 1920-yilning avgustida Boku shahrida o‘tkazilgan, 30 dan ortiq musulmon davlatlari vakillari ishtirok etgan sharq xalqlari qurultoyida ham faol qatnashgandi. Aynan Cho‘lpon bilan ham Bokuda o‘tkazilgan qurultoyda tanishib, do‘s tutingandi. Ma’lumki, Boku qurultoyida Bekjon Rahmon, Cho‘lpon, Zakiy Validiy, Anvar Poshsholardan tashqari Munavvar qori, G‘ozi Olim Yunusov, Mirmuhsin Shermuhammedov, Sobirjon Rahimiyy singari ko‘plab Turkistonlik jadidlar ishtirok etishgan.

Ayni paytda, Bekjon Rahmon 1920-yil 13-noyabrda Buxoro va Xorazm respublikalari o‘rtasida tuzilgan do‘stona hamda iqtisodiy, madaniy aloqalarga doir shartnomaga ham rahbarlik qilgan.

U 1921-yili Xivada Xalq universiteti ochilishining tashabbuskori va birinchi rektori bo‘lgan. 1921-yil 23-mayda Xorazm Markaziy ijroiya qo‘mitasi ish boshqaruvchisi vazifasidagi faoliyatini boshlagan. 1923-yil 27-noyabrda RSFSRning Xorazmdagi shovinist vakillari va Qizil Armiya tomonidan “Yosh xivaliklar” partiyasi a’zolari qatorida “Xorazm xalqining dushmani” deya qamoqqa olingan va dastlab o‘limga, keyin esa 10 yilga qamoqqa hukm qilingan. Ko‘p o‘tmay avf etilgan va madrasada mudarrislikni davom qildirgan.

“1924-yilda o‘tkazilgan milliy davlat chegaralanishidan keyin XXR tugatilib, Xorazm okrugi tashkil etilgach, Bekjon Rahmon 1925-26-yillarda okrug maorif bo‘limi mudiri vazifasida ishladi. Keyin jadid do‘sstaridan, o‘sha vaqtida O‘zbekiston xalq komissarlari sovetining raisi bo‘lib ishlagan Fayzulla Xo‘jaevning taklifiga ko‘ra Samarqandda tashkil etilgan Fan qo‘mitasida faoliyatini davom ettirdi.

Shu davrdagi “Alanga”, “Yer yuzi” jurnallarida adabiyotshunoslik, tilshunoslikka oid maqolalarini chop ettirib, respublikaning old ziyolilaridan biri sifatida tanildi. Shu boisdan ham u 1926-yilning 26-fevral-5 mart kunlari Boku shahrida o‘tkazilgan Birinchi Turkologiya qurultoyida qatnashish uchun O‘zbekiston delegatsiyasi tarkibiga kiritilgan.

Ma’lumki, ushbu qurultoyda V.V.Bartold, S.Ye.Malov, A.A.Miller, S.F.Oldenburg, R.R.Poppe, A.N.Samoylovich, K.Yudaxin, V.B.Tomashevskiy kabi rus, M.F.Ko‘pruluzoda (turk), Paul Vittek (nemis), Bakir Cho‘ponzoda (qrim tatar), A.Boytursun (qozoq) singari dunyonung mashhur 131 nafar olimi qatnashgan. O‘zbekistondan esa Ashurali Zohiriy, Elbek, Rahim Inog‘omov, G‘ozi Olim Yunusov, Nazir To‘raqulov, Shokirjon Rahimi, I.Sadriy, A.Abdujabborovlar qatorida Bekchon Rahmonov ham bor edi. Qurultoyda turkiy xalqlar adabiyoti va tilshunoslikka oid 38 ta ma’ruza o‘qilgan va muhokama qilingan. Muhokamada so‘zga chiqqanlar orasida Bekjon Rahmon ham bor edi. Aynan shu qurultoyda Navoiyning 500 yilligiga tayyorgarlik ko‘rish va uning ijodini dunyoda ommalashtirish, targ‘ib qilish masalalari ko‘rib chiqilgandi” (4).

Bekjon Rahmon 1926-29-yillarda O‘zbekiston SSR xalq komissarlari kengashi raisi Fayzulla Xo‘jaevning taklifi bilan Samarqandga kelib respublika maorif komissarligining “Maorif”, “Alanga” jurnallarida va “Yangi alifbo” qo‘mitasida faoliyat ko‘rsatgan hamda “O‘zbekistonda lotinchilik harakati”, “Yangi alifbe harfi sirasi to‘g‘risida”, “Bag‘don shevasi” singari tilshunoslik, adabiyotshunoslik va san’atshunoslikka oid maqolalar, “Salom” she’rini 1930-yilda yozib, chop ettirdi.

U 1929-yilda Chorjo‘y orqali Xorazmga yetib kelganida, Amudaryodagi kemada bir guruh kishilar tomonidan kaltaklab ketilgan. Taniqli jurnalist va fidoyi olim, san’atshunoslik fanlari nomzodi Sirojiddin Ahmadning “Qizil mustamlaka: e’lon qilinmagan urush. Katta qirg‘in qomusi (1929-1950) kitobidagi ma’lumotlarga ko‘ra, (“Info Capital Books” nashriyoti, Toshkent-2022) “Bekjon Rahmon 1932-yilda Toshkentga kelib faoliyatini davom ettirdi va G‘ozi Olim Yunusovning uyida yashadi”. Cho‘lponni 1937-yilda tergovchi so‘roq qilganida undan Bekjon haqida ham so‘rab-surishtirishgan. Chunki,

Bekjon Cho‘lponning do‘siti bo‘lgan. Shunda Cho‘lpon uni 1935-yilda oxirgi marotaba Samarqandda ko‘rib, suhbatalashganligini aytgan. Zakiy Validiy “Xotiralar” asarida (Istambul, 1969-yil) uning qatag‘on qurboni bo‘lganini yozgan. Sirojiddin Ahmad shunga asoslangan holda Bekjon Rahmonning 1937-yilda IIXK Xorazm bo‘limi tomonidan qamoqqa olinganligini va tarixchi Zakiy Validiyning ma’lumotiga qaraganda surgunda vafot etganligini haqida yozib o‘tgan.

Shu tarzda nafaqat O‘zbekiston miqyosidagi madaniy, adabiy tadbirlarda, balki dunyoda bo‘lib o‘tayotgan yetuk olimlar ishtirokidagi anjumanlarda ham faol qatnashayotgan Bekjon Rahmon respublikamizning eng faol ziyolisi sifatida tanilayotgan davrda sovet tuzumi qurboni bo‘ldi.

Uning qatag‘on davri qurboniga aylanganligi jadid ziyolisi sifatida shakllangan shaxsning ko‘plab orzulari armonga aylanishiga sabab bo‘ldi. Bekjon Rahmonning ijtimoiy, siyosiy, madaniy, matbuot va adabiyot sohasidagi faoliyatini tadqiq qilish bugungi tadqiqotchilar oldidagi dolzarb vazifalardan bo‘lib qolmoqda. Tarixchi, siyosatshunos, adabiyotshunos, san’atshunos, jurnalist, ijodkorlar Bekjon Rahmon shaxsiyati oldida ma’nana qarzdordirlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Sayyora Samandar,Umid Bekmuhammad. “Xorazm jadidchiligi: islohotlar, ta’lim va adabiyot”, “Milleniumus print” nashriyoti ,Urganch-2024-yil.

2.Sayyora Samandar,Umid Bekmuhammad. “Xorazm jadid namoyandalari: hayoti, faoliyati va adabiy merosi”, “Milleniumus print” nashriyoti ,Urganch-2024 yil.

3.Zakiy Validiy .“Xotiralar”, Istambul-1969-yil.

4.Umid Bekmuhammad. “Xorazm jadidchilik harakati ensiklopediyasi”, “Milleniumus print” nashriyoti, Urganch-2024-yil.

TARIX**O'RTA OSIYODA TEMIRYO'L QURILISHI TARIXI****UO'K 570.511**

**Xurshid
DAVLETOV**
Urganch innovatsion
universiteti Yoshlar
bilan ishlash,
ma'naviyat va
ma'rifat bo'limi
boshlig'i

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali O'rtta Osiyoda temiryo'l qurilishi tarixi haqida so'z yuritiladi. O'rtta Osiyoda temiryo'l qurilishi tarixi haqida so'z yuritiladi. O'rtta Osiyoda temiryo'l qurilishi tarixi haqida so'z yuritiladi. O'rtta Osiyoda temiryo'l qurilishi tarixi haqida so'z yuritiladi.

Аннотация: В данной статье рассказывается об истории строительства железных дорог в Средней Азии. Анализируется влияние Среднеазиатской и Оренбургско-Ташкентской железных дорог на социально-экономическое развитие Туркестана.

Annotation: Three articles discuss the history of railway construction in Central Asia. Analysis of the impact of the Central Asian and Orenburg-Tashkent railways on the socio-economic development of Turkestan.

Kalit so'zlar: Temiryo'l, xomashyo bazasi, iqtisodiy o'sish, infratuzilma, tabiiy resurs, Krasnovodsk-Chorjo'y

Ключевые слова: Железная дорога, сырьевая база, экономический рост, инфраструктура, природные ресурсы, Красноводск-Чоржой.

Key words: Railway, raw material base, economic growth, infrastructure, natural resources, Krasnovodsk-Chorjoi.

Markaziy Osiyodan ko'zlangan iqtisodiy manfaatlari uchun Rossiya va Angliya o'rtasidagi raqobatning kuchayishi mintaqaning Rossiyaga tobora qaram bo'lishini tezlashtirgan. Rossiya imperiyasi Turkiston o'lkasining katta qismini o'zining iqtisodiy ta'sir doirasiga olgandan keyin asosiy e'tiborini o'lka bozorlari hamda xomashyo manbalari ustidan to'la hukumronligini o'rnatishga qaratdi. Shu maqsadda u dastlab ishni metrologiya bilan mustamlaka o'rtasida savdo-sotiq va tovar almashuvini yanada kuchaytirishdan boshladи. Rossiya imperiyasi hukumati imperiyaning janubiy chegaralarini mustahkamlash va harbiy-strategik maqsadlarni amalga oshirish uchun 1880-yil noyabridan 1886-yil dekabrigacha Zakaspiy (Kaspiy orti) harbiy temiryo'li nomi bilan ataluvchi Krasnovodsk-Chorjo'y temiryo'lini barpo qildi. Mazkur temiryo'l yo'nalishi tarkibida 1886-1888-yillarda Zakaspiy temiryo'lining Forob stansiyasidan Samarqand shahrigacha bo'lган masofada temiryo'l izlari yotqizib chiqilgan. 1888-yil may oyida Amudaryo orqali 2,7 km uzunlikdagi yog'och ko'prik qurib bitkazildi va Samarqandgacha poyezdlar qatnovi yo'lga qo'yildi [1].

1874-yilda Rossiya imperiyasining maxsus temiryo‘l komissiyasi Toshkent-Orenburg temiryo‘lini qurish zaruriyati to‘g‘risidagi bayonoti bilan chiqdi. 1890-yilga kelib mazkur tarmoqning qurilishi boshlandi. 1906-yil yanvarida Toshkent-Orenburg temiryo‘l yo‘nalishi bo‘ylab birinchi lokomotiv harakatlanishni boshladi. Asta-sekinlik bilan hududlararo temiryo‘llar tarmog‘ini kengaytirish jarayonlari boshlab yuborildi. Xususan, 1907-yilda Kogon-Buxoro, 1913-1916-yillarda Qo‘qon-Namangan-Andijon temiryo‘li, 1913-1915-yillarda Kogon-Amudaryo stansiyasi va Qarshi-Kitob shoxobchalari qurib bitkazilgan. 1917-yilga qadar hozirgi O‘zbekiston hududidagi mavjud barcha temiryo‘llar uzunligi 1,1 ming kilometrga yetgan edi[2].

Ammo, xonliklar bilan Rossiya o‘rtasida usha paytgacha



foydalanim kelingan karvon yo‘llari burjuaziya ko‘zlagan maqsadlarni to‘la amalga oshirishga imkon bermas edi. Shuning uchun ham o‘lkani Rossiya bilan bog‘lovchi temiryo‘l qurilishi masalasi dolzarb bo‘lib qoldi. Qisqa vaqt ichida hukumat doirasida bu masalaga doir qirqqa yaqin loyihamalar ishlab chiqildi. Ular orasida temiryo‘l qurilishini Krasnovodsk qal’asidan boshlash loyihasi maqbul deb topildi va u 1869-yili harbiy istehkom sifatida Kaspiy dengizi bo‘yiga qurilgan. Bu qal’a Volga daryosi orqali tashib kelingan qurilish materiallarini joylashtirish uchun qulay edi. Ikkinchidan, mazkur qal’a jangovar turkman qabilalarini bo‘ysundirish uchun strategik jihatdan muhim ahamiyatga ham ega edi. Turkman urug‘larini bo‘ysundirishning cho‘zilib ketishi hamda Angliyaning Turkistonga o‘z ta’sirini kuchaytirishga intilishi natijasida Buxoro va Xiva xonliklariga nisbatan o‘z mavqiyeining pasayishidan cho‘chigan Rossiya hukumati temiryo‘l

qurulishini aynan Krasnovodsk qal’asidan boshlashga qaror qildi. Temiryo‘l qurilishi boshlig‘i qilib Baranovsk, temiryo‘l komissiyasining ish yurituvchisi a’zosi etib ishbilarmon general M.I.Annekov tayinlandi. Unga yo‘l qurilishi muhandisi Lesser ko‘maklashdi [3].

Tarixda birinchi marta ko‘chma qumlardan o‘tkazilgan temiryo‘l qurilishining Qizil Arvat qismi katta qiyinchiliklardan keyin 1881-yil 1-sentyabrda ishga tushirildi. Rossiya imperiyasining Turkistonni batamom egallab olish maqsadidagi harakatlari Angliya hukmron doiralarining jiddiy qarshiligidagi duch keldi. Angliya-Rossiya munosabatlari yanada keskinlashdi. 1885-yil 18-martda Angliya ta’sirida bo‘lgan afg‘onlar ruslar bilan Toshko‘prik yaqinida to‘qnashdilar. Bu to‘qnashuvda g‘alaba qozongan ruslar Panda va Atrek vohalarini qo‘lga kiritdilar. Bu muvaffaqiyatlardan mag‘rurlangan Rossiya Harbiy vazirligi temiryo‘l qurilishini Amudaryogacha cho‘zish harakatiga tushdi. 1885-yil iyun oyida temiryo‘lni Chorjo‘ygacha yetkazish haqida Buxoro amiri Abdulahadxondan ruxsat olindi. Shunday qilib, temiryo‘l qurilishiga mahalliy xalq vakillaridan ham ko‘plab ishchilar jalb qilindi. Agar 1885-yil 4-iyungacha Kaspiyoldi temir yo‘li qurilishida 2000ga yaqin kishi ishlagan bo‘lsa, 20-noyabrga kelib ularning soni 14 mingga yetdi. 1886-yil 4-fevralda chor hukumati Marv-Chorjo‘y temiryo‘li qurilishini tasdiqladi [4].

1870-yilda general-gubernator K.P. fon Kaufman Temiryo‘l vazirligiga O‘rta Osiyoga temiryo‘l qurishni tezlashtirish to‘g‘risida ariza bilan murojaat qildi va general-mayor Beznosikovga bu yo‘nalishni o‘rganishni topshirdi. Ikki xil yo‘nalishni o‘rgangan ekspeditsiya 1877-1878-yillarda O‘rta Osiyo temiryo‘lini Qoraqum qumlari orqali Orenburgdan Qora-Tugangacha va undan keyin Sirning o‘ng qirg‘og‘i bo‘ylab eng qisqa yo‘l orqali qurish imkoniyatini tasdiqladi [4].

Barcha izlanishlar natijasida Orenburg-Toshkent temiryo‘lini qurish zarurligi to‘g‘risida fikr hukmron bo‘ldi. Biroq, Turkmanistondagi harbiy harakatlar 1880-yil noyabr oyida Transkaspiy mintaqasida temiryo‘l qurilishi dastlabki tadqiqotlarsiz va yagona rejasiz boshlanishiga olib keldi [5].

Po‘lat liniya Ashxobod orqali Charjo‘yga o‘tdi va 1888-yil may oyida Amudaryo orqali yog‘och ko‘prik qurilganidan so‘ng Samarqand

shahriga transport qatnovi ochildi. Magistral o‘z nomini oldi - Transkaspiy harbiy temiryo‘li (ZVZD). 1888-yil 10-sentabrda uning ochilishida ishtirok etgan buyuk rus olimi N. Prjevalskiy ta‘kidlaganidek, yo‘l “haqiqatan ham mo‘jizadir - dadil yaratilish va kelajakda buyuk maqsad (ayniqsa, harbiy). Temiryo‘l qurilishi tezligi Hindistondagi barcha ingliz yo‘llarining qurilish sur’atlaridan oshib ketdi[6].

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, O‘rta Osiyo, xususan

O‘zbekistonda ham temiryo‘l qurilishi Sovet davlati iqtisodi uchun juda foydali bo‘ldi. Temiryo‘l qurilishlari qiyin sharoitda va og‘ir mehnat sharoitida amalga oshiriligan. Transport tizimining ahvoli qoniqarli darajada bo‘lmagan. Stansiyalar, o‘tkazish punktlari, tarmoq yo‘llar xorijiy standartlarga mos kelmagan. Bundan tashqari Ittifoqning markaziy respublikalaridagi sharoit bilan O‘rta Osiyo, shuningdek O‘zbekiston yo‘llari, transport tarmoqlaridagi vaziyat o‘rtasida juda katta tafovut mavjud bo‘lgan. Jumladan, Ittifoqning birorta hududida kuzatilmagan mahalliy transportning davlat ahamiyatiga molik yo‘llar, mahalliy aholi foydalanuvchi tuproq yo‘llar, davlat ixtiyoriga olinishi reja qilingan yo‘llar kabi guruhlarga bo‘linishi faqat O‘rta Osiyo respublikalarida mavjud bo‘lgan. O‘zbekistondagi transport tarmoqlarining achinarli ahvoli hukumatning asosiy kuch va e’tiborni yana temiryo‘llarga qaratishiga sababchi bo‘lgan.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2000.
- 2.O‘rta Osiyoda tuziladigan jumhuriyatlarning iqtisodiyotidan // Turkiston . – 1924. – № 349
- 3.Гулшанбаров С.И. Экономический обзор Туркестанского района. Ч.II. Сооружение дороги и ее работа. – Ашхабат, 1913, - С.3
- 4.Волков И.В. Железнодорожные коммуникации как фактор развития Русского Туркестана
- 5.Волков И.В. «Закаспийская военная железная дорога» и ее влияние на закрепление России в Средней Азии // Вестник КРСУ. Бишкек. 2010. № 3. С. 11–14.
- 6.Родзевич А.И. Первая русская железная дорога в Средней Азии и ее значение для русско-среднеазиатской торговли. СПб., 1891. С. 44–45.

TARIX

TARIXIY SHAXSLAR TASVIRIDA SHARQ MINIATYURA SAN'ATI AN'ANALARI



Firdavs
ABDUXOLIQOV

O'zbekiston madaniy
merosni saqlash,
o'rganish va
ommalashtirish
bo'yicha Butunjahon
jamiyati boshqaruvi
raisi, san'atshunoslik
bo'yicha falsafa
doktori.

UO'K 94:332

Annotatsiya: Mazkur maqolada tarixiy shaxslarning o'rta asr miniatyuralaridagi tasviri, shuningdek miniatyura san'atining rivoji, uning o'ziga xos xususiyatlari bayon qilinadi. Ushbu miniatyuralarning tarixiy shaxslar qiyofasini belgilashdagi o'rni, zamonaviy rang-tasvir ustalarini ijodiga ta'siri, zamonaviy rassomlarimizning bu boradagi uslubi, yondashuvi tahlil etiladi.

Аннотация: В данной статье рассказывается об изображении исторических личностей в средневековой миниатюре, а также о развитии искусства миниатюры и его специфических особенностях. Автор высказал свои взгляды на роль этих миниатюр в определении образа исторических личностей, их влияние на творчество современных живописцев, стиль и подход в этом отношении наших современных художников.

Annotation: This article describes the depiction of historical figures in medieval miniatures, as well as the development of miniature art and its specific features. The author expressed his views on the role of these miniatures in determining the image of historical figures, their influence on the work of contemporary painters, the style and approach in this respect of our contemporary artists.

Kalit so'zlar: Tarixiy shaxslar, miniyatyura, temuriylar, Movarounnahr, tasviriy san'at, muzey, musavvir.

Ключевые слова: Исторические личности, миниатюры, Тимуриды, Мавераннахр, изобразительное искусство, музей, живописец.

Key words: Historical figures, miniatures, Timurids, Maverannahr, fine arts, museum, painter.

Tarixiy shaxslar qiyofasini bugungi avlodlarga yaqindan tanishtirishda qadimiyoq 'lyozmalar, miniyatyura san'atining nodir namunalari bilan bir qatorda zamonaviy rang-tasvir ustalarining ijod mahsullari ham katta o'rin tutadi.

Ma'lumki, XX asrda O'zbekiston tasviriy san'ati vakillari tariximizda yashab o'tgan ko'plab olim-u fozillar, shoirlar va san'atkorlar obraziga ko'p bor murojaat qilishgan. Bu jarayon O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritganidan so'ng yanada keng ko'lamda rivojlana boshladi. Sovet davrida hamda O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyingi davrda milliy rang-tasvir ustalarini ijodida Sharq miniyatyrasi ta'sirida yoki ulardan bevosita foydalanilgan holda yaratilgan asarlar ko'philikni tashkil etadi.

Jumladan, Kamoliddin Behzod qiyofasi ham bir qator sovet va o'zbek rassomlari ijodida o'z aksini topgan. Shulardan biri 1525-yilda rassomning Tabriz

ismli shogirdi ishlagan surati uzoq vaqt davomida zamonaviy rassomlar uchun asosiy manba vazifasini o’tagan.¹

Bu surat keyinchalik 1982-yilda Javlon Umarbekovning “Behzod o’z ustoz Mirak naqqosh huzurida” nomli asari uchun ham asos bo‘lib xizmat qilgan. Asarga diqqat qilinsa, rassomning ozg‘in qiyofasi, uzun qomati, siyrak, qoramtil soqol-mo‘ylovi, asosan sarg‘ish ranglarga ustunlik berilishi 1525-yildagi miniatyura uslubini eslatadi. Ushbu san’at asarida Behzodning o’smirlik payti tasvirlangan.

Har ikki rasmdagi Behzod qiyofasi, yuz chizgilari, kiyimlarida umumiylit seziladi. Faqat Behzod J.Umarbekov tasvirida boshida xurosoniy salsa bilan tasvirlangan. Chamasi, bosh kiyimlaridagi o‘ziga xoslikni rassom o‘z vaqtida anglab yetgan. Chunki bu paytda Behzod Tabrizda, safaviylar saroyida emas, Hirotda bo‘lgan.

Shuningdek, rassom Temur Sa’dullaevning “Alisher Navoiy va Kamoliddin Behzod” asarida ham o‘rtta asr miniatyuralaridan bahramandlik yaqqol seziladi. Alisher Navoiy siymosida Mahmud Muzahhib tomonidan ishlangan mutafakkir holati bilan uyg‘unlikni bir qarashda sezish mumkin. Ushbu suratda Navoiy xuddi miniatyurada tasvirlanganidek, xiyol egilib, hassaga suyangan holatda tabassum qilib turibdi. Shoirning hassa ustiga qo‘yilgan qo‘llar holati, egnidagi uzun chopon, oyog‘idagi etik shakli ham Mahmud Muzahhib tasvirini yodga soladi.

Behzod shoirning qarshisida unga hurmat bilan nigoh tashlamoqda. Bir qo‘lida kitob tutgan holda, ikkinchi qo‘lida o‘zi chizgan suratni tutib turibdi. Temur Sa’dullaev asaridagi Behzodning yuz chizgilari Javlon Umarbekov tasviriga o‘xhash. Bu har ikki zamonaviy rassom ayni bir xil manbadan – 1525-yilgi miniatyuradan foydalanganini tasdiqlaydi.

Rassom V.Reyx ishlagan “Kamoliddin Behzod shogirdlari bilan o‘z ustaxonasida” asarida ham ranglar gammasi beixtiyor oldingi rasmlar singari 1525-yilgi miniatyura uslubini yodga soladi. V.Reyx Umarbekov va Sa’dullaevdan farqli ravishda Behzodni xuddi miniatyuradagidek, ya’ni safaviylar bosh kiyimi – toji haydariyda, o‘tirgan holatda tasvirlagan.

Behzodning tepasida uning yosh shogirdlaridan biri ustunga suyanib, ustozning o‘gitlariga qulq osmoqda. Behzod tizzasi ustida qaysidir suratni ko‘zdan kechirmoqda yoki unga tuzatish kiritmoqda. Orqa fonda yana ikki nafar rassom ish ustida tasvirlangan.

Ma’lumki, Behzod kompozitsianing tekis yechimini saqlab qolgan holda an’naviy tamoyillar doirasida portretlar yaratgan, tasvirlanayotgan shaxsning individual xususiyatlarini aks ettirish orqali unga jonli tus bergen va shu tufayli chehralarni tanib olish (U chizgan Shayboniyxon, Sulton Husayn, Navoiy, Jomiy portretlari misolida) samarasiga erishgan. Shu bilan birga, u nafaqat miniatyuraning badiiy tilini saqlab qolgan, balki tasvirlangan insonga o‘zining shaxsiy munosabatini ham bildirgan.²

¹ Камолиддин Бехзад, Буклёт. Институт рукописей Академии наук Узбекской ССР. – Ташкент: Издательство ЦК Компартии Узбекистана. 1982. – С 1.

² Семенов А. А. Портреты эпохи Навои. – Ташкент, 1941.- С.37.

Vosifiyning hikoyalaridan ma'lumki, Behzod shoirning bog'da qo'lida hassa bilan tasvirlangan portret-suratini chizgan. Biz uni XVI asrda yashab ijod qilgan buxorolik rassom Mahmud Muzahhibning portretida ham uni shunday holatda ko'ramiz.¹

Bu rasm 1500-yili Behzodning shogirdi Mahmud Muzahhib tomonidan yaratilgan bo'lib, Eronning Mashhad shahridagi Ostonai quds kutubxonasida saqlanmoqda. Bu rasmida Navoiy hassaga suyangan, ancha keksa holatda tasvirlangan. Rasmning yuqorigi chap burchagida «Suvrati Amiri Kabir Mir Alisher», pastki o'ng burchagida esa «Amali Mahmud Muzahhib» so'zlari yozilgan.

Shu o'rinda aytish joizki, Mahmud Muzahhibga tegishli bu miniatyura ilk bor professor A.A.Semyonov tomonidan shoirning 500 yillik yubileyi oldidan 1940-yili chop ettirgan edi. Keyinchalik, V.Kaydalov, A.Abdullaev, L. Abdullaev, Ch.Ahmarov singari musavvir va haykaltaroshlar o'z asarlarini ana shu rasm asosida ishlaganlar.

Masalan, V.Kaydalov 1947-yilda ishlagan portret ko'pqavatli klassik manerada, moybo'yoqda, yumshoq va issiq koloritda ishlangan. Alisher Navoiy ustiga kitoblar taxlangan olti qirrali stol ortida o'tiribdi. Shoir egnida to'q qizil rangli baxmal qabo kiygan. Olisga tikilgan nigohlarida tafakkur va donolik balqib turibdi. Mutaxassislar fikricha, shoir siymosi Mahmud Muzahhib ishlagan miniatyuraga yaqin.²

Alisher Navoiyning eng mashhur suratlaridan yana biri 1981-yilda Abduhakim Abdullaev tomonidan ishlangan "Shoir Alisher Navoiy" portretidir. Ayni paytda 100x80 sm hajmdagi ushbu surat Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyining mulki sanaladi. Navoiyning hassaga tayanib turgan an'anaviy holati Muzahhib miniatyurasini yodga solsa-da, uning tashqi ko'rinishini tasvirlashga ijodiy yondashadi. Shoir nigohidagi horg'inlik va o'ychanlik Behzodning "So'fiylar raqsi" miniatyuroasidagi Navoiy qiyofasiga yaqin keladi.

Biz Navoiyning shu paytgacha aniqlangan miniatyuralarida shoirni bunday liboslarda uchratmaymiz. Navoiy egnidagi bezakli oq qabo va binafsharang yaktak, oq oralagan soqol unga temuriylar davri amirlariga xos ulug'vorlik bag'ishlagan. Orqa fonda qizarib turgan ufq, gumbaz va minoralar aks etadi. Boshida salsa ostidan kiyilgan qizil taqya ko'rinib turadi.

Keyingi rassomlar ijodida ham mumtoz miniatyura, ham zamonaviy asarlardan ilhomlanish kuzatiladi. Xususan, rassom Aziza Mamatova mo'yqalamiga mansub "Navoiy" portretida shoirning yangicha, o'ziga xos qiyofasini ko'rishimiz mumkin. Navoiy bu asarda Behzod va Muzahhib miniatyuralaridagidek yashil libosda tasvirlangan. Suratda Navoiyning qo'li yeng ichida. O'rta asr taomiliga ko'ra, bunday holat shoir o'z asarini yozib tugatganini bildiradi. Orqa fonda oltin kuz manzaralari aks etgan. Bu ham o'ziga xos ramziy

¹ Абдухоликов Ф. Алишер Навоий сиймоси шарқ миниатюраларида // Алишер Навоий ва XXI аср: 8-Халқаро конференция материаллари. – Тошкент-Боку. 2023. - Б 129.

² Маматов У. Три портрета: Запечатленное достоинство жизни // «Народное слово» 8 февраля. 2022 г.

ma'noga ega. Navoiy o'z asarlarida kuz fasliga alohida yondoshadi, u umrning o'rta yasharlik paytini ifodalaydi. Shu bilan birgalikda kuz yil bo'yi qilingan mehnat hosilini jamlaydigan fursat. Navoiy ham suratda o'rta yoshli, aql va kuchga to'lgan ijodkor qiyofasida aks etadi.

O'zbekiston xalq rassomi Javlon Umarbekov chizgan "Husayn Boyqaro va Alisher Navoiyning yoshligi" (1968) asari ham muallifning Sharq miniatyuralaridan yaxshi xabardorligini ko'rsatadi. Suratda har ikki qahramonning o'smirlik payti tasvirlangan.¹ Ular gilam ustida cho'kkalab o'tirishibdi. Yosh Alisher shahzoda Husaynga kichik bir kitobni tutqazmoqda. Biz Alisherni nisbatan odmiroq kiyimi, yoshroq ko'rinishi orqali shohona kiyimdagи shahzodadan farqlay olamiz. Husayn qirmizi tusdagi, shohona bezakli libosda, qo'lini ko'ksiga bosgancha, do'sti Alisherga tavoze ko'rsatmoqda. Ularning oldida turgan qalamdon, tashqarida depsinib turgan otlar ikki do'st mutolaa yohud saboqdan so'ng qaergadir otlanmoqchi ekanidan dalolat beradi. Husayn Boyqaroning kiyimidagi bezaklar, tizzalab o'tirishi Kamoliddin Behzod mo'yqalamiga mansub "Husayn Boyqaro" portretini eslatsa, yosh Alisher ko'zlaridagi teran ma'no, halimlik va zakovat Mahmud Muzahhib ijodidagi nuroniy Navoiy obrazini yodga soladi.

Amir Temur siymosi ham temuriylar, boburiylar va shayboniylar davrida musavvirlar juda ko'p murojaat qilgan tarixiy personajlar qatorida turadi. Tarixchilar ham o'z davrida Amir Temurning qiyofasi haqida aniq ma'lumotlar berib o'tishgan. Jumladan, Ibn Arabshoh o'z asarida Amir Temurning qiyofasini xolis va haqqoniy tasvirlab bergen.

Ma'lumki, 1941-yil 2-22 iyun kunlari maxsus ekspeditsiya Samarqanddagи "Go'ri Amir" maqbarasida olib borilgan tadqiqotlar natijasida Amir Temur, Shohrux Mirzo, Mirzo Ulug'beklar qabri ochilgan, ularning jasad qoldiqlari o'r ganilgan, ekspeditsiya tarkibida bo'lgan M.Gerasimov (1907-1970) tomonidan ushbu qoldiqlarga qarab temuriylarning yuz tuzilishlari qayta tiklangan.²

Amir Temur siymosi sovet yillarda yovuzlik, bosqinchilik, jabr-zulm timsoli bo'lib keldi. Maktab darsliklarida Amir Temurni o'quvchilarga tanitish uchun M.Gerasimov ishlagan rekonstruksiyadan foydalanilgan. M.Gerasimov o'z davrining siyosiy mafkurasidan kelib chiqib imkon qadar Amir Temurni qahrli, qo'r qinchli qiyofada tasvirlagan bo'lishi mumkin. Ammo, Gerasimov bu rekonstruksiyanı yaratishda sarkardaning bosh suyagi, antropologik chizgilaridan chiqib ketmagan.

Keyinchalik bu rekonstruksiya tarixiy miniatyuralar bilan birgalikda taniqli haykaltarosh Ilhom Jabborov tomonidan 1996-yilda Toshkent, Samarqand va Shahrisabzda tiklangan haykallari uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Shu bilan birga rassom Malik Nabievning (1918-2006) "Amir Temur" portretida ham uzoq yillik izlanishlar, chuqur bilim va mahorat aksini ko'rish mumkin.³

M.Nabiev o'z esdaliklarida yozishicha, Amir Temur shaxsi bilan bog'liq juda ko'p materiallar o'r ganilgan, Kalkutta, Mumbay (Hindiston), Tehron,

¹ Зингер Э.А. Джавлон Умарбеков. – Москва: Советский художник. 1991. – С 7.

² Бердимуродов А. Самарқанд тарихидан томчилар. – Тошкент: Майнавият, 2008. – Б 283.

³ Остонова, Г. Р. Портреты Амира Тимура и Захириддин Мухамеда Бабура в творчестве народного художника Узбекистана Малика Набиева // Молодой ученый. — 2016. — № 11 (115). — С. 1617-1619.

Isfahon (Eron), Istanbul, Konya, Izmir (Turkiya), shuningdek, Buyuk Brinatiya, Fransiya, Ispaniyadagi muzeylarda saqlanayotgan miniyaturlar ko‘rib chiqilgan, Hind va Xuroson miniatyura maktablarida ishlangan Amir Temur siyosini namunalari taqqoslanib o‘rganilgan”.¹

1994-yilda yaratilgan portretda sarkardaning oltin toj kiyib, qilichiga tayanib taxtda o‘tirgan holati aks etgan. Tashqarida, olisdan Samarcand manzaralari ko‘zga chalinadi. Sohibqironning yelkasi osha taxt suyanchig‘i va devordagi sharqona naqshlar ko‘rinib turibdi. U shohona libosi ustidan keng va qudratli yelkalariga zarhal naqshli oq chakmon yopingan. Hukmdorning yirik, baquvvat barmoqlarida saltanat timsoli bo‘lgan muhrli uzuk yaqqol ko‘zga tashlanadi. Amir Temurning qarashlari o‘tkir, qiyofasi o‘ta jiddiy va salobatli. Muallif ushbu asarida turli davrlarda chizilgan miniyaturlar, Ibn Arabshohning yozma tasvirlari, Gerasimov rekonstruksiyasidagi umumiy jihatlarni aks ettirishga harakat qilgan.

Muhammadjon Nuriddinovning “Amir Temur hukmdorlik timsollarini qabul qilmoqda” nomli moybo‘yoqda ishlangan asarida sohibqironning 1370-yilda Movarounnahr hukmdori etib tayinlanishidan avval piri Sayyid Baraka va boshqa nuroniyalar qo‘lidan davlat bayrog‘i va nog‘orani qabul qilib olayotgani tasvirlangan.²

Muallif ushbu asar ustida tarixiy jarayonlar, xususan sharq miniyaturlarini puxta o‘rgangani ko‘rinib turibdi. Amir Temur bu asarda biz avvalgi boblarda tanishgan, sohibqiron tirikligi paytida 1400-yillarda ishlangan miniatyuraga xos ko‘rinishda tasvirlangan. Boshidagi dubulg‘a va egnidagi sovutda ham o‘xshashlik yaqqol ko‘zga tashlanadi. U chap qo‘li bilan shamshir dastasini tutgancha o‘ng qo‘lini ko‘ksiga bosib turibdi. Bu holatda Amir Temur har doim do‘stilariga xizmatda, dushmanlari uchun ayovsiz bo‘lganiga ishora qilinadi.

Orqa fonda jangga shay turgan, qurollangan otliq askarlarni ko‘ramiz. Askarlarning maydonda joylashuvi Amir Temur davridagi jangovar shaylik holatini aks ettiradi. Oqsoqollar sarkardaga topshirayotgan moviyrang bayroqda uchta oq halqa ko‘zga tashlanadi. Bu Amir Temur davlatining ramzi bo‘lgani tarixdan ma’lum.

Mirzo Ulug‘bek qiyofasi ham ayni paytga qadar rassomlarimiz tomonidan ko‘p bora tasvirlangan. Ular orasida O‘zbekiston xalq rassomi Chingiz Ahmarov tomonidan ishlangan “Ulug‘bek” portretiga alohida to‘xtalib o‘tishga to‘g‘ri keladi. Portret Ch.Ahmarovning xos uslubida, asosan ko‘k rangda, 30X20 hajmda, 1974-yilda ishlangan. Ulug‘bek siyosida hukmdorlarga xos salobat emas, ko‘proq olimona tafakkur aks etgan.³

Mirzo Ulug‘bek siyosini aks etgan tasviriy san‘at asarlaridan yana biri O‘zbekiston Xalq rassomi, akademik Akmal Ikromjonov tomonidan 1999-yilda

¹Хасанов Р. Основы изобразительного искусства. – Ташкент, Фан, 2009. – С 98-101.

² Нуриддинов М. “Амир Темур хукмдорлик тимсолларини қабул қилмоқда”, 1996, мато, мойбўёқ. – Ўзбекистон тасвирий санъати антологияси, “Санъат” журнали нашриёти. – Тошкент, 2009. – Б.242.

³ <https://ocau.uz/ru/portrait-of-ulugbek>

yaratilgan “Mirzo Ulug‘bek” portretidir.¹ Ushbu portret keyinchalik juda ko‘p illyustratsiyalar, nashrlarda ishlataligan, katta shuhrat qozongan.

A.Ikromjonov yaratgan surat Gerasimov ishlagan Mirzo Ulug‘bekning otasi – Shohruh Mirzo rekonstruksiyasini yodga soladi. Shu bilan birga hukmdorning bodomqovoq, xiyol qisiqko‘z qiyofasi, to‘q moviyrang, zardo‘zi naqshlar tikilgan ustki kiyimi, sal cho‘zinchoq yuzlari biz yuqorida tasvirlagan, Vashington (AQSh)dagi Frir galereyasida saqlangan “Nizomiy “Xamsa”siga 1425-yillarda ishlangan miniatyuradagi hukmdor qiyofasiga ham monand keladi.

Mirzo Bobur siymosi ham zamonaviy rang-tasvir san’atida o‘z o‘rniga ega. Ayni paytga qadar o‘zbek rang-tasvir ustalari tomonidan Bobur Mirzoning o‘ndan ortiq turli portretlari yaratilgan. Xususan, rassom Aziza Mamatova tomonidan 2001-yilda yaratilgan suratlar ko‘plab bosma asarlarda, illyustratsiyalarda chop etilgan, ushbu tasvirlardan turli teleko‘rsatuvlarda, ko‘rgazmalarda foydalanilgan.

Mazkur suratda ham Bobur Mirzoning XVI asrda hind musavvirlari tomonidan ishlangan “Bobur Mirzo bog‘da” portreti asos bo‘lganini bir qarashda anglash mumkin. Boburninig boshidagi sallasi, egnidagi ov manzarasi aks etgan kiyimi, u o‘tirgan taxt ham bizga mashhur hind miniatyurasi orqali yaxshi tanish. Bu yerda ham Bobur o‘scha tanish miniatyuradagi kabi qo‘lida qog‘oz parchasini ushlab olgan.

Bobur siymosi aks etgan yana bir qimmatli tasviriy san’at asari Malik Nabiev ijodiga mansub. Bu asar ancha oldin, 1969-yilda ishlangan. Rassom bu asarida hind musavvirlari tomonidan ishlangan Bobur portretlaridan ilhomlangani ko‘rinib turibdi. Buni fonda tasvirlangan hind me’moriy uslubiga xos bezaklar ham tasliqlaydi.² Faqat hukmdor boshidagi qizil tusli salsa Bobur haqidagi xato tasavvurlarni tasdiqlashga xizmat qilishi mumkin. Ya’ni qizil rangli, 12 o‘ramli salsa qizilboshlar bosh kiyimi bo‘lib, Bobur 1511-yilda shoh Ismoil Safaviydan aynan shu ko‘rinishdagi sallani qabul qilib olishi turli shov-shuvlarga sabab bo‘lgan, hatto uning shia oqimiga o‘tib ketgani haqidagi mish-mishlarni keltirib chiqargan. Holbuki, Bobur to umrining oxiriga qadar sunniy e’tiqodiga sodiq qolgani Boburning o‘z asarlarida, shuningdek boshqa tarixiy manbalarda ham zikr etilgan.³

O‘zbekiston Xalq rassomi Akmal Nuriddinov (Akmal Nur)ning 1996-yilda ishlagan “Armon” asarida ham Bobur Mirzoning taxt ortidagi g‘amgin va xayolchan qiyofasini ko‘ramiz.⁴ Bobur ushbu asarda bizga tanish bo‘lgan hind rassomi miniatyurasidagi sallada va qizil rangli ustki shohona kiyimda tasvirlangan. Boburning taxtga orqa o‘girib turishida ham ramziy ma’no bor, Rassom shoh va shoirning bu holatida Vatan sog‘inchini, saltanat, dunyo tashvishlaridan ozurdalikni, horg‘inlikni ifodalaydi. Tun qo‘ynidagi oy va yulduzlar orqali muallif har qanday zulmatni yoritishi mumkin bo‘lgan yorug‘lik insonga taskin berishini ko‘rsatmoqchi bo‘ladi.

¹ Махмудов Т.. Предисловие к альбому А. Икрамджанова. Ташкент: Академия художества Узбекистана, 2002. – С 3.

² Самадов О. История искусства. - Ташкент, Шарқ, 2015. - С 245–247.

³ Азимжонова С. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Мақолалар тўплами. - Тошкент, 1995. – Б 83.

⁴ Акмал Нур. Армон, 1996, мато, мойбӯёқ. – Ўзбекистон тасвирий санъати антологияси, Санъат журнали нашриёти. – Тошкент, 2009. – Б.242.

Rang-tasvir asarlari bilan birga milliy qahramonlarimizga bag‘ishlangan haykallar, yodgorliklar mamlakatimizning turli hududlarida o‘rnatila boshlandi. San’atshunoslik fanlari doktori Kamola Oqilova qayd etganidek, “tariximizdagи milliy qahramonlarni yuzaga chiqarish masalasi I.Jabborov, J.Mirtojiev, A.Rahmatullaev, L.Ryabsev, K.Norxo‘rozov, U.Mardiev, P. Podosinnikov, M.Aliev ijodida yangi tematik diapazonlarni oolib berdi. Bugun ular tomonidan yaratilgan, O‘zbekistonning turli hududlarida o‘rnatilgan Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Ahmad al-Farg‘oniy, Jaloliddin Manguberdi, Zahiriddin Muhammad Bobur haykallari o‘zbek xalqining tarixi xotirasi, milliy iftixorini o‘zida ifodalab turibdi”.¹

Mazkur yodgorliklarning yaratilishida rassom va haykaltaroshlar imkon qadar sharq miniatyura san’atining nodir namunalari bilan yaqindan tanish bo‘lishgan. Tasviriy san’at ustalarining keyingi faoliyatida ham madaniy merosimizning ajralmas qismi hisoblangan miniatyura san’ati durdonalari muhim manbalar qatorida bo‘ladi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Abduxoliqu F. Alisher Navoiy siymosi sharq miniatyuralarida // Alisher Navoiy va XXI asr: 8-Xalqaro konferensiya materiallari. – Toshkent-Boku. 2023. - B 129.
2. Azimjonova S. Zahiriddin Muhammad Bobur. Maqolalar to‘plami. - Toshkent, 1995. – B 83.
3. Akmal Nur. Armon, 1996, mato, moybo‘yoq. – O‘zbekiston tasvirisy san’ati antologiyasi, San’at jurnali nashriyoti. – Toshkent, 2009. – B.242.
4. Berdimurodov A. Samarqand tarixidan tomchilar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – B 283.
5. Зингер Э.А. Джавлон Умарбеков. – Москва: Советский художник. 1991. – С 7.
6. Камолиддин Бехзад, Буклет. Институт рукописей Академии наук Узбекской ССР. – Ташкент: Издательство СК Компартии Узбекистана. 1982. – С 1.
7. Маматов У. Три портрета: Запечленное достоинство жизни // “Народное слово” 8 февраля. 2022 г.
8. Махмудов Т.. Предисловие к альбому А. Икрамджанова. Ташкент: Академия художества Узбекистана, 2002. – С 3.
9. Nuriddinov M. “Amir Temur hukmdorlik timsollarini qabul qilmoqda”, 1996, mato, moybo‘yoq. – O‘zbekiston tasvirisy san’ati antologiyasi, San’at jurnali nashriyoti. – Toshkent, 2009. – B.242.
10. Остонова, Г. Р. Портреты Амира Тимура и Захириддин Мухамеда Бабура в творчестве народного художника Узбекистана Малика Набиева // Молодой ученый. — 2016. — № 11 (115). — С. 1617-1619.
11. Самадов О. История искусства. - Ташкент, Шарк, 2015. - С 245–247.
12. Семенов А. А. Портреты эпохи Навои. – Ташкент, 1941.- С.37.
13. Хасанов Р. Основы изобразительного искусства. – Ташкент, Фан, 2009. – С 98-101.
14. <https://ocau.uz/ru/portrait-of-ulugbek>

¹ Акилова К. Поиски смысла. – Ташкент: Издательство журнала “Санъат”. – С 234.

FILOLOGIYA

ABDULLA QODIRIY ASARLARIDA DAVR VOQEALARI



**Sayyora
SAMANDAROVA**
Filologiya fanlari
nomzodi, dotsent



**Umid
БЕКМУХАММАД**
Tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori

UO'K 94:332.8 (575.1)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdulla Qodiriyning bir romani va hajviyasi misolida tarixiy shaxslarning obrazlari adib asarlarida aks ettirilgani tahlil qilinadi.

Аннотация: В данной статье на примере романа и комедии Абдуллы Кадири анализируются образы исторических личностей в произведениях писателя.

Annotation: This article analyzes the depiction of historical figures in the works of Abdulla Qodiri, using the example of a novel and satire.

Kalit so'zlar: Roman, hajviya, Toshkent, Qo'qon xonligi, xayriya, pul, yordam, davr manzaralari.

Ключевые слова: Роман, комедия, Ташкент, Кокандское ханство, благотворительность, деньги, помощь, сцены эпохи.

Key words: Novel, humor, Tashkent, Kokand Khanate, charity, money, aid, period scenes.

Abdulla Qodiriy “O'tgan kunlar”, “Mehrobdan chayon” romanlari, “Obid ketmon” qissasi va ko'plab hajviyalari, feletonlari, maqolalari bilan o'zbek adabiyoti, matbuoti taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan adibdir. E'tiborli jihatni, uning nafaqat maqolalari yoki hajviyalarida, balki badiiy asarlarida ham davr voqealari real shaxslar timsolida mohirona aks etgan. Ana shunday qahramonlardan biri “O'tgan kunlar” romanidagi Yusufbek hoji obrazidir.

Ma'lumki, romanda tasvirlangan voqealari - Azizbekning zulmi kuchaygach, xalq Yusufbek hoji atrofida jipslashib, hokimga qarshi isyon ko'targani tarixiy fakt. 1847-yilda Toshkentda bo'lib o'tgan yuqoridagi voqealar Abdulla Qodiriyning mashhur “O'tgan kunlar” asarida badiiy tasvirlangani romanni o'qigan, yoki ushbu asar asosidagi kinofilmni ko'rgan tomoshabinlarga ma'lum.

Toshkentda tug'ilib o'sgan, o'z shahri tarixini batafsil o'rgangan Qodiriy romanda bosh qahramon - Otabek va uning otasi Yusufbek hojini xalq ergashadigan ijobiy shaxs sifatida tasvirlaydi. Aslida hayotda ham shunday edi. Ya'ni, Toshkentliklar Yusufbek hojini Muhammad Yusufbek parchabof deya hurmat qilishgani tarixiy manbalardan ma'lum.

“Toshkent aholisi Azizbek istibdodidan ortiq tuyindi, kimdan ko'mak so'rashni ham bilmaydir” (“O'tgan kunlar”dan).

Zero, hokimning zulmiga qarshi bosh ko‘targan banda borki, hatto bu to‘g‘rida maxfiy gapirsalar-da, xufiyalar Azizbekka shipshitib turgan.

“bir misol kelturay...Toshkanddagи jum’alik gap majlislaridan birida bir kishi Azizbekni maqtar va bu maqtovga qarshi ikkinchisi” nega muncha maqtaysan, Azizbekning asli bir bachcha-da” der.Ularning bu muzokaralarini chetdan eshitib turgan xufiyalardan biri so‘zni Azizbekning qulog‘iga yetkazar. Ertasiga Azizbek mazkur ikki kishini o‘z huzuriga oldirib, maqtovchiga ulug‘ mansab ato qilar va ikkinchisini o‘limga buyurar”(“O‘tgan kunlar”dan).

Xullas, xalq dardini kimga aytishni, kimga suyanishni bilmay yurgan payt. Chiday desa, sabr kosasi to‘lgan. Sabr tagi-sariq oltindan esa darak yo‘q...Aksiga olib, olomon har yoqqa yo‘l izlaydi, bir-biriga mag‘zava ag‘daruvchilar ham ko‘p.

Ammo xalqni birlashtiradigan yo‘lboshchi yetishib chiqqandi. Bu Muhammad Yusufbek edi. Xalq Yusufbek hoji deya ataydigan ul insonning uyi Shayxontohurning Zanjirlik mahallasida edi.Uning yoshlida kasbi hunarmand-kosib bo‘lib, Chorsuda qator do‘konlari bo‘lgan, do‘konlari ortidan boyib, Toshkandning obro‘li zotlariga aylangan, hajga borib kelgan edi. Toshkandga Normuhammad hokim bo‘lgan davrda esa uning vaziri bo‘ldi.Qo‘qon xoni Xudoyorxon unga parchabof unvonini bergen edi.

Bu to‘g‘rida qo‘qonlik tarixchi Avaz Muhammad Attorning “Tarixi jahonnamoyi” asarida ma‘lumot berilgan. Ana shu inson toshkentliklarni Azizbek zulmiga qarshi jipslashtirib, isyon ko‘tardi. Bunga hokim janoblarining xazinani to‘ldirish uchun xalqqa soliq solgani sabab bo‘ldi. “Ular har bir mahalla va ko‘chaga pul solig‘i soldilar.Biroq dovyurak kishilar, ya’ni Muhammad Yusufbek - parchabof va boshqalar bu qarorga itoat qilmay, juma kuni kechki namozdan keyin bir-birlariga xabar berib, qo‘lga ilingan narsalar bilan qurollandilar” deya yozadi Avaz Muhammad Attor o‘z asarida [1].

Natijada Azizbek navkarlari bilan Yusufbek hoji isyonkorlari o‘rtasida Toshkandning Changob, Parchabof mahallalarida, Xotun masjidi yonida janglar bo‘lib o‘tadi. Beshyog‘och mahallasidagi olomon ham nayza, Tayoq va miltiqlar bilan qurollanib, Qalandarxona yo‘li bilan o‘rdasiga qaytgan Azizbek navkarlari turgan joyni qamal qiladi. Shaharning o‘n ikki darvozasi yopiladi.

“Azizbek qa’lani aylanib merganlardan hol-ahvol so‘rar, ularni yangi mansablarga ko‘tarish haqida ming va’dalar berardi. Har bir qo‘shinda posbonlar joyini tekshirishdan so‘ng o‘n-o‘n besh kishi qa’la devoridan tushib, qochib ketardi. Shundan so‘ng Toshkand hokimi isyonkorlardan omonlik tilab, xotini va bola-chaqasini olib, Qo‘onga kochdi va u yerdan Marg‘ilonga ketdi. Biroq xiylakor Azizbek jonini saqlab qolganiga shukur qilmay, qipchoq va boshqa urug‘larga fisqu fasod xatlar yozib, xonlik xavfsizligiga rahna sola boshladi. Shu bois “uning shaytonligi oshkor bo‘lgach, Qo‘qonning katta qabristonida bir kechada qatl etdilar” deya tarixchi Avaz Muhammad Attor Azizbekning o‘limini tasvirlaydi [2].

Yusufbek hoji esa zulmkor hokimdan qutulgach, Yangi Toshkand hokimi o‘rdasida dabir lavozimida faoliyat ko‘rsata boshlaydi. 1853-yili chor qo‘shinlari Qo‘qon xonligiga qarashli Oqmasjidga bostirib kirganida, Yusufbek hoji ham

bosqinchilarga qarshi kurashdi. Urushda vatanparvarlar mag‘lub bo‘lgach, Qo‘qon xoni Toshkand hokimini o‘zgartirib, u yerga Mirzo Ahmadni hokim qilib tayinladi. Yangi hokim Yusufbek hojining xalq o‘rtasidagi obro‘sidan xavfsirab, soyasida qolib ketayapman, degan o‘yda uni o‘ldirish niyatiga tushib qoladi. Buni sezgan Yusufbek hoji Chimkentning so‘lim Sayramidagi Mankent qishlog‘iga qochib, yashirindi. Ammo Yusufbek hoji yashiringan joy haqida bir paytlar uning xizmatida yurgan Abdumo‘minqul ismli xiyonatkor hokimga borib chaqdi. Natijada Yusufbek hoji tutib keltirilib, dorga osildi. Bu mudhish voqeа 1855-yilda sodir bo‘lgan.

Mazkur voqealarga muallif boshqacharoq yo‘sinda - Otabek taqdiriga Qo‘qon xonligidagi Xudoyorxon, Musulmonqul, Azizbek kabi tarixiy shaxslarning olib borgan mudhish siyosati ta’sir qilganligidan kelib chiqib yondoshdi. Tarixni yaxshi bilgan romanchiligidan asoschisi o‘tmishdagi hayotiy voqealarning roman mavzusiga doir qisminigina asariga kiritgan. U Yusufbek hojini romandagi xalq qahramoni darajasiga ko‘tardi. Ammo hojining keyingi hayotini yoritib o‘tirmadi. Qodiriyning nazarida, qahramonlar jisman o‘lsa-da, ma’nan o‘lmaydi - xalqni ruhlantirib, avlodlar qalbida yashayveradi. Buning uchun esa tez-tez tarixga murojaat qilib turish kerak. Zero, Qodiri yozganidek, “moziyga qaytib ish ko‘rmoq xayrli, deydilar”. Shu bois roman mavzusi va nomi - “O‘tgan kunlar”.

1920-yil sentabrda Buxoro amirligi tugatilgach, tashkil qilingan Buxoro Xalq Respublikasi rahbarlari etib jadidlar - ilmli, ma’rifatli "Yosh buxoroliklar" saylandi. Ular Fayzulla Xo‘jaev, Fitrat, Usmonxo‘ja, Sadriddin Ayniy, Abdulvohid Munzim edilar. Bu insonlar amirlik davridagi qoloqlik, istibdod va jaholatning avj olgani sababini ilmgaga, texnikaga e’tibor qilinmaganlikning oqibati bilan izohlashardi. Shuning uchun ham ular dastlabki ishni iqtidorli yoshlarni taraqqiy etgan Germaniyaga o‘qishga yuborishdan boshladilar. BXR budgetidan aynan ilmgaga intilganlar uchun Germaniya banklaridan biriga pul ajratildi.

Buxoroliklardan ibrat olgan boshqa hududlardagi ma’rifatparvarlar ham Toshkent, Xorazm va vodiylar viloyatlaridan iqtidorli yoshlarni tanlab olib, ularni Germaniyaga jo‘natishga harakat qilishdi. Ammo mablag‘ masalasi muammo edi. Ana shunday vaziyatda Saidnosirboy, Cho‘lpon, Munavvar qori va Abdulla Qodiriylar bir tashabbus bilan chiqdilar. Unga ko‘ra, 1921-yilda “O‘zbek bilim hay’ati” qoshida “Ko‘mak” uyushmasi tuzildi. Ma’rifatparvarlar zamon og‘ir bo‘lsa-da, ma’rifat uchun saxovat qiladiganlar topilar, degan ezgu niyatda harakat boshlashdi.

O‘sha davrdagi vaziyat “Turkiston” gazetasining 1923-yil 27-yanvar sonida yoritilgan. “Xumsonlik” taxallusli muallif “So‘nggi ko‘makni kimlardan kutishimiz kerak?” nomli maqolasida shunday deb yozgan edi: “Turkistondan chetga borib o‘qish uchun 1921-yil boshlarida “O‘zbek bilim hay’ati” tomonidan student Saidalixo‘ja bo‘lgan holda bir necha o‘quvchilarning ro‘yxati olinib, hukumatga topshirilgan edi. Bir necha muddat buning ketidan yurib, natijada hukumatimizning moddiy ko‘mak bera olmasligi bilingach, bu masala o‘zo‘zidan to‘xtadi. Lekin o‘qiguvchilarning orasida ko‘tarilgan chetga ketib o‘qish havasi esa buning bilan bitmadi. O‘qiguvchilardan qaysi bir o‘ziga to‘qlari (

garchi borliq narsalarini sotib bo‘lsa-da) yana chetga ketmak orzusida bo‘ldilar. Bularning o‘zaro tashabbusini ko‘rgan “Bilim hay’ati” chetda tomoshachi bo‘lib tura olmadi. Va chetga ketuvchi studentlarning o‘zlaridan bir komissiya tuzib, o‘z a’zosi Saidalixo‘jani shul komissiyaga boshliq etib, “Ko‘mak” nomi ostida bir uyushma tuzdi. Uyushma kecha-yu kunduz ishlab, bir kishini chetga jo‘nata oldi”[3].

Ha, g‘oyat og‘ir yillar edi. Hukumatga ham qiyin. Madaddan umidvor bo‘lishning foydasi yo‘q. To‘plangan pul esa atigi bir kishini o‘qishga yuborishga yetdi. Boraman, ilm o‘rganaman, deydiganlar esa haddan ziyod. Xo‘s, nima qilish kerak? Kimdan ko‘mak kutish lozim?

Ana shunday vaziyatda Cho‘pon, Qodiriylar el orasida yurib, tashabbus bilan chiqdilar: “Yoshlardan xayriyangizni ayamang!”, “Ilm uchun saxovat ko‘rsating!”. Tashabbuskorlar o‘zlaridagi ma’rifatparvarlik, ilmgan intilish, yoshlari iqbolini o‘ylaganlari sababli ibrat ko‘rsatishdi. Xususan, Abdulla Qodiriydek mehridaryo, hojatbaror inson o‘z bog‘ida yetishtirgan mevalarni sotib, “Ko‘mak”ka xayriya qildi. Cho‘pon esa moddiy jihatdan qiynalib yurganiga qaramay, qalam haqlarini to‘plib, kiyim-bosh olaman deb yiqqan pulini yoshlarga bag‘ishladi.

Bu insonlarning tashabbusi va xayr-saxovatidan boshqalar ham ibrat olishdi. “Turkiston” gazetasining 1922-yil 18-dekabr sonidagi xabarga ko‘ra, Toshkentdagi bir guruh maorif va madaniyat arboblari o‘qishga boruvchilar uchun pul topshirgan. Ular orasida Saidnosirboy Mirjalolov(yigirma ming so‘m), shoir Cho‘pon(yetti yarim ming so‘m), Munavvar qori, Shokirjon Rahimiylar bor edi. Bundan tashqari, Toshkent ziyorilari 2-dekabrdan adabiy kecha uyushtirib, undan tushgan yetmish besh ming so‘mni ham Germaniyaga yuborganlar.

Ziyorilarning bunday ezgu ishlarini ko‘rib, oddiy xalq ham oz bo‘lsa-da, pul olib kelib topshira boshladi. Afsuski, o‘ziga to‘q ba’zi kishilar bunday tadbirdan o‘zlarini chetga olishardi. Tashabbuskorlarga, “shundan boshqa tashvishim yo‘qmi?”, “menim bolam o‘qirmidi?”, deya javob berib yuborishardi. Bunday kaltabinlikka guvoh bo‘lgan Abdulla Qodiri “Mushtum” jurnalining 1923-yil, 4-sonida “Ko‘mak” uyushmasiga ionalar” nomli hajviyasini e’lon qildi. U shunday boshlanadi: “Keyingi kunlarda “Ko‘mak” uyushmasiga berilgan ionalarning hisobi juda ham ko‘payib ketdi. Tushgan ionalarni uyushmaning bitta kassasi eplay olmaganlikdan ikkinchi kassa olmoqqa majbur bo‘lindi. Keyingi oyda iona bergen saxiylarning ro‘yxati mundaydur:

1. Valihoji-besh millard so‘mga arziyidigan duo.
2. G‘ulom shayx boybachcha-“O‘qishga ketkan yigitlar mullo bo‘lsunlar” degan yaxshi tilak (baho qo‘yish komissiyasining so‘ziga qaraganda, bu iona ham besh milliardga arzir ekan).
3. Azim boyvachcha, ko‘mirchi-sakkiz pud toshko‘mir.
4. Tujjor shirkati-ikkita sopol tovoq bilan bitta xurmacha.
5. Kamar shirkati-chorak qadoq olma choyi.
6. Poyabzal bozoridagi do‘konlar o‘zaro-bir poy bachkana etik.

- 7.Chit bozorining do‘konlaridan - bir gazu uch chorak gazlama.
- 8.Attor og‘a-inilardan-ikki quti upa.
- 9.Qassoblikdan-besh dona o‘pka.
- 10.Qandolatchilardan - uch istakan pistashka bilan bir qadoq pashmak va boshqalar.

Ushbulardan Berlin o‘quguvchilarimizga yuborildi:

Berlindagi talabalarimiz ortuqcha muhtoj bo‘lg‘onliklaridan birinchi galda to‘rt put toshko ‘mir, ikkita sopol tovoq, bir posilka duo yuborildi” [4].

O‘sha davrda Abdulla Qodiriy - Julqunboyning bu hajviyasi o‘lkada katta shov-shuv bo‘lib, ba’zi do‘kondor, savdogar, bog‘bonlar uyalganidan “Ko‘mak”ka xayriya qila boshlashdi. Ammo ayrim mutaassib mulla, maishatparast kishilar baribir saxovatdan, ilmga xayriya qilishdan chetda qolaverdilar.

Shunday bo‘lsa-da, ma’rifatparvarlar, Abdulla Qodiriy hajviyasidan ta’sirlangan kishilar sa’y-harakati bilan “Ko‘mak” ka anchagina pul to‘plandi. Bu mablag‘ga esa Xayriniso Majidxon qizi, Abdulvohid Is’hoq, Abdulvohid Murodiy, Solih Muhammad, Azimbek Bayramjon, To‘lagan Mo‘min, Sulton Mamatqul, Ibrohim Ahmadjon, Temirbek Qozibek singari ilmga intilgan yoshlar Germaniyaga jo‘nab ketdilar.

Ha, o‘sha dolg‘ali, qiyin zamonlarda ham yoshlarning Germaniyada o‘qishiga, “Ko‘mak”ka pul to‘planishiga Cho‘lpon, Saidnosirboy, Munavvar qori va Abdulla Qodiriy kabi ma’rifatparvar ajododlarimiz sababchi bo‘lishgan, o‘z hissalarini qo‘sishgan.

Abdulla Qodiriy ijodi, xususan uning bilan bog‘liq tarixiy faktlarni o‘rganadigan bo‘lsak, “O‘tgan kunlar” romani, shuningdek uning yuqorida hajviyasida davr voqealari aks etganini ko‘rish mumkin. Ya’ni, Abdulla Qodiriy asarlarining qahramonlari aynan shu davrdagi shaxslar bo‘lishgan, ularning obrazi esa adib tomonidan mahorat bilan aks ettirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Avaz Muhammad Attor. “Tarixi jahonnomayi”, O‘zFAShI qo‘lyozmalar fondi № 212. 12-v.
2. Avaz Muhammad Attor. “Tarixi jahonnomayi”, O‘zFAShI qo‘lyozmalar fondi № 212. 14-v.
- 3.Xumsonlik, “So‘nggi ko‘makni kimlardan kutishimiz kerak?”, “Turkiston” gazetasi, 1923-yil, 27-yanvar.
- 4.Abdulla Qodiriy. “Ko‘mak” uyushmasiga ionalar”, “Mushtum” jurnali, aprel.

FILOLOGIYA**NAVOIY NIGOHIDAGI IJODKOR**

**Rustam
JABBOROV**

O‘zbekiston Islom sivilizatsiyasi markazi ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori.

UO‘K 575.1

Annotatsiya: Ushbu maqolada Oqqo‘yunli sulolasiga mansub ijodkorning yaratgan asarlari va unga Navoiyning bo‘lgan munosabati tahlil qilinadi.

Аннотация: В данной статье анализируется творчество художника, принадлежащего к династии Аккоюнли, и отношение к нему Навои.

Annotation: This article analyzes the works of the artist belonging to the Aqqoyunli dynasty and Navoi's attitude towards them.

Kalit so‘zlar: Navoiy, Haqiqiy, devon, Qoraqo‘yunlilar, Temuriylar, Husayn Boyqaro, adabiyot, turkiy til.

Ключевые слова: Навои, Хагик, Диван, Каракоюнли, Тимурид, Хусейн Байкара, литература, турецкий язык.

Key words: Navoi, Haqiqi, divan, Karakoyunli, Timurids, Husayn Boykara, literature, Turkic language.

Alisher Navoiy o‘zining bir qator asarlarida bevosita o‘ziga zamondosh bo‘lgan hukmdor va shahzodalar haqida fikr bildirib qolmay, o‘zidan avval yashab o‘tgan yoki boshqa hududlardagi zamondosh hukmdorlar va taxt vorislari xususida ham qimmatli ma’lumotlarni bitib qoldirgan. Bu ma’lumotlar ham tarixiy jihatdan, ham Navoiyning siyosiy va adabiy-badiiy qarashlarini o‘rganish nuqtai nazaridan alohida o‘rin tutadi.

Navoiy o‘z davrida Qoraqo‘yunli va Oqqo‘yunli davlatlarining vakillari haqida ham o‘z qarashlarini bildirib o‘tgan. Xususan, Navoiyning Qoraqo‘yunlilar davlati hukmdori, shoir Jahonshoh Haqiqiy (1397-1467) haqidagi fikrlari ham alohida izlanishlarni talab etadi.

Mashhur G‘arb olimlaridan, Rossiyada tug‘ilib, keyinchalik Angliyaga ko‘chib ketgan taniqli sharqshunos Vladimir Minorskiy (1877-1966) Qoraqo‘yunli sultonlaridan bo‘lgan Jahonshoh Mirzo ijodi haqida yozarkan, uning she’riyati tili janubiy turkman shevalariga yaqin ekani, bu til Ozarboyjon turkchasi deb nomlanishini aytib o‘tadi¹.

Manbalarga ko‘ra, Oqqo‘yunlilar va Qoraqo‘yunlilar urug‘i milodiy VI-VII asrlarda yuzaga kelgan va o‘g‘uz turkmanlari, xususan bugungi Ozarboyjon xalqining shakllanishida katta hissa qo‘shgan. O‘g‘uzzxon naslidan bo‘lgan bu

¹ Minorsky V.. Jihān-Shāh Qara-Qoyunlu and His Poetry (Turkmenica, 9). Bulletin of the School of Oriental and African Studies, University of London. — Published by: Cambridge University Press on behalf of School of Oriental and African Studies, 1954. — V.16, p . 272, 283

ikki qabila o‘rtasidagi qarama-qarshilik uzoq asrlarga borib taqaladi. Amir Temur va Boyazid o‘rtasidagi 1402-yilda bo‘lib o‘tgan jangda ham Qoraqo‘yunlilar Sulton Boyazil Yildirim tomonidan turib jang qilishgan bo‘lsa, Oqqa‘yunlilar Amir Temurni qo‘llab-quvvatlashgan¹.

1408-yil yozida Qoraqo‘yunlilar sardori Qora Yusuf va Amir Temurning o‘g‘li Mironshoh Mirzo o‘rtasida shiddatli jang bo‘lib o‘tadi. Bu jangda Mironshoh Mirzo halok bo‘ladi. Qoraquyunlilar Temuriylar armiyasini Ozarboyjondan surib chiqaradi. Qora Yusuf Ozarboyjondagi yana bir raqib sulola, Mironshohga yaqindan yordam bergen Jaloyirlarga ham qaqshatqich zarba berib, 1410-yilda ularning hukmdori Sulton Ahmadxonni mag‘lubiyatga uchratadi va qatl etadi. Shu tariqa bugungi Ozarboyjon, Gruziya, Armaniston, qisman Eron, Iraq va Turkiya hududlarida Qoraqo‘yunlilar davlati (1410-1467) yuzaga keladi².

Qoraqo‘yunlilar davlati Jahonshoh Mirzo (1436-1467) davrida ancha taraqqiy etadi. Davlatda o‘g‘uz turkchasi (g‘arbiy turkiy til) mavqeい ancha ortadi³. Jahonshoh Mirzo o‘z siyosatida shia ruhoniylariga tayanib, sunniylar jamoasining keskin noroziligiga sababchi bo‘ladi.

Jahonshoh 1458-yilda Bag‘dodni egallash uchun yurish qilgan paytda, o‘g‘li Hasanali, ukasi Pir Budog‘ bilan birgalikda Ozarboyjonda otaga qarshi isyon ko‘taradi va uning yordamida poytaxt Tabrizni qo‘lga kiritadi. Ota-bolalar o‘rtasidagi nizolar uzoq davom etgach, 1463-yilda Jahonshoh Fors viloyatini egallaydi. Pir Budog‘ga Bag‘dod, Mirzo Yusufga Fors, Qosimbekka Kirmon viloyatlarini beradi. Hasanali esa hibsga olinadi va keyinchalik yana ozodlikka chiqadi.

1466-yilda Pir Budog‘ Bag‘dodda yana isyon ko‘targach, Jahonshoh uning o‘rniga hokim etib Muhammad Mirzoni jo‘natadi. Muhammad Mirzo Bag‘dodni egallab, akasini qatl ettiradi. Bu ichki nizolardan ustalik bilan foydalangan Uzun Hasan 1467-yilda Oqqa‘yunlilarga qarshi urush boshlaydi. Shu yilning yoz oylarida ikki hukmdor o‘rtasida mashhur Mush jangi bo‘lib o‘tadi. Bu jang Uzun Hasanning uzil-kesil g‘alabasi bilan yakunlanadi.

Bundan foydalangan Hasanali otasining hokimiyatini tiklashga urinsa-da, muvaffaqiyatga erisha olmaydi. Uzun Hasan qo‘shinlaridan mag‘lubiyatga uchragan Hasanali 1468 -ilda Hamadonda qatl etiladi⁴.

Ma’lumki, Qoraqo‘yunlilar hukmronligi davrida temuriylar bilan ham munosabatlar goh yaxshilanib, goh keskinlashib turgan. Jahonshoh bir necha bor Temuriylar hududlariga ham hujum qilgan. U 1453-yilda Iraq, Fors va Kirmonni o‘z davlati hududiga qo‘shib oladi. 1458-yilda Hirotgacha kirib boradi. Biroq, Temuriy hukmdor Abu Said Mirzo (1451-1469) bilan tuzilgan suh shartnomasiga asosan ortiga qaytib ketadi.

Bobur Mirzo “Boburnoma” asarida amakisi, 900/1494-yilda vafot etgan Sulton Mahmudning ayollaridan biri ayni Qoraqo‘yunlardan ekanini yozadi: “Yana Pashabegim erdi. Qoraqo‘yluq (Qoraqo‘yunli – R.J.) Bahorlu aymog‘i turkman beklaridan Ali Shukrbekning qizi erdi. Jahonshoh Mirzo Boroniylar va

¹ Tarihi Azerbaycan Devletleri, Bakü, Azerbaycan. 2012, s.112

² Иванов М. С. «История Ирана», Издательство МГУ, 1977. Стр. 164

³ Minorsky V. The Qara-qoyunlu and the Qutb-shāhs. Turkmenica, 10. Vol. 17, No. 1 (1955), pp. 50-73

⁴ Qızılbaşlar tarixi. Tərcümə və şərhlər M. Ə. Məhəmmədinindir. Bakı: "Azerbaycan" nəşriyyatı, 1993, səh. 32

Iroqni bu Jahonshoh avlodidan Oqqo‘yluq (Oqqo‘yunli – R.J.) Uzun Hasan olg‘onda Ali Shukrbekning o‘g‘lonlari to‘rt-besh ming o‘yluk qoraqo‘yluq turkmanlar bila Sulton Abusaid mulozamatig‘a kelib erdi. Sulton Abu Said Mirzo shikast topqonda bu viloyatlarg‘a tushtilar...” Xuddi o‘sha fursatda Sulton Mahmud Mirzo Hisorga kelib, Pashabegimga uylanadi¹.

Aytish joizki, qoraqo‘yunlilar va oqqo‘yunlilar hukmronligi davridagi toj-taxt kurashlari, ota-o‘g‘il, aka-ukalar o‘rtasidagi qonli mojarolarning shov-shuvi Temuriylar davlatiga ham yetib kelgan, bu hodisalarni Alisher Navoiy ham hassoslik bilan kuzatgan, ana shunday holatlar Temuriylar xonadonida yuz berishidan xavfda edi. Shu sababli u Husayn Boyqaro va uning o‘g‘li Badiuzzamon Mirzo o‘rtasidagi ixtilofni umri davomida bartaraf etishga intildi. Ota-o‘g‘ilni muntazam murosaga chaqirib keldi.

Alisher Navoiy “Munshaot” asarida Badiuzzamon Mirzoga yo‘llagan maktubida yozadi:



“Ota bila o‘g‘uldin, o‘g‘ul bila ota orasida farqlar bor. Boysung‘ur Mirzo o‘g‘lonlaridin Bobir Mirzodek ermas erdingizkim, ko‘p shafqat ko‘rmamish bo‘lg‘aysiz. Ulug‘bek mirzo farzandlaridin Abdullatif mirzodek yo Jahonshoh Mirzo o‘g‘ullaridin Hasanalidek, tengrilik o‘rtadadur”².

Bu o‘rinda Navoiy Boysunqur Mirzoning o‘g‘li Abulqosim Bobur, Mirzo Ulug‘bekning o‘g‘li Abdullatif, Jahonshoh Mirzoning o‘g‘li Hasanali yoshligidan ota mehridan yiroqda o‘sganiga ishora qiladi, “siz ular singari ota mehridan bebahra o‘smagan edingiz-ku” deya Badiuzzamon Mirzoga tanbeh beradi.

¹ Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. Тошкент. “Юлдузча”. 1989. Б 28.

² Алишер Навоий. Махбуб ул-кулуб, Муншаот, Вакфия. МАТ. 20 жилдлик. – Тошкент: “Фан”, 1998. Т.14. – 303 б.

Afsuski, ushbu tanbehlar, tarixiy ibratlar ota va o‘g‘ilni murosaga keltirmagani, bu beparvolik keyinchalik Temuriylar xonadoniga qimmatga tushganini, qoraqo‘yunli hukmdorlari, ota-bola Jahonshoh va Hasanalining mag‘lubiyati keyinchalik oqqa‘yunlilar uchun yo‘l ochib bergenidek, Husayn Boyqaro va Badiuzzamon o‘rtasida yuz bergen nizolar Chingizzon xonadonidan bo‘lgan Shayboniyxon uchun katta imkoniyat yaratganini yaxshi bilamiz.

Alisher Navoiy har ikki sulola tarixi, ularning o‘zaro munosabatlari, siyosati, adabiy muhitidan xabardor bo‘lgan. “Majolis un-nafois”ning yettinchi masjilisida barcha temuriy podshoh va shahzodalar qatorida shu ikki sulola vakillari nomini ham keltirib o‘tadi. Qoraqo‘yunlilardan Jahonshoh, oqquyunlilardan Sulton Ya’qubni sanab o‘tadi va ularning forsiy she’rlaridan misollar keltiradi.

Jahonshoh turkiy va forsiy tilda she’rlar yozgani ham ma’lum. Uning bir devoni ayni paytgacha yetib kelgan. Navoiy ham “Majolis un-nafois”da Jahonshohning she’riy iqtidori haqida so‘z yuritib, uning bir baytini misol keltiradi.

“Jahonshoh Mirzo – dag‘i she’r aytur edi. Bu maqta’ aningdurkim:

*Az lutfi do‘st yoft Haqiqiy murodi dil,
Be jiddi jahdu toatu be minnati amal¹*”

(Tarjimasi: Haqiqiy do‘stning lutfi tufayli toatdagi jiddu jahd, mehnatning qiyinchilgisiz dilning murodiga yetishdi)

Aftidan, Alisher Navoiy Jahonshoh Mirzoning turkiy tilda ham she’r bitganidan xabari bo‘lmagan. Zotan, “Majolis un-nafois”da boshqa hukmdorlar va shoirlar haqidagi ma’lumotlarni o‘qiganimizda, Navoiy mualliflarning turkiy tildagi ijodiga alohida e’tibor bilan yondoshganini ko‘ramiz. Binobarin, Haqiqiyning turkiy tildagi she’rlaridan xabar topganida, Navoiy o‘z ona tiliga hurmat nuqtai nazaridan ham bu haqda ma’lumot bergen bo‘lar edi.

Ayni paytga qadar Jahonshoh Haqiqiyning turkiy merosi bir qator olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Faxriy Hirotiyning “Ravzatus-salotin” asarida “Jahonshoh Mirzo saroyida ko‘plab olimlar va shoirlar yig‘ilgani, Mirzoning o‘zi ham Haqiqiy taxallusi bilan she’rlar yozganini” aytib o‘tadi². Uning turkiy devoni nusxalari Londondagi “Britaniya” kutubxonasida (or.9493), Yerevendagi Matenadaran qo‘lyozmalar arxivida (№965), Anqara universiteti til va tarix, geoografiya fakulteti kutubxonasi (№1.2221) va boshqa bir qator kutubxonalarda saqlanmoqda. Uning ushbdu devoni bir necha bor Turkiya, Armaniston va Ozarboyjonda chop etilgan.

Jahonshoh Haqiqiy she’rlarida Imodiddin Nasimi ijodi va uslubiga xos an’analari, xususan hurufiylik tariqati an’analari seziladi³:

*Jamoling sham’ina har shab dushar mahtob ravzangdan,
Chun oning oftobindan dushubdur tob ravzangdan,
Muanbar zulfi purchining gelur bodi sabo birla,*

¹ Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. МАТ. 20 жилдлик. – Тошкент: “Фан”, 1997. Т.13. – 284 б

² Фахри Хиравий. Равзатус-салотин. Техрон. 1345. Б. 66.

³ Karakoyunlu Cihânsâh Hakîkî’nin Türkçe Şiirleri. Hazırlayan Prof. Dr. Muhsin Macit. T. C. kültür ve turizm bakanlığı kütüphaneleri ve yayimlar genel müdürlüğü. Ankara. 2012. S. 12.

Ba hulqi dardmandonat solur qullob ravzangdan¹.

Turkiyalik olim Ibrohim Sarining “Oqqo‘yunlilar” kitobida yozilishicha, 1468-yilda Uzun Hasan Qoraqo‘yunlilarning so‘nggi vakili, Jahonshohning o‘g‘li Hasanalini mag‘lub etib, mamlakatni egallagandan keyin adabiy muhitni yanada mustahkamlashga intildi. O‘z poytaxtini Diyorbakrdan Tabrizga ko‘chirtirgach, atrofida ilm va adabiyot ahlini to‘pladi, ularni har jihatdan qo‘llab-quvvatladi².

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. Mahbub ul-qulub, Munshaot, Vaqfiya. Toshkent: “Fan”, 1998. T.14. – 303 b.;
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Toshkent. “Yulduzcha”. 1989. B 28.;
3. Ivanov M. S. «Istoriya Irana», Izdatelstvo MGU, 1977. Str. 164.;
4. Faxri Hiraviy. Ravzatus-salotin. Tehron. 1345. B. 66.;
5. Minorsky V.. Jihān-Shāh Qara-Qoyunlu and His Poetry (Turkmenica, 9). Bulletin of the School of Oriental and African Studies, University of London. — Published by: Cambridge University Press on behalf of School of Oriental and African Studies, 1954. — V.16, p . 272, 283;
6. Minorsky V. The Qara-qoyunlu and the Qutb-shāhs. Turkmenica, 10. Vol. 17, No. 1 (1955), pp. 50-73;
7. Qızılbaşlar tarixi. Tərcümə və şərhlər M. Ə. Məhəmmədinindir. Bakı: "Azərbaycan" nəşriyyatı, 1993, səh. 32;
8. Karakoyunlu Cihānşâh Hakîkî'nin Türkçe Şiirleri. Hazırlayan Prof. Dr. Muhsin Macit. T. C. kültür ve turizm bakanlığı kütüphaneler ve yayimlar genel müdürlüyü. Ankara. 2012. S. 12.;
9. İbrahim Sari. Akkoyunlular. Antalya. E-book. 2016. S.37.

¹ Ўша маңба. Б. 37.

² İbrahim Sari. Akkoyunlular. Antalya. E-book. 2016. S.37.

PEDAGOGIKA

NOTIQLIK SAN'ATINI RIVOJLANTIRISH ASOSLARI

UO'K 821.10



**Yusufboy
BABAJANOV
UrDU magistranti**

Annotatsiya: Bu maqolada o'qituvchilarning nutqi haqida, uning nafisligi to'grisida fikr yuritiladi. Fikrlarning go'zalligi to'grisida o'tmishdagi ajdodlarimiz tomonidan bildirilgan mushohadalari yo'ritilgan.

Аннотация: В данной статье рассматривается речь учителя и ее элегантность. Освещены наблюдения наших предков о красоте мыслей.

Annotation: This article discusses the elegance of teachers' speech. It highlights the observations of our ancestors about the beauty of thoughts.

Kalit so'zlar: Orator, notiqlik, san'at, go'zal, fikrlar, ritorika, nutq, voizlik, mahorat, suhbat odobi, ifoda, va'z, ehtiyo'j, targibot, munozara.

Ключевые слова: искусство, красота, мысли, риторика, речь, мастерство, этика беседы, произношения, потребности, пропаганда, дебаты.

The keywords: eloquence, art, beautiful, thoughts, rhetoric, speech, preaching, skill, conversational etiquette, expression, sermon, need, propaganda, debate, revelation.

“O'qituvchining nutqi noqis, zaif bo'lsa, uning bilimi qanchalik chuqur va tugal bo'lmasin, o'ziga ham, o'quvchiga ham jabr. Ona tilida puxta, lo'nda va shirador nutq tuza olish tajribasi va mahorati matematika o'qituvchisi uchun ham birday zaruriy ehtiyojdir. O'qituvchi ravon va go'zal ifodalarga boy nutqi bilan o'quvchilarini mahliyo etib, bermoqchi bo'lgan bilimini yosh avlod shuuriga osonlikcha singdiradi. Zotan, ona tili milliy ma'naviyatimizning, dunyoni teran idrok etishimizning zaminidir”[\[1\]](#). Notiqlik san'ati juda muhim san'at hisoblanadi.

Notiqlik san'ati o'zi nima? “Ritorika (grekcha rhetorike – notiqlik) – notiqlik san'ati haqidagi fan bo'lib, u auditoriya oldida nutq qilish mahoratini, o'z nutqi yordamida tinglovchilarga samarali ta'sir qilish sirlarini, notiqlik madaniyatini o'rgatadi”[\[2\]](#).

Qadimda so'z aytuvchi notiqni - voiz, uning nutqini va'z deb ataganlar. Voizlik san'ati – jamoat oldida nutq so'zlash, notiqlik san'ati, ilmiy-siyosiy ma'ruza, bahs- munozara, targ'ibot va tashviqotning asosiy vositasi sifatida keng ijtimoiy mavqega ega bo'lgan san'atdir.

XV asrda Hirotda yashagan atoqli alloma Husayn Voiz Koshifiy ham nutq haqida qimmatli fikrlar bildirgan:

«Bilgilki, odamzotning sharafi nutqi bilan va nutq odobiga rioya qilmagan odam bu sharafdan bebahradir. So‘z hamma vaqt savob uchun ishlatilishi, to‘g‘ri va haqqoni bo‘lishi kerak. Agar shunday bo‘lmasa, jim turgan ma’qul», – deydi va suhbat qoidalarini ikkiga ajratadi.

Yoshi ulug‘larning suhbat odobi qoidalari oltita:

1. Har kimning ahvoliga qarab munosib so‘z aytsin;
2. Dag‘allik qilmasdan, lutf va muloyimlik bilan gapirsin;
3. Gapirayotganda tabassum qilib, ochilib gapirsin;
4. Ovozini baland ko‘tarmasin, eshituvchilarga malol kelmaydigan qilib gapirsin;
5. Odamlarga nafi tegadigan ma’noli gaplarni gapirsin;
6. Agar so‘zning qimmati-qadri bo‘lmasa, uni tilga olmasin, chunki ulug‘larning so‘zi bamisol urug‘dir, agar urug‘ puch yoki chirigan bo‘lsa, uni qaerga ekmang, unib chiqmaydi.

Yoshlarning suhbat odobi sakkizta:

1. So‘ramagunlaricha gapirmasin;
2. Gapirayotganda ovozini baland ko‘tarmasin;
3. Gapirayotganda o‘ng-u so‘lga qaramasin;
4. G‘arazli va kinoyali gaplarni gapirmasin;
5. Qattiq gapirmasin va betgachoparlik qilmasin;
6. Pushaymon bo‘lmaslik uchun o‘ylab gapirsin;
7. Odamlar gapini bo‘lib so‘z qotmasin;
8. Ko‘p gapirmasin. Chunki, ko‘p gapirish aqli noqislik belgisidir. Oz bo‘lsa ham, ammo soz gapirishni shior etsin.[\[3\]](#)

Kaykovusning notiq so‘zning ma’nolarini har tomonlama o‘rgangan bo‘lishi kerak, deb hisoblaydi: «Ey farzand, so‘zning yuz va orqa tomonini bilgin, ularga rioya qilgin, so‘zlaganingda ma’noli gapir, bu notiqlikning alomatidir. Agar gapirgan vaqtingda so‘zning qanday ma’noga ega ekanini bilmasang, qushga o‘xshaysan, bunday qushni to‘ti deydilar! Shunday kishini notiq (suxango‘y) deymizki, uning har so‘zi xalqqa tushunarli bo‘lsin va xalqning har so‘zi unga ham ma’lum bo‘lsin. O‘ylamasdan so‘zlama, har bir so‘zni o‘ylab gapir, to aytgan so‘zingdan pushaymon bo‘lmasan. Agar so‘zni va ilmni yaxshi bilsang ham, hech bir so‘zni buzma, to‘g‘ri ta’rifla. So‘zni bir xilda gapir».

Insonga fikrini ifoda etish uchun Alloh tomonidan til berildi. Aqlni esa inson ixtiyoriga qoldirdi. Endi inson bolasi aqlini ishga solib, tili orqali so‘zlar (nutqi)ni ifodalashga kirishdi. Shu bir parcha (go‘sht) til orqali: yaxshilik va

yomonlik; go‘zallik va xunuklik; mehribonlik va yovuzlik; baxt va baxtsizlik; mansab va itoatkorlik; boylik va kambag‘allik; do‘stlik va dushmanlik; visol va ayriliq; obro‘va obro‘sizlik; omad va omadsizlik; ezgulik va johillik; mehnatsevarlik va dangasalik; halimlik va qo‘pollik; havas va hasad; taraqqiyot va zalolat; yarashish va janjal; tinchlik va urush; ruhiy tetiklik va tushkunlik; sog‘lomlik va bemorlik; izzat va sharmandalik; xursandchilik va dilxiralik; madaniyatatlilik va madaniyatsizlik kabi bu foniy dunyoda mavjud bo‘lgan barcha narsaga erishish mumkin. Sezgi organlarimizning ko‘z, qulqoq va burundan tashqari barchasini odam o‘ziga bo‘ysundira oladi, jumladan, tilni ham. Modomiki shunday ekan, biz o‘zimiz aql va farosatimizni ishga solib, loaql tilimizni jilovlay bilishimiz zarur. Shundagina biz so‘zimiz va nutqimizning qanchalik kuch-qudratga ega ekanligini his etib yashaymiz. Notiqlikni o‘rgatuvchi va targ‘ib qiluvchi qadim adabiyotlardan tortib bizning davrimizda yozilgan va yozilayotgan maqola va kitoblarda notiq, notiqlik, nutq odobi, notiqlik san’ati; voiz, voizlik, voizlik san’ati kabi atama va tushunchalarini o‘qiymiz. Og‘zaki nutqda odamlar orasida: so‘z ustasi, so‘zga chechan, so‘zga usta, so‘zamol, so‘zni boplaydi, gapni do‘ndiridi, gapga usta, chiroyli gapiradi; suxandon, tilchi-da, adabiyotchi-da, shoir-da singari iboralarni eshitamiz. To‘g‘ri, hamma ham nutqiy nuqsonsiz tug‘ilsa, albatta gapiradi. Biroq hamma odamlar ham gapga chechan bo‘lavermaydi. Gapga chechanlik, ya’ni notiqlik bu — qobiliyat va iste’dod. Notiqlik bu — san’at. Qachonki, inson Alloh bergen tabiiy qobiliyat bilan cheklanib qolmay, o‘z nutqi va tili ustida erinmay ishlasa, mashq qilsagina chinakam notiqlik mahoratini egallashi mumkin.

Notiqlik bu — so‘z san’ati, so‘z san’ati bo‘lganda ham ohangdan libos kiyib talaffiiz bilan jilolangan so‘z san’atidir. “So‘z” qudratini chuqur anglagan, “so‘z” ne’matining Alloh tomonidan faqatgina insonga in’om etilganligini his etgan buyuk allomalargina uni qadrlaganlar va e’zozlashga undaganlar. Shu ma’noda notiqlik san’ati boshqa san’at turlari orasida alohida mavqega ega ekanligi tan olingan haqiqatdir. Qadimda mohir notiqlargina lashkarboshilik va davlat arboblari lavozimlariga saylab tayinlanganliklari ham bu haqiqatga aniqlik kiritadi. Tarix bizga hamisha saboq bergen, saboq bermoqda va bundan keyin ham saboq beradi. Biz bugun shu sohada tarixdan saboq olyapmizmi? — degan savol turibdi qarshimizda. Yo‘q, deyish ham joiz emas, harakat qilyapmiz. Bugungi kunda ko‘pgina idora rahbarlari nutqidagi kamchiliklar, muallimlar nutqidagi chaynalishlar, teleko‘rsatuvlardagi, hatto jurnalistlar nutqidagi g‘alizliklar bizning ma’naviyatimizga yarashmaydi. Nima qilishimiz zarur? Avvalo, maktabda fikrimiz va tafakkurimizning asosi bo‘lmish notiqlik san’ati sirlarini o‘rgatishimiz va o‘rganishimiz juda muhim. Til va tafakkur bir-biriga chambarchas bog‘liq bo‘lgani holda, notiqlik san’atini bilmasdan haqiqiy ijodiy

tafakkur, go‘zal va chiroyli nutq so‘zlashimiz amrimahol. So‘zlayotgan nutqimizni maromiga yetkazib o‘z ona tilimizda ifodalashimiz uchun notiqlik san’ati qoidalaridan xabardor bo‘lishimiz kerak. Hozirgi ayrim o‘quvchi va talaba yoshlarimiz nutqida uchraydigan nuqson, fikrlashdagi oqsoqlik, fikrini bayon etishda qolipdan chiqolmaslik, tafakkuridagi to‘mtoqlik, ortiqcha kirish so‘zlarni (anaqa, haligi, nima edi?, nima desam ekan? kabi) ishlatish kabi qusurlarning kelib chiqishi teran notiqlik malakalarining zaifligi bilan bog‘liqligi ma’lum. Maktabdan tortib, akademik litsey va kollej hamda institut va universitetlar, malaka oshirish institatlari o‘quv rejalariga notiqlik san’ati darsini kiritish, bu darsning o‘quv yurtlarining o‘ziga xos xususiyatlariga qarab uning dasturi va darsligini yaratish juda dolzarb. Chunki Vazirlar Mahkamasining “Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarini tashkil etish va ularning faoliyatini boshqarish to‘g‘risida”gi qarorida bir qancha muhim masalalar bilan bir qatorda Davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish, yangi darslik va o‘quv qo‘llanmalarini yaratish vazifasi ham qo‘yilgan. Milliy dasturda belgilangan vazifalarni jadal amalga oshirish mustaqil mamlakatimizning buyuk kelajak sari yuksalishini ta-minlaydigan omillardan ekanligi muhim.

Ma’lumki, jamiyat taraqqiyotining, millat ma’naviy kamolotining muhim jihatlari notiqlik san’atiga ham borib taqaladi. Shu bois ham mamlakatimizda madaniy-ma’rifiy islohotlarning davlat siyosati darajasiga o‘sib chiqishi, farzandlarimizning notiqlik malakalarini oshirish, nutqiy madaniyati masalalariga e’tibomi qaratish har qachongidan ham dolzarblik kasb etmoqda. “Davlat tili haqida”gi, “Ta’lim to fg‘risida”gi qonunlar, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va boshqa ko‘pgina hujjatlarda ma’naviy-ma’rifiy tarbiyaga, til masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Fikrimizni o‘z ona tilimizda mustaqil, ravon, go‘zal va lo‘nda ifodalash uchun bizda nutqiy madaniyat, notiqlik yetarli darajada shakllanmog‘i kerak. Umuman, yosh avlodda notiqlik qobiliyatini shakllantirish va izchil kamol toptirish, bu yo‘lda samarali usullarni izlab topish va ta’limga yo‘naltirish olimlarimiz va o‘qituvchilarimizning eng muhim vazifalaridan biridir. “Jozibali, teran so‘z va gaplarning jonli nutq orqali ifodalanishi notiqlik san’atining predmeti sanaladi. Har bir nutq egasining nutqini kuzatish va tekshirish, undagi yutuq va nuqsonlarni aniqlash, har bir ijodkor, shoir yohud yozuvchining asarlaridagi badiiy notiqlik mahoratini kuzatish, shu yozuvchi yoki shoirning og‘zaki, ommabop nutqidagi notiqqa xos yutuqlarni ko‘ra bilish mazkur fanning predmet obyekti sanaladi. Notiqlik san’atining turlari ko‘p. Jumladan, ijtimoiy-siyosiy notiqlik (asosan davlat va jamiyat ahamiyatiga ega bo‘lgan yig‘inlarda so‘zlanadigan ma’ruza), akademik nutq (ilmiy yo‘nalishdagi ma’ruzalar,

auditoriya notiqligi, talaba va o ‘quvchilar uchun o‘qiladigan ma’ruzalar), ijtimoiy-maishiy nutq (turli tadbirlarda so‘zlanadigan nutq) kabilarning nutqiy kamchiliklarini va yutuqlarini (ham og‘zaki, ham yozma shaklini) tekshirish jarayoni ham notiqlik san’ati predmeti doirasiga kiradi. Notiqlik san’atining tekshirish obyekti notiq nutqidagi gap qurilmalari, u nutqida ishlatgan so‘zning qudrati, jozibasi, go‘zal ifodasi va maftunkorlik xislatlarini aniqlashga qaratilgan bo‘lishi lozim. Notiqlik san’ati amaliy jihatdan chiroyli nutq tuzishning qonuniyatlari, sirlari, til normalari, nutqning sifatlari, nutqiy uslubning nozik tomonlarini his etish va notiq nutqida uchrashi mumkin bo‘lgan nuqsonlar va talaffuzga doir muammolarni hal etish yuzasidan bahs yuritadi. Eng muhimi, o ‘z bilimi va dunyoqarashiga suyangan holda to‘g‘ri va chiroyli so‘zlash yo‘llarini o‘rgatadi. Notiqlik san’atining og‘zaki va yozma shakllari mavjud bo‘lib, har bir notiqning nutqi o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bu holat esa notiqning o‘ziga xos uslubi bilan o‘lchanadi. Notiqlik san’atining asosiy vazifasi notiq bo‘lishga undovchi qonuniyatlarni o‘rgatishdan iborat. Biroq hamma ham notiq bo‘lavermaydi. Buning uchun bo‘lajak notiqda qobiliyat va iste’dod bo‘lishi kerak. Chunki u — san’at. Shuning uchun ham ba’zi notiqlar materialni chuqr bilgani holda o‘z fikrini erkin yetkazib berolmasligi, natijada tinglovchilar uni tushunmasligi mumkin. Mohir notiqlar nutqini esa tinglovchilar yaxshi tushunadi. U voqeа-hodisa haqida aniq-ravshan va jonli ma’lumot berishi orqali tinglovchi ongiga ta’sir etishi, ularni goh kuldirishi, goh yig‘latishi va xayolot olamini zabt etishi mumkin. Notiqlik san’atining maqsad va vazifalaridan asosiyлари ham ana shunday no‘noq notiqlar kamchiliklarini aniqlash va mohir notiqlar yutuqlarini kuzatish va yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Deyl Karnegi. O‘z-o‘ziga ishonch hosil qilish va omma oldida so‘zlash san’ati. Toshkent, 2013.
2. N.G‘oyibov, D.Yusubov. Notiqlik san’ati. Toshkent, 2012.
3. Sitseron. Notiqlik san’ati. Toshkent, 2018.
4. Ilhom Qahharov. Notiqlik san’ati. Toshkent, 2015.

PEDAGOGIKA**INKLYUZIV TA'LIM BORASIDAGI ISLOHOTLARNING
AHAMIYATI**

**Adolat
MASHARIPOVA**

UrDU magistranti

UO'K 821.10

***Annotatsiya:** Bu maqolada o'quvchilarda huquqiy ongni shakllantirishni organish tarixi yoritilgan. Shuningdek, davlatimiz tomonidan qabul qilinayotgan qonun-qoidalarning yosh avlodni tarbiyalashdagi roli ochib berilgan.*

***Аннотация:** В данной статье рассматривается история формирования правового сознания у студентов, а также раскрывается роль законов, принятых нашим государством в воспитании молодого поколения..*

***Annotation:** This article covers the history of studying the formation of legal awareness in students. It also reveals the role of the laws and regulations adopted by our state in educating the younger generation.*

***Kalit so'zlar:** Odob, ahloq, qonun, qoida, mustaqillik, jamiyat, huquq, ong, konstitutsiya, fuqaro, tadqiqot, go'zal, fikrlar, ritorika, mahorat, suhabat odobi, ifoda, targibot, munozara.*

***Ключевые слова:** мораль, закон, право, самостоятельность, общество, права, сознание, конституция, гражданин, исследование, красота, мысли, риторика, мастерство, беседа, этика, произношение, пропаганда, дебаты.*

***The keywords:** morality, ethics, law, rule, independence, society, law, consciousness, constitution, citizen, research, beautiful, thoughts, rhetoric, skill, conversation etiquette, expression, propaganda, discussion.*

Mamlakatimizda mustaqillikka erishganimizdan song aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga katta e'tibor berib kelinmoqda. Jumladan, 1997-yil 29-avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi" qabul qilingan edi. Unda aholi huquqiy madaniyat darajasining oshirilishi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimyati xodimlarining bilimdonligiga kop

jihatdan bogliqligi, huquqiy madaniyatning ilmiy asoslarini tadqiq etishni ragbatlantirish, ijtimoiy - huquqiy tadqiqotlarni tashkil etish[6] norm.uz va boshqa masalalar oz aksini topgan. Biroq bugungi kunga kelib zamon ozgarishi, fuqarolarning fikr yuritish darajasi ozgarganligi sababli ushbu milliy dasturni yangilash vazifasi qoyilmoqda. Bundan tashqari 2017 -yil 7- fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategyasi to'g'risida"gi Prezident farmoni, 2017-yil 7- sentabrda qabul qilingan "Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to'g'risida"gi qonun, 2018-yil 13- apreldagi "Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora -tadbirlari to'g'risida"gi Prezident farmoni, 2019- yil 9- yanvardag " Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi Prezident farmoni va boshqa me'yoriy - huquqiy hujjatlarning qabul qilinganligini ko'rish mumkin.[7]

Aholining qonunlarga huquqiy jarayonlarga ishtirokini va ularning xabardorlik darajasini aniqlash uchun alohida jamoatchilik fikri so'rovlar ham o'tkazilib turiladi. Misol tariqasida 2017-yilda "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik fikrini o'rganish Markazi tomonidan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25 yilligi " mavzusida jamoatchilik fikri so'rovi o'tkazilgan edi. O'tkazilgan so'rov ma'lumotlariga kora, fuqarolarning mutlaq ko'pchiligi, ya'ni 90,5 foizi O'zbekiston Konstitutsiyasini "mamalakatdagi huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi bosh hujjat", deb hisoblaydi, unda suveren davlat va adolatli jamiyatni shakllantirishning fundamental asoslari, inson huquqlarini himoya qilish va mustahkamlashga, demokratiya va ijtimoiyadolat ideallariga, fuqarolar osudaligi va millatlararo totuvlikni ta'minlashga sodiqlik mustahkamlab qo'yilgan. Mutlaq ko'pchilik fuqarolarning - 86,3 foizining fikricha , asosiy qonun nafaqat davrning zamонавиy talablariga javob beradi, balki istiqbolga mo'ljallangandir deya fikr bildirishgan. Mazkur so'rovda aholining o'z fuqarolik huquqlari to'g'risida xabardorlik darajasi aniqlandi. "Siz o'z fuqarolik huquqlaringizni bilasizmi?", degan savolga fuqarolarning mutlaq ko'pchiligi - 92,6 foizi tasdiqlovchi ovoz berdi.[8] Xuddi shunday ijtimoiy so'rovlar tez-tez o'tkazilib turilishi aholining fikrini o'rganish va ularda mavjud bo'lgan kamchiliklarni bartaraf etishga katta yordam beradi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Parlamentimiz haqiqiy demokratiya maktabiga aylanishi, islohotlarning tashabbuskori va asosiy ijrochisi bo'lishi kerak" nomli ma'ruzasida siyosiy partiyalar, ularning parlamentdagi fraksiyalari va deputatlarning faoliyatini tanqidiy tahlil qilib, quyidagi fikrlarni bayon etdi: "Deputatlarning ish uslubini takomillashtirish, aholining huquqiy madaniyatini oshirish maqsadida siyosiy partiyalar orqali: "Markaz - viloyat - tuman" tartibida ishlaydigan yangi tizimni joriy etish ayni muddao bo'lar edi"[9], - degan fikrni bildirganlar, chunki barcha qonunlarning yaratilishi, ishlab chiqilishi deputatlar tomonidan amalga oshiriladi. Ular xalqning orasida bo'lib barcha taklif va tavsiyalar, kamchiliklarni o'rganib chiqib xalq manfaatlaridan, xalq ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda qonunlarni yaratishlari shart va zarur. Bekorga "Markaz-viloyat-tuman" tartibida ishlaydigan tizim deb aytmaganlar, har qanday

siyosatda bo‘ladigan o‘zgarish va qo‘srimchalar markazdan viloyatga undan tuman va boshqa chekka hududlarga gacha yetib borishi xalq xabardor bo‘lishi va o‘z fikr -mulohazalarini yetkazishi kerak ekanligini hisobga olib bunday tizim yartish kerakligini aytib o‘tganlar. Mamlakatimizda ijroga yo‘naltirilgan har bir qonun, amaldagi huquqiy hujjatlarga kiritilayotgan o‘zgartish va qo‘srimchalardan aholini izchil hamda keng xabardor qilishda jamoatchilik ishtiroki va faolligi muhim. Kommunikatsiya texnologiyalari, davlat organlari bilan ijtimoiy sherikchilik imkoniyatlaridan samarali foydalanish lozim.[10]

2019-yilda aholining huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yaxshilash maqsadida “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonda: jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish uchun qonun ustuvorligini ta’minalash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisobanadi, [11] deya ta’kidlab o‘tilgangan.

Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish sohasida muvofiqlashtiruvchi davlat organi bo‘lib hisoblanadi. Hozirda farmonga asosan shaxsan Adliya vazirligi boshchiligidagi Advice.uz huquqiy axborot tizimi faoliyat ko‘rsatmoqda, xususan mamalakatimiz ko‘plab fuqarolari ushbu tizimdan bir necha bor foydalanib savollariga yetarlicha javob olishmoqda. Bundan tashqari huquqiy targ‘ibot-tashviqot olib borish ishlari ham bir munkha yaxshilangan. Mahallalarda, joylarda malakali huquqshunoslar tomonidan tushuntirish ishlari olib borilmoqda. Qonun ijodkorligi faoliyatiga aholining keng qatlamenti jaib etish maqsadida “Telegram” messendjeridagi Huuqiy axborot kanalida maxsus “Qonunchilikka taklif” boti ishga tushirilgan. Mazkur bot orqali fuqarolardan minglab takliflar kelib tushadi va ko‘rib chiqilib inobatga olinadi. Ushbu loyiha Prezidentimizning qonunlarning bevositai jodkori xalq bo‘lishi kerak”[12],-degan so‘zlarining amalda tadbiq etilishining korinishidir. Huquqiy targ‘ibot -tashviqot sohsini yaxshilashga munosib hissa qo‘shgan davlat organlari va tashkilotlar xodimlariga aholining huquqiy savodxonligini oshirishda ko‘rsatgan xizmatlari uchun “Huuqiy targibot ishlari a’lochisi” ko‘krak nishoni ta’sis etildi. Yana huquqiy mavzularni tizimli va tahliliy yoritib berish hamda aholini qonunga hurmat ruhida tarbiyalashga doir teleko‘rsatuylar ko‘lami kengaytirilmoqda. O‘zbekistonda demokratik huquqiy davlatni shakllantirish jamiyat, mansabdor shaxslar, va fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirishni talab qiladi. Shuning uchun huquqiy davlatning muhim belgisi - huuqiy madaniyatdir. Bugungi kunda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Mamlakatimizning rivojlanishi va islohotlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan aholining huquqiy ongi hamda huquqiy madaniyati darajasiga bog‘liqdir. Shaxsning siyosiy - huquqiy faolligi, uning chinakam fuqaroviylar munosabati, demokratik islohotlarga nisbatan daxldorlik hissi davlatimiz o‘z oldiga qo‘yan buyuk maqsadlarga erishishning muhim omilidir. Harakatlar strategyasida “aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini yuksaltirish, bu borada davlat tuzilmalarining fuqarolik jamiyatini

institutlari, ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro samarali hukmronligini tashkil etish samarali va ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Huquqiy madaniyat saviyasi qabul qilingan qonunlar soni bilan emas, balki ushbu qonunlarning barcha darajalarda ijro etilishi bilan belgilanadi. Ushbu muhim ishda fuqarolarning qpnunlarga va normativ -huquqiy hujjatlarga nisbatan chuqr hurmat hissini tarbiyalash alohida ahamiyatga egadir. Bunda g‘oyat muhim jihat - jamoatchilikka davlat hokimyati va boshqaruv idoralari faoliyati haqida ma’lumot berish, davlat hokimyati organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlardan, birinchi navbatda, inson huquq va erkinliklari, fuqarolarning qonuniy manfaatlariga doir qarorlardan aholini keng xabardor qilib borish mexanizmlarini yanada takomillashtirish bilan bog‘liq.[13]

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 27 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi ma’ruzasida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyati masalasiga ham alohida to‘xtalib o‘tdilar,- “Biz qanchalik mukammal qonunlar yaratmaylik, qanday islohotlar o‘tkazmaylik agar fuqarolarimizning huquqiy bilimi, ongi va madaniyati yetarli bo‘lmasa kutilgan natijalarga erishish mushkul bo‘ladi. Huquqshunos olimlarning bundan bir necha asr avval “Huquqni anglash mas’uliyat hissini rivojlantiradi”, deb aytgan hikmatli so‘zlari hech qachon o‘z dolzarbligini yo‘qotmaydi. Boshqacha aytganda Konstitutsiya va qonunlarga hurmat, huquqiy ong va huquqiy madaniyat har bir fuqaroning, har bir mansabdor shaxsning hayot va faoliyat tarziga aylanmog‘i kerak. Biz huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasidagi ishlarimizni uzliksiz davom ettirishimiz zarur. Huquqiy tarbiyani maktabgacha ta’lim tizimidan boshlashimiz, bu boradagi ilk ko‘nikmalar ona allasi kabi farzandlarimiz qalbidan umrbod joy olishi darkor. Konstitutsiyamiz har bir fuqaroning ongi va qalbidan chuqr joy olgan, ularning huquq va erkinliklarini to‘ liq kafolatlaydigan haqiqiy hayot qomusiga aylanmog‘i lozim. Har bir soha va yo‘nalish, ta’limning barcha bosqichlari uchun huquqiy madaniyatni yuksaltirishning ilmiy asoslangan dasturi tayyorlanishi kerak. Bunda, avvalambor, Konstitutsiyani o‘rganishga jiddiy yondashish lozim. Umumta’lim maktablari uchun “Konstitutsiya alifbosii”, “Konstitutsiya saboqlari”, “ Konstitutsiya asoslari” kabi darsliklarni yaratish zarur deb hisoblayman. Ushbu fanlardan dars beradigan o‘qituvchilarni tayyorlashda ularning siyosiy, huquqiy va ma’naviy saviyasiga alohida ahamiyat berish lozim. Shuningdek, hayotdagи adolat tantanasi, qonuniy haq-huquqlar tiklangani haqida qiziqarli ko‘rsatuvalar, seriallar, badiiy filmlar, teatr asarlari yaratish ham katta tarbiyaviy ahamiyatga ega”, deya ta’kidlab o‘tganlar[14]. Va yana “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari To‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasi qarorida ham yoshlarda vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr - oqibatlilik, mas’uliyatlilik, bag‘rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni bolalikdan boshlab bosqichma - bosqich shakllantirish zarurligi aytib o‘tilgan.[15]

O‘zbekiston bozor iqtisodiyotiga o‘tish uchun keng ko‘lamli demokratik islohotlarni amalga oshirmoqda. Bu esa, fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy

madaniyatini rivojlantirishni nazarda tutadi. Jamiyatda kishilar qanchalik yuqori huquqiy madaniyatli bo'lsa, huquq normalarini bilsa, qonunlarni, yurdik adabiyotlarni o'qib ularga amal qilsa huquq buzulishi ham shunchalik kam bo'ladi. Aholining barcha qatlamlari huquqiy savodxonlikka erishishi, mustahkam irodali, o'z huquqini biladigan va qonunlarni hurmat qiladigan, huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo'llay oladigan, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan va huquqbazarlikka nisbatan murosasiz munosabatda bo'ladigan fuqarolarni tarbiyalashning keng qamrovli muntazam tizimi yaratilmoqda. Tarbiya avvalo, oila ostonasidan boshlanadi, shunday ekan har-bir ota-onaga katta mas'uliyat yuklatilgan. "Qush uyasida ko'rganini qiladi ", - degan naql bekorga aytilmagan. Oila a'zolari kundalik hayotida qonunlarga, belgilangan normalarga qanday amal qilsa, yosh avlod shunday holatni ko'rib va unga moslashib boradi. Kundalik siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy hayotda bo'ladigan yangiliklarni ko'rib borish, saylovlarga to'liq tarzda qatnashish, mahalla yig'inlarida doimiy ishtirok etish shular jumlasidandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qaqbul qilinganligining 27 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi. www.Zarnews.uz.

2. Aholining huquq va erkiliklarini himoya qilish, jamiyatda huquqiy ong va madaniyatni yanada yuksaltirishning huquqiy asoslari. E.Qodirov //Aholining huquq va erkinliklarini himoya qilish, huquqiy ongni oshirish, jamiyatda inson huquqlari madaniyatini shakllantirish hamda rivojlantirishda nodavlat notijorat tashkilotlarining o'rni va roli mavzusida tashkil etilgan davra suhbat materiallari.

- T.:Toshkent tezkor bosmaxonasi, 2015, 20-b

3. Abukarimova G.N. Huquqiy ta'lim huquqiy madaniyatni shakllantirish vositasi sifatida // NamDU ilmiy axborotnomasi, 2020. №2.

4. Diyorova Sh. "Pedagogika oily o'quv yurtlari talabalarining huquqiy madaniyatini rivojlantirish omillari tog'risida" // Pedagogika,2019, №2 134-b.

5. Дмитриев.ЮА.Правосознание и правовая культура / Теория государства и права.Под.ред.Пиголкина. - Москва:Юрайт - Издат, 2006.- С. 547

6. Inomjonova. G. "Nikoh shartnomasi-oila mustahkamligining huquqiy kafolati " ilmiy-amaliy qo'llanma, -T.: Intellekt Ekspert, 2015, 10-b

7. Islomov.Z.M.Davlat va huquq nazariyasi.-T.: Adolat, 2007.-537-b

8. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 29.08.1997-yil 466-I son qarori bilan tasdiqlangan.Nrm.uz

9. "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik fikrini o'rganish Markazi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25 yilligi" mavzusida jamoatchilik fikri so'rovi. Kun.uz 24.11.2017

10. Odilqoriyev X.T Davlat va huquq nazariyasi (darslik). - T.: "Adolat", 2018, 287-b

11. Zakirova Sevara. “Xotin-qizlarning huquqiy madaniyatini oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlarining o‘rnii va roli”. // Fuqarolik jamiyati. 2017, №4, 49-b

12. PF-5618. lex.uz

13. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o‘n to‘rtinchchi yalpi majlisida Adliya vaziri Ruslan Davletovning huquqiy targ‘ibot va ma’rifatni yuksaltirish borasidagi axborotidan // Inson va Qonun, 2018 3-aprel, № 13

14. 2017-2021- yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yilida amalga oshirishga oid davlat dasturini o‘rganish bo‘yicha ilmiy -uslubiy risola. - T.: Ma’naviyat, 2017, 143-b

15. “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasi qarori 1059-sон, 2019-yil 31-dekabr.nrm.uz

16. Mamatov X” Huquqiy ong, huquqiy madaniyat davlat va jamiyat taraqqiyotini belgilaydi” uza.uz.

17. Ниязова Н.Н. Узбекистонда фукаролик жамиятининг шаклланиши шароитида хукукий маданиятнинг шаклланиши [Формирование правовой культуры в условиях становления гражданского общества в Узбекистане]. Козон: Мир, 2019.

18. Rahmonov.A “Yuksak huquqiy madaniyat- demokratik jamiyat poydevori”. // Huquqshunos, 2019, №1. 8-9-b

19. Рустамбеков И.И. Хуқуқ ва давлат умумий назарияси муаммолари [Проблемы общей теории права и государства]// МГУ. Хуқуқшунослик. - М.: НОРМА, 2019.

20. Tajixanov U., A.Saidov. Huquqiy madaniyat nazariyasi 1-tom.- Toshkent. 1998, 11-b

21. Топилдиев Б., Смоленский Б. Хукукий давлатда адвокатлар ва фукароларнинг хукукий маданиятини шакллантириш [Юристы и формирование правовой культуры граждан в правовом государстве] // Ички ишлар органлари ва ички қўшинларда тарбиявий ишнинг услубий муаммолари. Санкт-Петербург: 2021.

22. Huquqiy yetuklik - barkamollikka eltadi“ Ozbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.-T.: Adolat 2011, 7-b

PEDAGOGIKA

BO'LG'USI PEDAGOGLARDA TADBIRKORLIK KO'NIKMALARI VA MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH

UO'K 821.10



**Komila
KENJAYEVA**

UrDPI magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lg'usi pedagooglarda tadbirkorlik ko'nikmalari va malakalarini shakllantirish mavzusi tahlil qilinadi.

Аннотация: В данной статье анализируется тема формирования предпринимательских навыков и квалификации будущих педагогов.

Annotation: This article analyzes the topic of developing entrepreneurial skills and competencies in future educators.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik ko'nikmalari, Montessori usuli, o'qituvchilar tayyorlash, pedagogika, shaxsni rivojlantirish, innovatsiya.

Ключевые слова: предпринимательские навыки, метод Монтессори, подготовка учителей, педагогика, развитие личности, инновации.

The keywords: entrepreneurial skills, Montessori method, teacher training, pedagogy, personality development, innovation.

Zamonaviy ta'lif tizimlarining murakkablashib borishi o'qituvchilardan nafaqat an'anaviy pedagogik bilimlarni, balki tadbirkorlik ko'nikmalarini ham egallashni talab qiladi. Ushbu kompetensiyalar o'qituvchilarga o'quv jarayonida yuzaga keladigan turli muammolarni hal qilish, innovatsiyalarni joriy etish va tez o'zgaruvchan ta'lif muhiti bilan moslashish imkoniyatini beradi.

UNESCO (2018) ta'rifiga ko'ra, tadbirkorlik ko'nikmalariga ijodkorlik, chidamlilik, yetakchilik va imkoniyatlarni aniqlash hamda ulardan foydalanish qobiliyatları kiradi. Ushbu ko'nikmalar nafaqat o'quvchilar, balki o'qituvchilar uchun ham muhimdir, chunki ular o'rnak ko'rsatuvchi va o'quv jarayonining yo'lboshchisi sifatida ishtirok etadilar.

Maria Montessori tomonidan ishlab chiqilgan Montessori metodikasi ushbu ko'nikmalarini shakllantirish uchun pedagogik asosni ta'minlaydi. Uning o'quvchi mustaqilligi, tajribaviy o'qitish va tanqidiy fikrlashga bo'lgan e'tibori tadbirkorlik ta'liming maqsadlariga mos keladi. Kalandarov (1992) ta'kidlaganidek, innovatsion o'qitish strategiyalari o'quvchilarning intellektual va amaliy qobiliyatlarini sezilarli darajada rivojlantiradi hamda ularni real hayotdagi muammolarga tayyorlaydi.

Ushbu tadqiqot quyidagilarni maqsad qilgan:

1. Montessori metodikasining kelajakdagi o‘qituvchilarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi potensialini nazariy tahlil qilish.
2. Montessori tamoyillarini o‘qituvchi tayyorlash dasturlariga integratsiya qilish uchun model yaratish.
3. Ushbu modelning samaradorligini amaliy qo‘llash va tahlil qilish orqali baholash.

Bu mavzuga oid metodlar quydagilardan iborat:

1. Adabiyotlarni tahlil qilish

Montessori pedagogikasi va tadbirkorlik ta’limi bo‘yicha ilmiy ishlar chuqur o‘rganildi. Bunga Kalandarovning (1992) intellektual ko‘nikmalarni rivojlantirish bo‘yicha tadqiqoti hamda ta’limdagi tadbirkorlik kompetensiyalari haqidagi zamonaviy izlanishlar kirdi.

2. Kontseptual model ishlab chiqish

Adabiyotlar asosida Montessori tamoyillarini tadbirkorlik ta’limi maqsadlariga moslashtirish uchun kontseptual model ishlab chiqildi. Modelning asosiy elementlari:

Tajribaviy ta’lim: muammoni hal qilish va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun amaliy mashg‘ulotlarga e’tibor qaratish.

Mustaqillik: o‘z-o‘zini boshqaruvchi o‘qishni qo‘llab-quvvatlash.

Refleksiya: tanqidiy fikrlash va o‘z-o‘zini anglashni rivojlantirish uchun refleksiv amaliyotlarni qo‘sish.

3. Amaliyotga tatbiq qilish va ma'lumot yig‘ish

Ushbu model uchta universitetda o‘qituvchi tayyorlash dasturlarida joriy qilindi. Ma'lumotlar quyidagilar orqali yig‘ildi:

So‘rovnomalar: ishtirokchilarning tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish haqidagi fikrlari.

Suhbatlar: o‘qituvchi-talabalar va pedagoglardan sifatli ma'lumotlarni yig‘ish.

Natijalarni baholash: o‘qituvchilarning tadbirkorlik ko‘nikmalarini amaliy mashg‘ulotlarda qo‘llashini baholash.

4. Ma'lumotlarni tahlil qilish

Mazmuniy tahlil va statistik usullar yordamida sifatli va miqdoriy ma'lumotlar tahlil qilindi.

Montessori tamoyillariga asoslangan tadbirkorlik ta’limi modeli quyidagi sohalarda sezilarli natijalarga erishdi:

1. Ijodkorlik va innovatsiyalar

Ishtirokchilar dars rejulashtirish va muammoni hal qilish mashg‘ulotlarida ijodiy yondashuvni namoyon qildilar. Masalan, talabalar texnologiya va ijtimoiy masalalarni integratsiya qiluvchi loyihalar ishlab chiqdilar.

2. Yetakchilik ko‘nikmalari

Ishtirokchilar sinfda munozaralarni boshqarish va guruh ishlarini tashkil etishda katta ishonchni ko‘rsatdilar.

3. Moslashuvchanlik

Ishtirokchilar turli pedagogik vaziyatlarga samarali moslashdilar.

4. Qaror qabul qilish va tanqidiy fikrlash

Talabalar mustaqil ravishda darsdagi muammolarni hal qilishda yaxshilangan qaror qabul qilish ko‘nikmalarini namoyon qildilar.

Statistik tahlil natijalariga ko‘ra, tadqiqotdan so‘ng ishtirokchilarning tadbirkorlik ko‘nikmalari 25% ga oshdi.

Ushbu tadqiqot Montessori metodikasining kelajakdagi o‘qituvchilarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi imkoniyatlarini ko‘rsatadi. Montessori tamoyillarini o‘qituvchi tayyorlash dasturlariga integratsiya qilish orqali o‘qituvchilar zamonaviy ta’lim muhitida zarur bo‘lgan kompetensiyalarni rivojlantirishi mumkin.

Taklif etilgan model ijodkorlik, moslashuvchanlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi amaliy asosni taqdim etadi. Keyingi tadqiqotlarda ushbu modelni yanada takomillashtirish va uning uzoq muddatli natijalarini o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ходжаниязов, С.У. «Хоразм мутафаккирларининг тасаввуфий дунйокараши асосида йошлар маънавий-ахлоқий тарбиясини такомиллаштириш» на соискание ученой степени доктора педагогических наук (д.п.н.) по специальности 13.00.01 - «Педагогическая теория, история педагогического учения» на заседании д.ф.-м.н.03/30.04.2021.пед.82.01 Ученого совета Чирчикского государственного педагогического университета состоялось 30 августа 2022.

2. Каландаров, С.И.. Формирование интеллектуальных умений и навыков у школьников 7–9 классов на занятиях по гуманитарным дисциплинам (русский язык и литература в узбекской школе): автореферат дис. Кандидата педагогических наук. Москва.

3. Lillard, A. S. (2005). Montessori: The Science Behind the Genius. Oxford University Press.

4. Duckworth, A. L. Et al. (2017). Grit: The Power of Passion and Perseverance. Scribner.

5. UNESCO (2018). Entrepreneurial Education: A Guide for Policy Makers. Paris: UNESCO Publishing.

6. Seldin, T., & Epstein, P. (2006). The Montessori Way: An Education for Life. The Montessori Foundation.

PEDAGOGIKA

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING AXBOROT KOMPETENSIYASI DIAGNOSTIKASI.



**Gulruk
RAJABOVA**

**Urganch innovatsion
universiteti o‘qituvchisi**

UO‘K 821.10

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogik diagnostikaning mazmun- mohiyati hamda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining axborot kompetensiyasi diagnostikasi haqida ma’lumot keltirilgan.

Аннотация: В данной статье представлена информация о содержании педагогической диагностики и диагностики информационной компетентности будущих учителей начальных классов.

Annotation: This article provides information about the essence of pedagogical diagnostics and the diagnostics of information competence of future primary school teachers.

Kalit so‘zlar: axborot, pedagogik diagnostika, axborot kompetensiya, raqamli texologiyalar, diagnostik faoliyat, diagnostikaning prinsiplari.

Ключевые слова: информация, педагогическая диагностика, информационная компетентность, цифровые технологии, диагностическая деятельность, принципы диагностики.

The keywords: information, pedagogical diagnostics, information competence, digital technologies, diagnostic activities, principles of diagnostics.

Bugungi kunda ta’lim tizimidagi jadal o‘zgarishlar, raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi axborotga asoslangan jamiyatning shakllanishiga olib kelmoqda. Bu jarayonda o‘qituvchilarning axborot kompetensiyasi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki zamonaviy o‘quvchilarga nafaqat bilim berish, balki ularni axborot izlash, tahlil qilish va axborotdan unumli foydalanishga o‘rgatish ham muhim vazifa hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilar bilan ishlaydigan pedagoglar bu jarayonning poydevorini yaratadilar. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining axborot kompetensiyasi nafaqat ularning shaxsiy bilim va ko‘nikmalariga, balki o‘quvchilarning kelajakda axborotni to‘g‘ri va samarali boshqarish qobiliyatiga ham ta’sir qiladi. Shu bois bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Ushbu tadqiqot bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining axborot kompetensiya darajasini aniqlash va rivojlantirish uchun samarali

diagnostika vositalarini ishlab chiqish, shuningdek, ularning kasbiy tayyorgarlik jarayonida o‘zaro bog‘liqligini o‘rganishga qaratilgan. To‘g‘ridan to‘g‘ri bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining axborot kompetensiya rivojlanish diagnostikasi haqida gapirishdan oldin, pedagogik diagnostikaning mazmun-mohiyatiga diqqat qaratish lozim. Ta’limda pedagogik diagnostika ta’lim-tarbiya faoliyatida uning sifat va samaradorligini aniqlab beruvchi amaliyot bo‘lib, unda erishilgan muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlikni ko‘rsatib beradi va uning takomillashtirish imkoniyatini olib beradi. U dars jarayonida, ta’lim subyektlari faoliyatida, pedagogik texnologiyalarni qo‘llash jarayonida ham muhim ahamiyatga ega. Bunda diagnostika ta’lim maqsadi va mazmuni, metod va vositalar, motivlar va qobiliyatlar asosida natijani ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi. Diagnostik faoliyat va munosabatlarda real insonlar ishtiroy etadi. Ular orasidagi etnik munosabatlar ma’naviy qadriyatlar asosida kechadi. Shu munosabat bilan mualliflar, pedagoglar diagnostikani olib borish va o‘tkazishda bir qator etnik prinsiplarga rioya qilishlari ko‘zda tutiladi.

Quyida rioya qilinishi zarur bo‘lgan prinsiplar haqida fikr yuritamiz.

Sinaluvchi talabaga ziyon yetkazmaslik prinsipi sinov faoliyati shunday tashkil etilishi kerakki, uning natijalari sinaluvchi salomatligiga, umum ahvoliga, ijtimoiy ahvoliga zarar yetkazmasligi lozim. Prinsip talabiga ko‘ra sinalayotgan shaxs tadqiqotning maqsadi, shakli va metodlari haqida axborotga ega bo‘lishi kerak. Tadqiqotning o‘tkazilishidan sinaluvchi xabardor bo‘lishi lozim va uning roziligi olinishi zarur.

Kompetentlik prinsipi pedagog sinovni o‘tkazishda, avvalo, sinovni o‘tkazish maqsadi bo‘yicha aniq bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lsin. Shu bilan birga, sinovni o‘tkazish davrida pedagogika fani yutuq va tajribalariga suyanishi hamda bu masalalarda kompetentlik darajasiga ega bo‘lishi lozim. Ayniqsa, sinalayotgan shaxslar bilan ishonchli, o‘zaro samimiy munosabatlar o‘rnatalgan holda olib borish kerak. Agar zarur sinaluvchi sog‘lom bo‘lmasa, sinov ishlari to‘xtatilishi zarur.

Xolislik prinsipi bunday hollarda sinaluvchiga munosabat noxolislikka yo‘l qo‘yilmaydi, sinaluvchiga samimiy, do‘stona munosabatda o‘rnatalib, ularda hech qanday noxolislikka shubha uyg‘otmaslik talab etiladi. Sinovni olib borish metodikasi ham standartlashgan bo‘lishi, sinov maqsadiga mos tushmog‘i talab etiladi.

Ishonchlilik prinsipi diagnostika asosida olingan materiallar o‘zaro ishonchga asoslanishi kerak, tasodifiy ravishda natijalarni oshkor etish, tarqatish mumkin emas. U o‘zaro kelishilgan shartlar asosida ko‘rsatiladi, tarqatiladi, boxabar qilinadi.

Oliy ta’lim tizimida pedagogik diagnostikaning asosiy vazifasi - talabalarni mustaqil bilim olishga, o‘z faoliyatini o‘zi tashkil qilishga, o‘zini o‘zi boshqarishga, o‘z faoliyatini nazorat qilishga, o‘ziga o‘zi tanqidiy yondoshishga, faoliyatida yangi qoidalarni ishlab chiqishga o‘rgatish, hulqining eng muhim sifatlari - mustaqillik, o‘z pozitsiyasida tura olish va himoyalash, tashabbuskorlik, topqirlik, ziyraklik, qiziquvchanlik, farosatlilikni o‘stirishga yordam berishdan iborat [1.87b]. Shuni yaxshi bilamizki, boshlang‘ich ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar, mediamanbalar va axborotga asoslangan ko‘nikmalarining ahamiyati kundan-kunga ortib bormoqda. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining axborot kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy ta’lim jarayonida katta ahamiyatga ega. Bu kompetensiyalar bolalarning kelajakdagi ta’lim jarayonlariga, ularning mustaqil axborot izlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqot davomida bo‘lajak o‘qituvchilarning axborot kompetensiyasini diagnostika qilish samaradorligi va bu boradagi o‘qituvchilar malakasini oshirish yo‘llari o‘rganildi. Axborot kompetensiyasini to‘g‘ri baholash va o‘qituvchilarni maxsus treninglar orqali qo‘llab-quvvatlash ularning kasbiy tayyorgarligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchilarning bilim va ko‘nikmalarini aniq diagnostika usullari yordamida aniqlash, zaif tomonlarini rivojlantirish, shuningdek, axborot texnologiyalari bilan ishslashda zamonaviy yondashuvlarni joriy etish ta’lim sifatini oshirishga katta xizmat qiladi. Kelgusida bu borada qo‘srimcha tadqiqotlar olib borish, diagnostika usullarini yanada rivojlantirish, o‘qituvchilarning axborot kompetensiyasini shakllantirishning yangi innovatsion usullarini izlash zarur.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. J.G‘ Yo‘ldoshev, M.K.Shirinov, F.I.Ochilov. “Pedagogik diagnostika”. O‘quv qo‘llanma. T-2014.
2. Ertmer, PA, & Ottenbreit-Leftwich, AT (2010). Teacher technology change: How knowledge, confidence, beliefs, and culture intersect. Journal of Research on Technology in Education, 42(3), 255-284. DOI: 10.1080/15391523.2010.10782551
3. Voogt, J., Knezek, G., Cox, M., Knezek, D., & Brummelhuis, A. (2013). Under which conditions does ICT have a positive effect on teaching and learning? A Call to Action. Journal of Computer Assisted Learning, 29(1), 4-14. DOI: 10.1111/j.1365-2729.2011.00453.x

PEDAGOGIKA

JADIDLAR MEROSSI ASOSIDA TALABALARINI MA’NAVIY-AHLOQIY TARBIYALASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

UO‘K 821.10



**Madina
GANJAYEVA**
Urganch Davlat Pedagogika
Instituti magistranti

Annotatsiya: Maqolada talabalarni ma’naviy-ahloqiy tarbiyalash jarayonida jadid g‘oyalari qo‘llash ko‘rib chiqiladi. Ularning g‘oyalari asosida talabalar o‘rtasida tanqidiy fikrlash, ma’naviy qadriyatlar va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirishga yordam beradigan ta’lim metodologiyasini takomillashtirish taklif etiladi.

Аннотация: В статье рассматривается применение идей джадидов в процессе духовно-нравственного воспитания студентов. На основе их идей предлагается усовершенствование методики воспитания, способствующее развитию у студентов критического мышления, духовных ценностей и социальной ответственности.

Annotation: The article examines the application of the ideas of the Jadids in the process of spiritual and moral education of students. Based on their ideas, it is proposed to improve the methodology of education, contributing to the development of students' critical thinking, spiritual values and social responsibility.

Kalit so‘zlar: jadidlar, ma’naviy-ahloqiy tarbiya, ta’lim metodikasi, qadriyatlar, ijtimoiy mas’uliyat, tanqidiy fikrlash, madaniy meros.

Ключевые слова: джадиды, духовно-нравственное воспитание, методика образования, ценности, социальная ответственность, критическое мышление, культурное наследие.

The keywords: jadids, spiritual and moral education, methods of education, values, social responsibility, critical thinking, cultural heritage.

Zamonaviy ta’lim yoshlar o‘rtasida ma’naviy bo‘shliqning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bunday sharoitda madaniy va ma’naviy merosga, xususan, XIX asr oxiri-XX asr boshidagi ilg‘or mutafakkirlar – jadid g‘oyalariiga murojaat qilish alohida ahamiyatga ega.

Jadidlar diniy va dunyoviy bilimlarni birlashtirishga, jamiyatga yuksak ahloqiy qadriyatlarni, madaniyatga hurmatni va shaxsiy o‘sishga intilishni singdirishga harakat qildilar. Ularning yondashuvlari talabalarda ijtimoiy mas’uliyat va ma’naviy mukammallik tuyg‘usini tarbiyalashga yordam beradigan zamonaviy usullarni ishlab chiqish uchun asos bo‘lishi mumkin.

Tadqiqotimiz maqsadi jadid g‘oyalari asosida talabalarni ma’naviy-ahloqiy tarbiyalash metodologiyasini ishlab chiqish va joriy etish, uning samaradorligini baholashdir.

Tadqiqot pedagogika, psixologiya va madaniyatshunoslik yondashuvlarini birlashtirgan fanlararo xususiyatga ega. Bunga quyidagilar kiradi:

1. Jadid asarlari va jadidchilik harakati haqidagi adabiyotlarni tahlil qilish [2,3,4].
2. Ularning g‘oyalariga asoslangan ta’lim metodologiyasini ishlab chiqish.
3. Ta’lim muhitida texnikani eksperimental sinovdan o’tkazish.

Eksperimentda Urganch davlat pedagogika institutida tahsil olayotgan 60 nafar pedagogika yo‘nalishining bakalavriat talabalari (3 guruh) ishtirok etdi. Nazorat guruhi an’anaviy dastur bilan shug‘ullandi va ikkita eksperimental guruh yangi texnikani sinab ko‘rishda ishtirok etdi.

Tadqiqot davomida ma’lumotlarni yig‘ish va ularni tahlil qilish usullari:

1. Matnlarni tahlil qilish: jadid tadqiqotlari va ularning ta’lim islohotlariga ta’siri [2,3,5]. Jadid matnlarining kontent tahlili.
2. Eksperimental mashg‘ulotlar doirasida ishtirokchilarni kuzatish. Ishtirokchilarning fikr-mulohazalarini sifatli tahlil qilish.
3. Talabalarning qadriyat yo‘nalishlari va ma’naviy rivojlanish darajasini baholash uchun so‘rovnama. So‘rov natijalarini statistik tahlil qilish.

Jadidlar merosi bo‘yicha ma’naviy-ahloqiy tarbiyaning asosiy tamoyillari:

1. Dunyoviy va diniy ta’limning uyg‘unligi: yaxlit dunyoqarashning shakllanishi [3,6].
2. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish: savollar, dialoglar va munozaralar orqali o‘rganish [2,5].
3. Ahloqiy javobgarlik: halollik, adolat va boshqalarga hurmat qadriyatlarini singdirish [4,7].
4. Ijtimoiy faollik: jamiyatga xizmat qilishga e’tibor [6].

Metodikaning talabalarga ta’siri:

Eksperimental guruhlarda mazkur texnikani joriy etish natijasida quyidagi o‘zgarishlar qayd etildi:

- ahloqiy masalalarni muhokama qilishga qiziqishning ortishi (nazorat guruhiga qaraganda 25% yuqori);
- ijtimoiy faollik darajasining oshishi (ishtirokchilar orasida 30 foizga o‘sish).

Amaliy mashg‘ulotlarga misollar:

Jadval 1.

Jadidlar merosi bo'yicha munozaralar:	Ijtimoiy loyihalar:	Refleksiv vazifalar:	Aniqlangan muammolar:
<ul style="list-style-type: none"> • ularning ahloq va taraqqiyot haqidagi qarashlarini muhokama qilish [3,5]. 	<ul style="list-style-type: none"> • muhtojlarga yordam berishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etish [6]. 	<ul style="list-style-type: none"> • ma'naviy rivojlanish mavzularida insho yozish [2,4]. 	<ul style="list-style-type: none"> • O'qituvchilarning bunday usullar bilan ishlashga tayyor emasligi. • Talabalar uchun moslashtirilgan cheklangan miqdordagi adabiyotlar.

Tadqiqot natijalari talabalarning ma'naviy va ahloqiy fazilatlarini shakllantirish uchun jadid g'oyalarining dolzarbligini tasdiqlaydi. Ularning tarbiyaga bo'lgan yondashuvi madaniy an'analarni zamonaviy ta'limga bilan birlashtirishga imkon beradi, bu esa tarbiya jarayonini yanada yaxlit qiladi.

Tadqiqot cheklangan namunada o'tkazildi, bu ma'lumotlarning ishonchlilagini oshirish uchun tajribani yanada kengaytirishni talab qiladi.

Jadidlar merosi talabalarning ma'naviy-ahloqiy tarbiyasini takomillashtirish uchun noyob g'oyalar manbai hisoblanadi. Ularning tamoyillarini joriy etish yoshlarda yuqori ijtimoiy mas'uliyat, ma'naviy yetuklik va barqarorlikni shakllantirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

7. Kalandarov.S.I. Формирование интеллектуальных умений и навыков у школьников 7–9 классов на занятиях по гуманитарным дисциплинам (русский язык и литература в узбекской школе): автореферат дис. Кандидата педагогических наук. Москва. 1992.

8. Gasprinskiy, I. Ma'rifat va uning musulmon jamiyatidagi vazifalari. Qrim.1898.

9. Behbudiy. Milliy maorif. Toshkent. 1912.

10. Fitrat. Ahloq haqida mulohaza. Buxoro.1923.

11. Yo'ldoshev.Sh. Jadidchilik va uning zamonaviy ta'limga ta'siri. Toshkent: O'ZNII.2018.

12. Karamatov.Z. Markaziy Osiyoning madaniy merosi: jadidchilikdan zamonaviylikkacha. Samarqand. 2020.

13. Nasr.S. H. Islom ilmi va ahloqi. M.: "Etnos". 2005.

PEDAGOGIKA

TALABALARNI PIRLS TADQIQOTIGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI VA METODIKASI

UO‘K 821.10



**Go'zal
JUMANIYAZOVA**

**Urganch davlat universiteti
tayanch doktaranti**

Annotatsiya: Ushbu maqola talabalarni PIRLS tadqiqotiga tayyorlash jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan pedagogik mexanizmlar va metodikani o'rzanadi. PIRLS tadqiqotiga tayyorlanishda metakognitiv kompetensiyalarini rivojlantirish va o'qituvchilarning metodik tayyorgarligi ham muhim ekanligi ta'kidlanadi.

Аннотация: В данной статье исследуются педагогические механизмы и методология, которые можно использовать в процессе подготовки студентов к исследованию PIRLS. Подчеркивается, что развитие метакогнитивных компетенций и методическая подготовка учителей также важны при подготовке к исследованию PIRLS.

Annotation: This article examines pedagogical mechanisms and methodologies that can be used in the process of preparing students for the PIRLS survey. It is emphasized that the development of metacognitive competencies and methodological training of teachers are also important in preparing for the PIRLS survey.

Kalit so'zlar: PIRLS, o'qish savodxonligi, metakognitiv kompetensiyalar, didaktik o'yinlar, zamonaviy ta'lif metodlari.

Ключевые слова: PIRLS, читательская грамотность, метакогнитивные компетенции, дидактические игры, современные методы обучения.

The keywords: PIRLS, reading literacy, metacognitive competencies, didactic games, modern teaching methods.

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) har to'rt yilda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish va matnni tushunish ko'nikmalarini baholash uchun o'tkaziladigan xalqaro tadqiqot bo'lib, o'quv jarayonining sifatini aniqlashda muhim rol o'ynaydi.

Tadqiqotning maqsad va ahamiyati – PIRLS natijalari nafaqat ta'lif tizimini baholash, balki o'quvchilarning o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda qaysi yo'naliishlarni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

1. Talabalarni PIRLS tadqiqotiga tayyorlashda pedagogik mexanizmlar.

Ta'lif jarayonida o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish – Talabalarni matnni tushunishga o'rgatish va o'qishga nisbatan qiziqishni oshirish orqali o'qish savodxonligi yaxshilanadi. Metakognitiv kompetentsiyalarini shakllantirish –

o‘quvchilarga o‘z o‘quv jarayonini rejalashtirish, kuzatish va baholash imkoniyatlarini berish orqali ularda metakognitiv ko‘nikmalar rivojlantiriladi. Bu o‘z navbatida o‘qishni yanada samarali tushunishga yordam beradi. Mustaqil va ijtimoiy o‘qish faolligini oshirish – Talabalarni individual ravishda mustaqil ravishda matnlar bilan ishlashga o‘rgatish hamda guruhiy faoliyatlarda ishtirok etish uchun sharoit yaratish.

2. PIRLS tadqiqotiga tayyorlash metodikasi. Matn tahlili va savollarga javob berish – PIRLSda o‘quvchilar matn mazmunini tahlil qilish va uni chuqur tushunishga qaratilgan savollarga javob berish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim.

O‘qish strategiyalarini qo‘llash – O‘quvchilarga matnni tuzilmaviy tahlil qilish, asosiy g‘oyalarni ajratish va muhim ma’lumotlarni topish strategiyalarini o‘rgatish zarur.

Differentsiyalashgan yondashuv – Har bir o‘quvchining individual imkoniyatlariga mos metodlarni qo‘llash orqali ularning o‘quv faoliyatiga qiziqishini oshirish.

3. O‘quvchilarni PIRLS tadqiqotiga tayyorlash jarayonida o‘qituvchilarning roli.

Metodik tayyorgarlik – O‘qituvchilar PIRLS tadqiqoti talablariga mos o‘qitish metodikalarini o‘zlashtirishi va ularni amaliyotda qo‘llashi zarur.

Dars jarayonida interfaol metodlarni qo‘llash – Talabalarning o‘qishga qiziqishini oshirish va ularning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun turli interfaol metodlar, masalan, bahs-munozara, rol o‘yinlari, guruhlarda ishlashni qo‘llash.

Ko‘nikmalarni baholash va tahlil qilish – Talabalarni PIRLS talablariga mos baholash tizimini qo‘llash orqali o‘qituvchi ularning qaysi yo‘nalishlarda kuchayishi zarur ekanligini aniqlaydi.

Tadqiqotning ta’lim tizimiga ta’siri – PIRLS tadqiqoti o‘qish savodxonligi va o‘qitish usullarini takomillashtirishda muhim o‘rin tutadi.

Kelgusida o‘quvchilarning natijalarini yaxshilash uchun tavsiyalar – Metakognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirish, o‘qishga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish va o‘qituvchilarning malakasini oshirish tavsiya etiladi.

PIRLS tadqiqotiga tayyorlanishda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi, metakognitiv kompetensiyalari va o‘qishga qiziqishlarini rivojlantirish uchun zamonaviy metodlar va didaktik o‘yinlar quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1. Interfaol o‘qish strategiyalari:

Jig-saw (Pazl): O‘quvchilar matnni kichik qismlarga bo‘lib, guruhlarda alohida qismlarni o‘qib, tushunganlarini boshqa guruhlarga yetkazadi. Bu ular o‘qigan ma’lumotni tahlil qilish va boshqalarga taqdim etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Think-Pair-Share (O‘ylash-Juftlash-Ulashish): O‘quvchilar o‘qilgan matn haqida individual fikrlaydi, juftlikda baham ko‘radi va keyin katta guruh bilan almashadi. Bu usul matnni chuqurroq anglash va fikr almashishni rag‘batlantiradi.

2. Blended Learning (Aralash o‘qitish): Onlayn platformalardan foydalanish: O‘quvchilar uchun turli xil onlayn testlar va matnlarni baholash

dasturlaridan foydalanish orqali ularning qiziqishini oshirish. Masalan, Quizlet yoki Kahoot kabi dasturlar orqali o‘quvchilarga savodxonlikni oshirish uchun interaktiv testlar o‘tkazish.

3. Story Mapping (Hikoya xaritasi) va Mind Mapping (Aqliy xarita):

O‘quvchilar matnning asosiy mazmuni, xarakterlari, joylashuvi va voqealarni xaritada ko‘rsatish orqali matnni chuqurroq tushunishadi. Bu metod o‘qishdan keyingi qayta ishlashni kuchaytiradi va tushunchalarini mustahkamlaydi.

4. Gamification (O‘yinlashtirish): Ballarni yig‘ish va rag‘batlantirish:

O‘qitish jarayoniga ballarni yig‘ish tizimini qo‘sish, ularni motivatsiyalash va o‘qishga qiziqishni oshiradi. Masalan, o‘qigan kitoblari uchun yoki to‘g‘ri javoblar uchun ball yoki medallar berish.

“Hikoyani davom ettir” didaktik o‘yini: O‘quvchilarga hikoyaning birinchi qismi o‘qib beriladi va ular o‘z navbatida hikoyani davom ettirishadi. Bu o‘yin o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga va hikoyaning mantiqiy davomiga e’tibor berishga o‘rgatadi.

“Asosiy g‘oyani top” o‘yini: O‘quvchilarga qisqa matnlar yoki hikoyalar beriladi va ular asosiy g‘oyani ajratib olishga harakat qilishadi. Bu o‘yin o‘quvchilarni matnning asosiy ma’nosini topish ko‘nikmasini rivojlantiradi va ularni o‘qishda diqqatni jamlashga o‘rgatadi.

“So‘z ovchilari”: Matndagi muhim so‘zlar yoki atamalarni topish uchun o‘yin tashkil qilish. Masalan, o‘quvchilar muhim so‘zlarni yoki iboralarni izlashadi va ularning ma’nosini muhokama qilishadi. Bu ko‘nikma ularning lug‘at boyligini kengaytiradi va diqqatini matnning muhim qismlariga qaratadi.

“Mening fikrim” debat o‘yini: O‘quvchilar guruhlarga bo‘linadi va berilgan mavzu bo‘yicha o‘z fikrlarini bildiradilar. Bu ular matnni tahlil qilish va tushunganlarini asoslab berishga yordam beradi, shuningdek, tanqidiy fikrlash va taqdimot ko‘nikmalarini oshiradi.

“Savol-javob zanjiri”: O‘quvchilardan biri o‘qigan matn asosida savol beradi va boshqasi javob beradi. Keyin u yana bir savol beradi, va bu jarayon zanjirli ravishda davom etadi. Bu o‘yin o‘quvchilarni matn mazmunini yaxshi anglash va savol berish ko‘nikmasini rivojlantirishga o‘rgatadi.

Bu metod va o‘yinlar o‘quvchilarda faqatgina o‘qish ko‘nikmalarini emas, balki metakognitiv kompetentsiyalarni, ya’ni o‘z-o‘zini baholash va fikrlash jarayonlarini ham rivojlantirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mullis, I. V. S., Martin, M. O., & Foy, P. (2017). PIRLS 2016 International Results in Reading. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA).
2. Paris, S. G., & Winograd, P. (1990). How metacognition can promote academic learning and instruction. In B. F. Jones & L. Idol (Eds.), Dimensions of Thinking and Cognitive Instruction (pp. 15–51). Erlbaum.

3. Afflerbach, P., Pearson, P. D., & Paris, S. G. (2008). Clarifying Differences between Reading Skills and Reading Strategies. *The Reading Teacher*, 61(5), 364–373.
4. Alvermann, D. E., & Phelps, S. F. (1998). Content Reading and Literacy: Succeeding in Today's Diverse Classrooms. Longman.
5. Мехржонова, Н. (2020). Ўқувчиларда метакогнитив компетенцияларини шакллантиришда инновацион методлар. “Педагогика ва психология”, журнали, 21(4), 45–52.
6. Muminova, N., & Khidirova, F. (2019). Ta’limda interfaol metodlardan foydalanish va ularning samaradorligi. O‘zbekiston Milliy Universiteti ilmiy axboroti, 3(1), 23–29.
7. Сулейманова, Ш. (2021). Ўқувчиларнинг функционал саводхонлигини шакллантиришда замонавий ўкув ўйинларининг аҳамияти. “Таълим ва инновацион методлар” журнали, 19(2), 67–74.
8. Burns, M., & Griffin, P. (2008). Assessing Reading: From Theories to Classroom Practices. Cambridge University Press.
9. Kalyuga, S. (2007). Expertise Reversal Effect and Its Implications for Learner-Tailored Instruction. *Educational Psychology Review*, 19(2), 77–97.

IQTISODIYOT

ZAMONAVIY JAHON IQTISODIYOTIDA XALQARO SAVDONI AMALGA OSHIRISH USULLARI

UO‘K 821.10



**Sharifa
FARXODOVA**

UrDU talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy jahon iqtisodiyotida xalqaro savdoni amalga oshirishning obyektiv zarurligi, mavjud imkoniyatlari va asosiy usullari yoritib berilgan.

Аннотация: В данной статье описаны объективная необходимость, имеющиеся возможности и основные методы международной торговли в современной мировой экономике.

Annotation: This article describes the objective necessity, available opportunities and main methods of international trade in the modern world economy.

Kalit so‘zlar: Iqtisodiyot, savdo, xalqaro savdo, usul, tovarlar, xizmatlar.

Ключевые слова: Экономика, торговля, международная торговля, метод, товары, услуги.

The keywords: Economy, trade, international trade, method, goods, services.

Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotini keng rivojlantirishning muhim yo‘nalishi sifatida xalqaro savdoni keng taraqqiy qildirish belgilangan. Xalqaro savdo mamlakatlar o‘rtasidagi global savdo, ya’ni tovarlar va xizmatlar importi va eksporti, ularning hajmi, yo‘nalishi, tarkibi va davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik kabi omillarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Ushbu sohani mamlakatimizda keng taraqqiy qildirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Xususan, bu borada O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 283-sон qarori [1] qabul qilindi. Unda O‘zbekiston Respublikasida tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirish tizimini yanada takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish, shuningdek, xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan tashqi savdo kontraktlarini samarali amalga oshirish yo‘nalishlari aks ettirilgan. Shunga asosan, xalqaro savdoning umumiy usullari tarkibi import yoki eksport hamda boshqa ko‘plab operatsiyalar majmuidan iborat bo‘ladi. Ushbu savdoning barcha usullari o‘ziga xos xususiyatlar bilan bir qatorda sezilarli ijobjiy va salbiy tomonlarga ega bo‘ladi. Bular esa zamonaviy jahon iqtisodiyotida xalqaro savdoni samarali amalga oshirishni taqozo qiladi.

Zamonaviy jahon iqtisodiyotida xalqaro savdoni samarali amalga oshirish yuzasidan turli tadqiqotlar olib borilgan. Chunki, xalqaro savdo usullari savdo sohasida turli mamlakatlar vakili bo‘lgan subyektlar o‘rtasidagi mavjud munosabatlar turlarini o‘z ichiga oladi.

Tadqiqotlarga asosan, xalqaro savdo mamlakatlarning ma’lum bir mahsulot yoki tovarlar to‘plamini ishlab chiqarish va ularni chet elga sotishga ixtisoslashuvi

tufayli rivojlanadi[2]. Natijada, mamlakatlar o‘rtasidagi mahsulotlarni



ayirboshlash imkoniyatlari kengayadi.

Yana bir tadqiqotlarga asosan xalqaro savdo - milliy chegaralar orqali tovarlar va xizmatlarning jismoniy harakati va elektron o‘tkazmasidir [3]. U tabiiy resurslar va ishlab chiqarilgan mahsulotlar kabi tovarlar harakati hamda shaxsiy va tijorat ma’lumotlari, bank va moliyaviy operatsiyalar, boshqa turli kasbiy va biznes bilan bog‘liq faoliyat kabi xizmatlarni ko‘rsatishni o‘z ichiga oladi.

Ba’zi tadqiqotlarda xalqaro savdo evolyutsiyasi va hozirgi holati, uni tartibga solish mexanizmlari, tovarlar, xizmatlar va intellektual mulkning global harakati dinamikasiga ta’sir etuvchi asosiy omillar ta’kidlanadi [4]. Chunki, xalqaro savdo usullari tarixan shakllangan bo‘lib, u XVIII-XIX asrlarda sanoat inqilobi davriga to‘g‘ri keladi. Bu boradagi tadqiqotlarga asosan, ushbu savdo shakli xalqaro siyosat shaklida Yevropa mamlakatlarida mahsulot eksportining o‘sishi bilan ajralib turadi. Savdo siyosatini mintaqaviy darajada o‘rganish integratsiyalashgan o‘zaro hamkorlikning yorqin namunasi bo‘lgan Yevropa mamlakatlari tajribasiga asoslanadi [5]. Chunki, Yevropa Ittifoqi dunyoning eng yirik savdo-iqtisodiy ittifoqi va Jahon Savdo Tashkilotining to‘laqonli a’zosi bo‘lib, mintaqaviy bitimlar, xususan, erkin savdo shartnomalari tuzish yo‘li bilan turli mintaqalardagi xorijiy hamkorlar bilan savdo aloqalarini rivojlantiradi.

Bundan tashqari, tovar ayirboshlash hajmining tez sur’atlar bilan o‘sishi sanoatning rivojlanishiga mos bo‘lgan. Bu borada xalqaro savdoni tartibga solishning mashhur usuli bo‘lib, bu proteksionizm hisoblanadi. Sanoat inqilobi davri tugagach, ya’ni XIX asrning II yarmida fan-texnika taraqqiyotining ishlab chiqarishga joriy etilishi tufayli monopoliya va transport tizimlari shakllana boshladi. Savdo aloqalari haqida gapiradigan bo‘lsak, bu borada kapital eksporti va tovar aylanmasining faol o‘sishi birinchi o‘rinda turadi. Buyuk Britaniya va Fransiya asta-sekin o‘z pozitsiyalarini yo‘qotib, boshqa rivojlangan mamlakatlar

bilan o‘zaro munosabatlar o‘rnatishga imkon berdi. Bu borada proteksionizm tobora ommalashdi.

Shuningdek, 1960-yillargacha xalqaro savdoning tuzilishi o‘zgardi. Rivojlanayotgan mamlakatlarning roli zaiflashdi va ularning xalqaro savdo hajmidagi ulushi qisqardi. Bu esa Germaniya, Italiya, Kanada va Yaponiya kabi mamlakatlarga o‘z pozitsiyalarini mustahkamlashga imkon berdi. Xususan, bu borada xalqaro savdo tizimini tartibga solish sohasida liberallashtirish tendensiyasi paydo bo‘la boshladi. Bu esa tariflar va savdo bo‘yicha bosh kelishuvga asosan, bojxona choralarining uyg‘unlashtirilgan tizimini joriy etishga imkon berdi.

Xalqaro munosabatlarda yuzaga kelgan inqirozlar savdo sohasiga ta’sir ko‘rsatdi. Ya’ni, xalqaro savdo aylanmasi hajmi barqaror emas, xomashyo ulushining ortishi va savdo usullarida materiallar kuzatilishi amalga oshirildi. Eng muhim burilish nuqtalaridan biri global valyuta tizimining inqirozi bo‘lib, bu borada eng muhim iqtisodiy tizim shakllandi. Ya’ni, shu orqali bojxona proteksionizmini tartibga solish zarurati tug‘ildi.

Bugungi kunga qadar davom etayotgan davr zamonaviy deb ataladi, u o‘tgan asrning 70-yillarida boshlangan. Xalqaro savdoning zamonaviy usullari doimiy takomillashtirish va rivojlanish jarayonida bo‘lib, ko‘pincha yangi turdag'i savdo shakli paydo bo‘ldi. Chunki, xalqaro savdoni tartibga solish tarif usulini tarifsiz turlarga almashtirish kabilar bilan tavsiflanadi.

Xalqaro savdoning usullari va turlariga tomonlar o‘rtasidagi munosabatlar tabiatи va savdo manbai ta’sir qiladi. Shundan kelib chiqib, tadqiqotlarga asosan, xalqaro savdoning asosiy usullari quyidagilar bilan belgilanadi:

1. Xalqaro savdoning to‘g‘ridan-to‘g‘ri usuli. Bu usul vositachilar yordamisiz amalga oshiriladigan bitim shakli bo‘lib hisoblanadi. U ulgurji operatsiyalarni amalga oshirishga qodir bo‘lgan kompaniyalar uchun javob beradi. Ushbu to‘g‘ridan-to‘g‘ri xalqaro savdo usuli xalqaro savdoning boshqa usullaridan bir qator quyidagi afzalliklarga ega bo‘lishi bilan farq qiladi:

- moddiy foyda bor yoki bitim foydali bo‘lib, vositachiga ulgurji hajmlar uchun kichik komissiya to‘lovlarini nazarda tutadi;

- xatarlarni past deb atash mumkin va bitim qo‘srimcha ishtirokchilarga bog‘liq emas. Bu fakt esa hech kimning yordamisiz butun sotib olish va sotish jarayonini nazorat qilish imkonini beradi;

- tranzaksiya ma’lumotlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri kirish imkoniyati mavjud, deb qaraladi.

2. Xalqaro savdoning bilvosita usuli. Unga asosan, shartnomada vositachilar bevosita ishtirok etadilar. Bu holdagi bitim sxematik tarzda “ishlab chiqaruvchi - vositachi – xaridor” kabi yo‘nalishda tasvirlanishi mumkin. Mazkur usul bir xil vositachilar tomonidan yordam beradigan, ammo qulayroq shartlar taklif qilinadigan raqobatbardosh tomonlarni qisqartirish imkonini beradi. Bu iste’molchilarning tor doirasiga ega bo‘lgan kompaniyalar va doimiy bo‘limgan mijozlar uchun mos keladi. Bilvosita usul kompaniya yangi bozorlarni qidirayotganda yoki o‘zining sotish usullari va kuchli raqobatchilarga ega bo‘limganda yaxshi natija beradi.

Shular bilan birgalikda, xalqaro savdoning yordamchi usullari ham mavjud bo‘ladi. Jumladan, xalqaro savdoning kooperativ usuli - vositachi orqali bitimni amalga oshirish bo‘lib sanaladi[6]. Ushbu shartnomalar tashabbuskorlari birlashmasi tomonidan yaratilgan biznesning tashkiliy shaklining namunasi bo‘lib hisoblanadi. Guruhning barcha a’zolari tranzaktsiyani xavfli, foydasiz yoki murakkab deb hisoblaganlarida, bu muhim bo‘lib qaraladi.

Hozirgi vaqtda xalqaro savdo zamонавији iqtisodiy integratsiyaning ajralmas qismi bo‘lib qaraladi. Uning mavjud shakllari mintaqaviy savdo bitimlarining o’sishiga olib keladi. Tovarlar va xizmatlar xalqaro savdosining tabiatini va dinamikasiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi va ularni amalga oshirish usullarini o‘zgartiradi. Natijada, zamонавији jahon iqtisodiyotida xalqaro savdoni amalga oshirish usullari milliy iqtisodiyotlarda takror ishlab chiqarish jarayonining kuchayishi ixtisoslashuvning kuchayishiga, ommaviy ishlab chiqarishning paydo bo‘lishi va rivojlanishi uchun imkoniyatlarning yaratilishiga, asbob-uskunalardan foydalanish darajasining oshishiga, yangi texnologiyalarni joriy etish samaradorligini oshirishga, eksport ta’minotining ko‘payishiga, xalqaro raqobat korxonalarni takomillashtirishga hamda eksport tushumlari sanoatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan kapitalni jamg‘arishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-maydag‘i “O‘zbekiston Respublikasida tashqi savdo operatsiyalari monitoringini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 283-son qarori. Manba: <https://lex.uz/uz/docs/-4812419>
2. Фомичев В.И. Международная торговля: Учебник; 2-е изд., перераб. и доп. - М.: ИНФРА-М, 2001. - с. 22.
3. McCONNELL J.E. INTERNATIONAL TRADE: GEOGRAPHIC ASPECTS. // INTERNATIONAL ENCYCLOPEDIA OF THE SOCIAL & BEHAVIORAL SCIENCES, 2001. [HTTPS://WWW.SCIENCEDIRECT.COM/TOPICS/ECONOMICS-ECONOMETRICS-AND-FINANCE/INTERNATIONAL-TRADE-PATTERN](https://www.sciencedirect.com/topics/economics-econometrics-and-finance/international-trade-pattern)
4. Международная торговля: учебник для вузов / Р. И. Хасбулатов [и др.]; под общей редакцией Р.И.Хасбулатова. - 2-е изд., перераб. и доп. - М.: Издательство Юрайт, 2024. - 405 с.
5. Губарева А.В., Перевалов В.Д. Развитие международных торговых отношений на современном этапе: теоретический аспект. // Вестник Пермского университета. Юридические науки. 2018. Вып. 41. - с. 501.
6. https://vvs-info.ru/helpful_information/poleznaya-informatsiya/metody-mezhdunarodnoy-torgovli/

IQTISODIYOT

INFRATUZILMA SHAKLLARI VA UNING YO'NALISHLARI

UO'K 821.10



**Ozodbek
QOBULOV**

Urganch davlat universiteti
Biznes va boshqaruv
kafedrasi
stajyor-o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada infratuzilma shakllari, xususiyatlari va uning yo'nalishlari yoritilgan.

Аннотация: В данной статье описаны формы, особенности и направления инфраструктуры.

Annotation: This article covers the forms, characteristics, and directions of infrastructure.

Kalit so'zlar: Infratuzilma, ijtimoiy infratuzilma, bozor infratuzilmasi, Transport infratuzilmasi.

Ключевые слова: Инфраструктура, социальная инфраструктура, рыночная инфраструктура, транспортная инфраструктура.

The keywords: Infrastructure, social infrastructure, market infrastructure, transport infrastructure.

Infratuzilma tizimlari infratizim, ijtimoiy-texnik rejim yoki texno-institutsional kompleks deb ataladigan jismoniy-texnologik va institutsional ijtimoiy tarkibiy qismlarning o'zaro bog'liqligi bilan konsepsiyanadi. Infratuzilmaning shakli arzon telekommunikatsiya va transport xizmatlarining keng mavjudligi yangi ish o'rinalarini yaratish va iqtisodiy o'sishni tezlashtirish imkonini beradi. Infratuzilmaning turli sohalarga ta'siri va yo'nalishlari mavjuddir. Infratuzilma sifatida korxonalar dasturiy, texnik va boshqa texnologik resurslarga, malakali mutaxassislarga ega bo'ladi.

Infratuzilmaning ko'rinishlari sifatida transport tizimlari, energiya tizimlari va telekommunikatsiya tizimlari kabi infratuzilmalar jamiyatning ishlashini ta'minlash uchun muhim bo'lgan xizmatlarni taqdim etishda foydalilanadi. Biroq, bugungi kunda globallashuv, tartibga solish, nomarkazlashtirish va raqamlashtirish kabi texnologik va ijtimoiy o'zgarishlar tufayli infratuzilmalar o'zaro bog'liqliklardan kelib chiqadigan yoki kuchaytiradigan qator tahdidlarga duch keladilar. Ushbu xavf-xatarlar siyosat va infratuzilmalar o'rtasidagi bog'liqliklarning kuchayishiga olib keladi.

Aholi turmush farovonligini oshirishda infratuzilma turli ko'rinishlarda, xususan ijtimoiy, transport, axborot, bozor infratuzilmasi va h.k. turlaridan ko'proq foydalilanadi. Shular qatorida tibbiy asbob-uskunalarga xizmat ko'rsatish infratuzilmasi ham mavjud bo'lib, ular o'z tuzilishi va mohiyatiga ega bo'ladi. Biroq, ularni samarali rivojlantirishga qaratilgan imtiyozlar berilishini ta'minlash va o'z vaqtida boshqarib borish lozim.

Ijtimoiy infratuzilma - aholining me'yoriy faoliyat yuritishini funksional ta'minlovchi tarmoqlar va korxonalar yig'indisidir[1]. Ushbu infratuzilma tarkibiga uy-joy, uning qurilishi, ijtimoiy-madaniy obyektlar, uy-joy kommunal xo'jaligi sohasi, sog'liqni saqlash, ta'lim, maktabgacha ta'lim tizimi korxonalari va tashkilotlari; dam olish va hordiq chiqarish bilan bog'liq korxonalar va tashkilotlar, umumiy ovqatlanish, xizmat ko'rsatish sohasi, sport-sog'lomlashtirish muassasalari, aholiga xizmat ko'rsatish uchun yo'lovchi transporti va aloqa, yuridik, moliyaviy va kredit xizmatlarini ko'rsatuvchi muassasalar tizimi (yuridik maslahatlar, notarial idoralar, jamg'arma kassalari, banklar) va boshqalar kiradi.

Aniqroq qilib aytganda, ijtimoiy infratuzilma kishilar ehtiyojlarini qondirish, hayotning zarur darajasi va sifatini ta'minlash, iqtisodiyotning barcha sohalari uchun kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan kadrlarni takror ishlab chiqarishni ta'minlash uchun mo'ljallangan xizmat ko'rsatish sohalari va faoliyat turlari guruhidan iborat bo'ladi. Ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishiga



iste'molchi - asosiy omil (aholi taqsimoti), tabiiy resurs omili (suv havzalari, o'rmonlar, tog'lar bilan bog'liq) va "bilimni talab qiluvchi" omil (oliy ta'lim (universitet, institut) kabi omillar ta'sir ko'rsatadi. Ular bilan bir qatorda, transport omili, ya'ni infratuzilma obyektlarini joylashtirishda aholi uchun transportning

qulayligi doimo hisobga olinadi.

Bozor infratuzilmasi - bozorda tovarlar va xizmatlarning erkin harakatlanishini ta'minlovchi muassasa va tashkilotlar tizimi bo'lib, ularga banklar, birjalar, yarmarkalar, sug'urta kompaniyalari, konsalting va axborot-marketing firmalari va boshqalar kiradi. Bozor infratuzilmasi - tovarlar va xizmatlar, kapital va ishchi kuchining harakatiga xizmat ko'rsatadigan va ta'minlaydigan korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va xizmatlar to'plami, ya'ni bozorning me'yoriy ishlashini ta'minlashdir [2]. Shulardan kelib chiqib, bozor infratuzilmasiga tovarlar va xizmatlar, pul, qimmatli qog'ozlar, ijara va lizing punktlari va ishchi platformalar harakatini ta'minlovchi korxona va tashkilotlar tizimi xos bo'ladi.

Transport infratuzilmasi infratuzilma turi bo'lib, uning tarkibi transportni amalga oshiradigan va uni amalga oshirish, texnik xizmat ko'rsatishni ta'minlaydigan barcha sanoat tarmoqlari va transport korxonalari yig'indisidan iborat bo'ladi. Transport infratuzilmasi - barcha turdag'i transport va transport tuzilmalarining yig'indisi bo'lib, ularning faoliyati iqtisodiyotning barcha tarmoqlari faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan bo'ladi,

ya’ni insonning iqtisodiy va xo‘jalik bo‘limgan faoliyatini ta’minlash uchun mo‘ljallangan moddiy-texnik transport tizimlari majmuidir [3]. Boshqacha qilib aytganda, transport infratuzilmasi transport jarayonining tez va to‘sinqiniksiz bajarilishini ta’minlaydigan moddiy-texnik va tashkiliy shart-sharoitlar majmui sifatida tushunilishi lozim.

Axborot infratuzilmasi aslida mamlakatning axborot makonining ishlashi va rivojlanishini ta’minlaydigan tashkiliy tuzilmalar, quyi tizimlar va axborotning o‘zaro ta’siri vositalari tizimi kabilardan iborat bo‘ladi. Ya’ni, axborot infratuzilmasi - iste’molchilarining axborot resurslaridan foydalanishini ta’minlovchi axborot markazlari, ma’lumotlar va bilimlar banklari, aloqa tizimlari yig‘indisidir. Ushbu infratuzilma tashkiliy jihatdan axborot sanoati tarkibiga kirmaydigan va samarali faoliyat yuritishini ta’minlovchi iqtisodiy tarmoqlar majmui bo‘lib, ular tarkibiga kutubxonachilik, nashriyot va matbaa sanoati, kitob savdosi, pochta-telefon, telegraf va elektron aloqa, televide niye va boshqalar kiradi.

Xulosa shuki, infratuzilmaga mamlakat hududlarining samarali ishlashi va rivojlanishini ta’minlaydigan murakkab obyektlar va tizimlar, aholi turmush farovonligini ta’minlaydigan tuzilmalar, aloqalar va kommunikatsiyalar tizimi sifatida qaraladi. Bu esa iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash qobiliyati sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu infratuzilma ijtimoiy, transport, axborot, bozor infratuzilmasi va h.k. kabi turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Uning muhim unsurlari bo‘lgan avtomobil va temiryo‘llar, aeroportlar, portlar, energiya tizimlari, suv ta’minoti va boshqa infratuzilmalar sifati va ulardan foydalanish qulayligi mamlakatning raqobatbardoshligiga ta’sir qiladi. Natijada, infratuzilma tizimning faol ishlashiga asos bo‘lib xizmat qiladi va xizmat ko‘rsatish tuzilmalari yoki obyektlari majmuasidan iborat bo‘ladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. <https://ru.wikipedia.org/wiki/>
2. Sapayeva N.K. Bozor infratuzilmasi unsurlarining o‘ziga xos xususiyatlari. // “Mintaqada barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi turmush farovonligini oshirishning ustuvor yo‘nalishlari” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari II jild [Matn]. / Urganch Davlat Universiteti.- Xorazm: Khwarezm travel, 2024. - 82 b.
3. Загорский И.О., Володькин П.П., Рыжова А.С. Транспортная инфраструктура. - Хабаровск: Изд-во Тихookeан. гос. ун-та, 2015. - с. 7.



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH INNOVATION UNIVERSITETI NTM**

***INNOVATSIYA
VA
TARAQQIYOT***

**12 (21)
2024-yil, dekabr.**

Bosh muharrir:	M.Eshmurodov
Bosh muharrir o'rribbosari:	S.Samandarova
Mas'ul kotib:	U.Bekimmetov
Texnik muharrir:	A.Xushnudov
Navbatchi:	A.Xushnudov

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va
ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-yil 10-fevral kuni
№062869 raqamli guvohnoma berilgan.

Bosishga topshirilgan vaqt: 10:00. Ruxsat etilgan vaqt: 11:00

Qog'oz bichimi: A4. Adadi: 200 nusxa.

Hajmi: 5, 375 b.t. Buyurtma №53/24.

Nashr ko'rsatkichi: 1404.

Bahosi kelishilgan narxda.

"Milleniumus print" MCHJda ofset usulida chop etildi.

Urganch tumani, "Shermatlar" MFY, Tadbirkorlar ko'chasi, 69-uy.

Tel: (+998) 91-994-24-00

Urganch innovatsion universiteti
220100, Urganch shahri, "Mustaqillik" MFY,
Gurlan ko'chasi, 2-uy.
Tel: (+998) 90-436-20-22